

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

12/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

12/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2025, № 12, dekabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
MATEMATIKA *** MATHEMATICS *** МАТЕМАТИКА		
Abdullayev S.A.	3x3 matrisaning sonli tasviri	4
Abdullayev S.A.	Blok operatorli matrisalarning sonli obrazlari	9
Muxtorova Sh.N.	Tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonning ta’rifi va talqini	13
Shog’dorova Q.S., Omonov O.I.	Qatorlarning yaqinlashishini tahlil qilishda d’alamber alomati va unga o’xshash alomatlar	18
Utayev A.T.	Ikki o’lchamli simpleksda aniqlangan V – tartibli bistoxastik operatorlar oilasi dinamikasi	26
Мамедов К.А., Жуманиязов Н., Азаматов А.Ш.	Интегрирование уравнения мкдф с самосогласованным источником в классе функций конечной плотности, в случае простых собственных значений	32
Арзикулов З.О., Абдужабборов А.А.	Автомодельные решения вырождающегося дифференциального уравнения в частных производных третьего порядка с четырьмя переменными	43
Жабборов Н.М., Хусенов Б.Э., Бобохонов Ш.С.	Автоморфизмы и лемниската	55
Бойназаров А.Н.	Решение нелинейных обыкновенных дифференциальных уравнений, с квадратом оператора бесселя	64
Сулаймонов Ф.У., Эшдавлатов З.З., Холбоева Х.Ф.	Численное решение задачи аномальной переноса вещества в трещиновато-пористой среде	71
Omonova A.N.	Initial-boundary value problem for a degenerate second order equation with fractional caputo derivative and riemann-liouville integral	77
Axmedov S.A., Ablazova K.S., Dexqonboyeva S.A.	Jarayonlar stabilligini nazorat qilishning uch komponentli tizimi	86
Baratov B.S.	On dynamics of a separable cubic stochastic operators in S^2	91
Elmuradova H.B.	An inverse problem of determining the kernel pseudo-integro-differential equation	97
G’iyosova F.U.	Kasr tartibli to’lqin tarqalish tenglamasi uchun aralash masala	110
Akilov J.A., Djabbarov M.S., G’aybulov Y.Sh.	Neft quduqlarini shtangli nasoslar yordamida ishlatishda Gidrodinamik bosim	115
Ishankulov T., Umarov S.S.	Laplas tenglamasi uchun koshi masalasining karleman funksiyasi	124
Kuldoshova M.J.	The controlling problem for the heat exchange equation in an inhomogenous rod	129
Muradov R.S.	Noinformativ kuzatuvlar statistik modeli uchun kramér–rao bahosining yangi isboti	134
Sulaymonov I.A.	Fractional parabolic systems of vector order with riemann-liouville fractional derivative	139

Xolliyev F.B.	Fraktal tuzilishga ega bo'lgan g'ovak muhitlarda anomal modda ko'chishi masalasidagi hosila tartibini tiklash	146
Даминова М.С., Шодиева С.Р., Абдижабборов М.А.	Нелокальная задача с интегральным условием склейки для нагруженного уравнения смешанного типа с дробной производной Капуто	153
Зокиров М.С.	Численное моделирование процессов плоскорадиальной фильтрации с дробными производными	160
FIZIKA *** PHYSICS *** ФИЗИКА		
Abdug'aniyev Y.A.	Yevropiy bilan legirlangan kremniyda magnitlanishning gisterezisi	167
Axmedova U.F., Ro'ziyev T.R.	Erkin tebranishlar tushunchasi va fizik mohiyati	171
Axmedjanov F.R., Boltabaev A.F., Elboyeva M.I.	Camoo ₄ kristallarida akustik to'lqinlarda kollinear yorug'lik difraksiyasi	176
Eshbo'riyev R., Ubaydullayeva M.A., Fayzullayeva M.L., Abdusamadova D.I.	Uran va plutoniy izotoplarini boyitilishi va ularni yadro reaktorlarida qo'llanilishi	180
Axmedjanov F.R., Maharov N.M., Avdievich V.N.	Kubik simmetriyali kristallarining akustik xossalari anizotropiyasi va relaksatsiya vaqtlari	185
Mavlonov G.H., Uralbaev Kh., Tachilin S.A., Isakov B.O., Ibodullaev Sh.N.	Thermal stability of electrical parameters of silicon with nanoclusters of manganese atoms	191
Qo'chqorova F.T., Mannonova M.S., Kengboyev S.A., Dusanova G.M.	Dinamikaning asosiy masalalari: moddiy nuqtaning dinamik harakat qonunlarini aniqlash usullari	197
Qodirov M.Q., Tuxtayev U.U., Muxammedov A.K., Ulasheva M.A., Nabiyev A.A.	Artezian quduq suvi tarkibidagi tabiiy (²²⁶ ra, ²³⁸ u, ²³² th, ⁴⁰ k) va texnogen ¹³⁷ cs izotoplarining miqdori	202
Axmedov A.A., Tursunov A.R.	Datchiklarning asosiy va maxsus tavsiflari	208
Мадалиев М.Э., Носирова Н.А., Мухаммадёкубов Х.Э.	Численное моделирование трёхмерного течения за обратной ступенькой с использованием les-модели	215
Илиев Х.М., Мухаммаджонов У.Х.	Цифровое моделирование процесса многоатомной диффузии в кремнии методом функционала плотности	224
Шоабдурахимова М.М.	Особенности неустойчивостей тока в компенсированном кремнии	228
Эргашева М.А., Кучкарова М.О.	Определение микроскопических параметров поверхности лазерным сканированием	233
Djuraev D.R., Sharipov M.Z.,	Hajmiy ferromagnit kristallardagi bir o'lchamli mikromagnit tizimlarning domen tuzilishi	237

Fayziyev Sh.Sh., To‘xtayeva Sh.Q., Mo‘minov Sh.H.		
Ибрагимов Ж.К., Эшбекова С.О., Абдуразаков М., Ашуров Н.Р.	Исследование термодинамического поведения композитов с изотактическим полипропиленом	243
Izzatillayev X.X., Quchqarov B.H.	Gaas/gainas/gainp/algaas geterostrukturalarning modellashtirish natijalari	252
Soatov A.K., Turayev A.R.	Pressure-induced phase transitions and memristive behavior in mn- and co-doped zno oxide structures	258
Ergasheva A.A., Xalilov U.B.	Irmof-8 ning nukleatsiyaoldi yig‘ilish mexanizmi: Reaxff md asosidagi atomistik tahlil	263
BIOLOGIYA *** BIOLOGY *** БИОЛОГИЯ		
Хасанов И.Х., Остонова Н.Х.	Пути повышения продуктивности пастбищ бухарской области	269
INFORMATIKA *** INFORMATICS *** ИНФОРМАТИКА		
Toshpo‘latova Sh.B.	SQLda ma’lumotlarni filtrlashda funksiyalardan foydalanish samaradorligi	273
Xo‘jayev S.S.	“Btec” xalqaro dasturi qanday samara beradi?	278
Tursunov A.R., Axmedov A.A.	O‘lchash qurilmalarida neyron tarmoqlardan foydalanish	281
Turdimatov M.M., Aliyev M.G‘.	Tashkilotlarda biznes uzluksizligini boshqarish tizimini modellashtirish usullari	287
Kabulov A.V., O‘rinov N.T.	Universitet hisoblash tarmog‘i zaiflik ko‘rsatkichlarini modellashtirishga asoslangan axborot xavfsizligi tizimi	292
TEXNIKA *** TECHNIQUIS *** ТЕХНИКА		
Hamrayev J.H., Farmonov L.B.	Gtl korxonalari bug‘ qozonlarida bug‘ tayyorlash jarayonlarini mukammal boshqarish tizimlarini ishlab chiqish	302

3x3 MATRISANING SONLI TASVIRI

Abdullayev Sarvar Anvar o'g'li,

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada 3×3 o'lchamli o'z-o'ziga qo'shma sonli matrisaning sonli tasviri, uning xos qiymatlari va sonli tasvir bilan spektr orasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Matritsaning sonli tasviri uchun umumiy teoremlar isbotlangan hamda ayrim maxsus holatlar uchun lemma va misollar orqali aniq ifodalar keltirilgan. Natijalar orqali sonli matritsalar spektrining joylashuv oralig'i va ularning sonli tasviri orasidagi uzviylik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sonli tasvir, xos qiymat, spektr, chiziqli operator, o'z-o'ziga qo'shma matrisa, Gilbert fazosi, rezolventa.

NUMERICAL RANGE OF A 3×3 MATRIX

Abstract. Ushbu maqolada 3×3 o'lchamli o'z-o'ziga qo'shma sonli matrisaning sonli tasviri, uning xos qiymatlari va sonli tasvir bilan spektr orasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Matritsaning sonli tasviri uchun umumiy teoremlar isbotlangan hamda ayrim maxsus holatlar uchun lemma va misollar orqali aniq ifodalar keltirilgan. Natijalar orqali sonli matritsalar spektrining joylashuv oralig'i va ularning sonli tasviri orasidagi uzviylik tahlil qilingan.

Keywords: sonli tasvir, xos qiymat, spektr, chiziqli operator, o'z-o'ziga qo'shma matrisa, Gilbert fazosi, rezolventa.

ЧИСЛОВОЕ ИЗОБРАЖЕНИЕ МАТРИЦЫ РАЗМЕРА 3×3

Аннотация. В данной статье исследуется числовое изображение самосопряжённой числовой матрицы размера 3×3 , её собственные значения и взаимосвязь между спектром и числовым образом. Приведены и доказаны основные теоремы и леммы, а также рассмотрены конкретные примеры для специальных случаев. Полученные результаты позволяют определить взаимосвязь между спектром матрицы и интервалом её числового образа.

Ключевые слова: числовое изображение, собственные значения, спектр, линейный оператор, самосопряжённая матрица, гильбертово пространство, резольвента.

H Gilbert fazosi va $A: H \rightarrow H$ aniqlanish sohasi $D(A) \subset H$ bo'lgan chiziqli operator bo'lsin.

Ushbu

$$W(A) := \{(Ax, x) : x \in D(A), \|x\| = 1\}$$

to'plamga A operatorning sonli tasviri deyiladi. Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, $W(A)$ to'plam kompleks sonlar tekisligining qismi bo'ladi va $W(A)$ to'plamning geometrik xossalari A operator haqida bir qancha ma'lumotlarni tavsiflaydi.

Gilbert fazosidagi chiziqli operatorning sonli tasvirni o'rganish bunday operatorlar spektrining joylashuv o'rnini o'rganishdagi muhim usullardan biri hisoblanadi.

Matrisaning sonli tasviri uning barcha xos qiymatlarini o'z ichiga oladi.

Faraz qilaylik, C kompleks sonlar to'plami bo'lsin. C^3 fazoda ushbu

$$M = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & 0 \\ \bar{a}_{12} & a_{22} & a_{23} \\ 0 & \bar{a}_{23} & a_{33} \end{pmatrix}$$

ko'rinishidagi sonli matrisani qaraymiz, bu yerda a_{ii} , $i = 1, 2, 3$ lar ixtiyoriy haqiqiy sonlar, a_{ij} , $i < j$, $i, j = 1, 2, 3$ lar esa ixtiyoriy kompleks sonlar.

M matrisaning elementlariga qo'yilgan bunday shartlarda bu matrisa C^3 dagi chiziqli chegaralangan va o'z-o'ziga qo'shma bo'lgan operatorni ifodalaydi. Shu sababli uning barcha xos qiymatlari haqiqiydir.

1-lemma. M matrisaning sonli tasviri uchun ushbu

$$W(M) = [\min\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}, \max\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}]$$

tenglik o'rinlidir, bu yerda $\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3$ sonlari M matrisaning xos qiymatlaridir.

Isbot. Faraz qilaylik, M matrisa $\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3$ xos qiymatlarga ega bo'lsin. M matrisaning $\min\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}$ xos qiymatiga mos keluvchi birlik xos vektorlarni X bilan, $\max\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}$ xos qiymatiga mos keluvchi birlik xos vektorlarni Y bilan belgilaymiz, u holda

$$(MX, X) = \min\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}, \quad (MY, Y) = \max\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}$$

$$\|x\| = 1, \quad \|y\| = 1 \text{ munosabatlar o'rinlidir.}$$

Ko'rinib turibdiki, (Mz, z) kvadratik formaning $\|z\| = 1$ birlik sfera bo'yicha eng kichik qiymati X da, eng katta qiymati esa Y erishiladi. Demak,

$$W(M) = [\min\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}, \max\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}]$$

1-lemma isbot bo'ldi.

2-lemma. Agar $a_{12} = a_{23} = 0$ bo'lsa, u holda

$$W(M) = [\min\{a_{11}, a_{22}, a_{33}\}, \max\{a_{11}, a_{22}, a_{33}\}]$$

tenglik o'rinlidir.

Isbot. Faraz qilaylik, $a_{12} = a_{23} = 0$ bo'lsin, u holda

$$M = \begin{pmatrix} a_{11} & 0 & 0 \\ 0 & a_{22} & 0 \\ 0 & 0 & a_{33} \end{pmatrix}.$$

M matrisaning xos qiymatlari

$$(a_{11} - \lambda)(a_{22} - \lambda)(a_{33} - \lambda) = 0$$

xarakteristik tenglamaning nollari bo'ladi. Bundan esa M matrisaning xos qiymatlari $\lambda_1 = a_{11}, \lambda_2 = a_{22}, \lambda_3 = a_{33}$ ekanligi kelib chiqadi. 1-lemmaga ko'ra,

$$W(M) = [\min\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}, \max\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}]$$

3-lemma. Agar $a_{12} = 0$ bo'lsa, u holda

$$W(M) = [\min\{a_{11}, \lambda_-\}, \max\{a_{11}, \lambda_+\}]$$

tenglik o'rinlidir, bu yerda

$$\lambda_{\pm} = \frac{a_{22} + a_{33} \pm \sqrt{(a_{22} - a_{33})^2 + 4|a_{23}|^2}}{2}$$

Isbot. Faraz qilaylik, $a_{12} = 0$ bo'lsin, u holda

$$M = \begin{pmatrix} a_{11} & 0 & 0 \\ 0 & a_{22} & a_{23} \\ 0 & \bar{a}_{23} & a_{33} \end{pmatrix}$$

M matrisaning xarakteristik tenglamasi esa

$$(a_{11} - \lambda)(a_{22} - \lambda)(a_{33} - \lambda) - |a_{23}|^2(a_{11} - \lambda) = 0 \quad (1)$$

bo'ladi.

$$(a_{11} - \lambda)((a_{22} - \lambda)(a_{33} - \lambda) - |a_{23}|^2) = 0$$

Bizga ma'lumki, xarakteristik tenglamaning yechimlari M matrisaning xos qiymatlaridir. (1)-tenglamani yechish $a_{11} - \lambda = 0$ va $\lambda^2 - (a_{22} + a_{33})\lambda - |a_{23}|^2 = 0$ tenglamani yechishga keladi.

Bundan esa,

$$\lambda_1 = a_{11}, \quad \lambda_{2,3} = \frac{a_{22} + a_{33} \pm \sqrt{(a_{22} - a_{33})^2 + 4|a_{23}|^2}}{2}.$$

Quyidagicha

$$\lambda_{\pm} = \frac{a_{22} + a_{33} \pm \sqrt{(a_{22} - a_{33})^2 + 4|a_{23}|^2}}{2}$$

belgilash kiritaylik. 1-lemmaga ko'ra,

$$W(M) = [\min\{a_{11}, \lambda_-\}, \max\{a_{11}, \lambda_+\}]$$

4-lemma. Agar $a_{23} = 0$ bo'lsa, u holda

$$W(M) = [\min\{a_{33}, \mu_-\}, \max\{a_{33}, \mu_+\}]$$

tenglik o'rinlidir, bu yerda

$$\mu_{\pm} = \frac{a_{11} + a_{22} \pm \sqrt{(a_{11} - a_{22})^2 + 4|a_{12}|^2}}{2}.$$

1-Misol.

$$M = \begin{pmatrix} 1 & i & 0 \\ -i & 1 & 1+i \\ 0 & 1-i & 1 \end{pmatrix}$$

matrisaning sonli tasvirini toping.

Bu matrisa uchun

$$a_{11} = 1, \quad a_{22} = 1, \quad a_{33} = 1, \quad a_{12} = i, \quad a_{23} = 1+i, \quad |a_{12}|^2 = 1, \quad |a_{23}|^2 = 2$$

p_0, q_0 va φ_0 qiymatlarni topish formulalariga asosan

$$p_0 = -\frac{1}{6}\{(a_{11} - a_{22})^2 + (a_{11} - a_{33})^2 + (a_{22} - a_{33})^2\} - |a_{23}|^2 - |a_{12}|^2 =$$

$$-\frac{1}{6}\{(1-1)^2 + (1-1)^2 + (1-1)^2\} - 1 - 2 = -3$$

$$q_0 = a_{33}|a_{12}|^2 + a_{11}|a_{23}|^2 - a_{11}a_{22}a_{33} - \frac{2}{27}(a_{11} + a_{22} + a_{33})^3 +$$

$$+ \frac{1}{3}(a_{11}a_{22} + a_{11}a_{33} + a_{22}a_{33} - |a_{23}|^2 - |a_{12}|^2)(a_{11} + a_{22} + a_{33}) =$$

$$= \frac{1}{3}(1 \cdot 1 + 1 \cdot 1 + 1 \cdot 1 - 1 - 2)(1 + 1 + 1) + 1 \cdot 1 + 1 \cdot 2 - 1 \cdot 1 \cdot 1 -$$

$$-\frac{2}{27} \cdot 27 = -2 + 2 = 0$$

$$\varphi_0 = \arccos\left(-\frac{3q_0}{2p_0}\sqrt{-\frac{3}{p_0}}\right) = \arccos\left(-\frac{3 \cdot 0}{2 \cdot (-3)}\sqrt{-\frac{3}{(-3)}}\right) = \arccos 0 = \frac{\pi}{2}$$

ga teng.

U holda

$$\gamma_k = \frac{1}{3}(a_{11} + a_{22} + a_{33}) + 2\sqrt{-\frac{p_0}{3}}\cos\frac{\varphi_0 + 2(k-1)\pi}{3} =$$

$$= 1 + 2\cos\frac{\frac{\pi}{2} + 2(k-1)\pi}{3}, \text{ bu yerdak } = 1, 2$$

$$k = 1 \text{ da } \gamma_1 = 1 + 2\cos\frac{\frac{\pi}{2} + 0}{3} = 1 + 2\cos\frac{\pi}{6} = 1 + \sqrt{3}$$

$$k = 2 \text{ da } \gamma_2 = 1 + 2\cos\frac{\frac{\pi}{2} + 2\pi}{3} = 1 + 2\cos\frac{5\pi}{6} = 1 - \sqrt{3}$$

1-teoremaga ko'ra matrisaning sonli tasviri $W(M) = [1 - \sqrt{3}, 1 + \sqrt{3}]$ bo'ladi.

2-Misol.

$$M = \begin{pmatrix} 1 & \sqrt{2} - \sqrt{2}i & 0 \\ \sqrt{2} + \sqrt{2}i & 2 & -i \\ 0 & i & 0 \end{pmatrix}$$

matrisani sonli tasvirini topaylik.

Bizga ma'lumki,

$$a_{11} = 1, \quad a_{22} = 2, \quad a_{33} = 0, \quad a_{12} = \sqrt{2} - \sqrt{2}i, \quad a_{23} = -i, \quad |a_{12}|^2 = 4,$$

$$|a_{23}|^2 = 1$$

$$p_0 = -\frac{1}{6}\{(1-2)^2 + (1-0)^2 + (2-0)^2\} - 4 - 1 = -6$$

$$q_0 = \frac{1}{3}(1 \cdot 2 + 1 \cdot 0 + 2 \cdot 0 - 4 - 1)(1 + 2 + 0) - \frac{2}{27} \cdot 27 - 1 \cdot 2 \cdot 0 +$$

$$+ 4 \cdot 0 + 1 \cdot 1 = -3 - 2 + 1 = -4$$

$$\varphi_0 = \arccos\left(-\frac{3 \cdot (-4)}{2 \cdot (-6)} \sqrt{-\frac{3}{(-6)}}\right) = \arccos\left(-\frac{\sqrt{2}}{2}\right) = \frac{3\pi}{4}$$

U holda,

$$\gamma_k = 1 + 2\sqrt{2}\cos\frac{\frac{3\pi}{4} + 2(k-1)\pi}{3}, \quad k = 1, 2$$

$$k = 1 \text{ da } \gamma_1 = 1 + 2\sqrt{2}\cos\frac{\pi}{4} = 1 + 2 = 3 \text{ ga}$$

$$k = 2 \text{ da } \gamma_2 = 1 + 2\sqrt{2}\cos\frac{11\pi}{12} = 1 - \sqrt{2\sqrt{3} + 4} \text{ ga teng.}$$

1-teoremaga ko'ra, matrisaning sonli tasviri uchun ushbu

$$W(M) = \left[1 - \sqrt{2\sqrt{3} + 4}; 3\right]$$

tenglik o'rinalidir.

3-Misol.

$$M = \begin{pmatrix} 2 & i & 0 \\ -i & 1 & -i \\ 0 & i & 3 \end{pmatrix}$$

matrisaning sonli tasvirini toping.

Bizga ma'lumki,

$$a_{11} = 2, a_{22} = 1, a_{33} = 3, a_{12} = i, a_{23} = -i, |a_{12}|^2 = 1, |a_{23}|^2 = 1$$

Sodda hisoblashlarni bajarib, p_0 , q_0 va φ_0 ning qiymatini topamiz:

$$p_0 = -\frac{1}{6}\{(2-1)^2 + (2-3)^2 + (1-3)^2\} - 1 - 1 = -3$$

$$q_0 = \frac{1}{3}(1 \cdot 2 + 2 \cdot 3 + 1 \cdot 3 - 1 - 1)(2 + 1 + 3) - \frac{2}{27} \cdot 27 - 1 \cdot 2 \cdot 3 + 1 \cdot 3 + 1 \cdot 2 = 5 - 22 + 18 = 1$$

$$\varphi_0 = \arccos\left(-\frac{3 \cdot 1}{2 \cdot (-3)} \sqrt{-\frac{3}{(-3)}}\right) = \arccos\frac{1}{2} = \frac{\pi}{3}$$

U holda,

$$\gamma_k = 2 + 2\cos\frac{\frac{\pi}{3} + 2(k-1)\pi}{3}, \quad k = 1, 2$$

$$k = 1 \text{ da } \gamma_1 = 2 + 2\cos\frac{\pi}{9}$$

$$k = 2 \text{ da } \gamma_2 = 2 + 2\cos\frac{7\pi}{9}$$

1-teoremaga ko'ra, matrisaning sonli tasviri uchun ushbu

$$W(M) = \left[2 + 2\cos\frac{\pi}{9}, 2 + 2\cos\frac{7\pi}{9}\right]$$

tenglik o'rinalidir.

Ushbu maqolada 3×3 o'lchamli o'z-o'ziga qo'shma sonli matritsaning sonli tasviri va uning xos qiymatlari orasidagi bog'liqlik tahlil qilindi. Matritsaning sonli tasviri orqali xos qiymatlar to'plamining joylashuv oralig'i aniqlanib, bu holat uchun umumiy teorema va lemmalar isbotlandi. Keltirilgan misollar asosida sonli tasvirning spektr bilan bevosita bog'liqligi amaliy tarzda ko'rsatildi. Olingan natijalar chiziqli operatorlar va matritsalar spektral nazariyasini yanada chuqurroq o'rganishda hamda funksional analiz masalalarida qo'llash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Т.А.Саримсоков. Функционал анализ курси. Тошкент, ўқитувчи 1980, 9-73-bet

2. J.I.Abdullayev, R.N.G'anixo'jayev, M.H.Shermatov, O.I.Egamberdiyev. *Funksional analiz*. Toshkent-Samarqand 2009, 110-367-bet.
3. R. A. Horn, Ch. R. Johnson. *Matrix analysis*. Cambridge University Press. London, New York, New Rochelle, 1990.
4. R. Bhatia. *Matrix analysis*. Springer-Verlag, New York, 1996.
5. C. Tretter. *Spectral theory of block operator matrices and applications*. – London:Imperial College Press, 2008.
6. T. H. Rasulov, C. Tretter. *Spectral inclusion for diagonally dominant unbounded block operator matrices*. Preprint 2011, Bern, pp. 1-36.
7. М. Руд, Б. Саймон. *Методы современной математической физики. Т. 4. Анализ операторов*. М.: Мир. 1982.
8. Т. Като. *Теория возмущения линейных операторов*. Изд-во «Мир», Москва, 1972.
9. T. H. Rasulov, R. Q. G'aybullayev. 3x3 sonli matrisa xos qiymatlarining monotonligi haqida. *Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotnomasi*, 2012 yil, № 4 (48), 27-31 betlar.
10. T. H. Rasulov, R. Q. G'aybullayev. 3x3 sonli matrisa xos qiymatlarining ba'zi xossalari. "Yosh matematiklarning yangi teoremlari-2013", Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 15--16 aprel 2013, Namangan, 151-154 betlar.
11. Т. Х. Расулов, Р. К. Гайбуллаев. О монотонности собственных значений числовой матрицы 3x3. Тезисы 44-й Всероссийской молодежной школа-конференции "Современные проблемы математики", Екатеринбург, 2013, С. 283-284.
12. Uzoqboyev, A., Abdullayev, S., & Abriyev, N. (2023). Robototexnik mexanizmlarning maxsusliklarini izlashda matritsaviy usulning qo'llanishi. *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук*, 3(1), 92-100.
13. Barotov, A. S., & Abdullayev, S. A. (2022, May). Robototexnik mexanizmlarning maxsusliklarini izlashda matritsaviy usulning qo'llanishi. In *International scientific and practical conference on "Modern problems of applied mathematics and information technologies"*.
14. Anvar o'g'li, A. S. (2024). Ko'phad rezultatining tenglamalar sistemasini yechishga tadbirlari. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, 4(4).
15. Saxayev M. "Elementar matematika masalalari to'plami" I.II qismlar."O'qituvchi" Toshkent 1970.1972. 220-236 bet.
16. Anvar o'g'li, A. S. (2024). Kompleks o'zgaruvchili funktsiyalarning integralini. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, 4(4).

BLOK OPERATORLI MATRISALARNING SONLI OBRAZLARI

Abdullayev Sarvar Anvar o‘g‘li,

Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada blok operatorli matrisalarning sonli, kvadratik va kubik sonli obrazlari tushunchalari hamda ularning asosiy xossalari tahlil qilinadi. Chiziqli chegaralangan operatorlarning blok shaklidagi tasviri orqali ularning spektral xususiyatlari, sonli obrazlar to‘plamining chegaralanganligi va yopiq bo‘lishi, shuningdek, operatorning o‘z-o‘ziga qo‘shmalik holatlarida yuzaga keluvchi aloqalar o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari funksional analiz va operatorlar nazariyasidagi ayrim muammolarni yechishda qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: blok operatorli matrisa, chiziqli operator, sonli obraz, kvadratik sonli obraz, kubik sonli obraz, Gilbert fazosi, xos qiymat, spektr.

NUMERICAL RANGES OF BLOCK OPERATOR MATRICES

Abstract. This article examines the numerical, quadratic, and cubic ranges of block operator matrices and their fundamental properties. Using the block representation of bounded linear operators, the study explores spectral characteristics, the boundedness and closedness of numerical ranges, and their interrelations in the case of self-adjoint operators. The obtained results can be applied to solving certain problems in functional analysis and operator theory.

Keywords: block operator matrix, linear operator, numerical range, quadratic numerical range, cubic numerical range, Hilbert space, eigenvalue, spectrum.

ЧИСЛОВЫЕ ОБРАЗЫ БЛОЧНО-ОПЕРАТОРНЫХ МАТРИЦ

Аннотация. В данной статье рассматриваются числовые, квадратные и кубические образы блочно-операторных матриц и их основные свойства. С помощью блочного представления линейных ограниченных операторов исследуются спектральные характеристики, ограниченность и замкнутость множеств числовых образов, а также их взаимосвязь в случае самосопряжённых операторов. Полученные результаты могут быть использованы при решении задач функционального анализа и теории операторов.

Ключевые слова: блочно-операторная матрица, линейный оператор, числовой образ, квадратный числовой образ, кубический числовой образ, пространство Гильберта, собственные значения, спектр.

Faraz qilaylik, H_1 va H_2 lar Gilbert fazolari bo‘lib, H orqali ularning to‘g‘ri yig‘indisini belgilaymiz, $L(H)$ esa H ni H ga o‘tkazuvchi chiziqli chegaralangan (uzluksiz) operatorlar fazosi bo‘lsin. Bizga ma‘lumki, har qanday $A \in L(H)$ operator

$$A = \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} \\ A_{21} & A_{22} \end{pmatrix} \quad (1)$$

blok operatorli matrisa ko‘rinishda tasvirlanadi, bu yerda

$A_{ij}: H_j \rightarrow H_i$, $i, j = 1, 2$ elementlar chiziqli chegaralangan operatorlar. Agar A operator uchun $A_{11} = A_{11}^*$, $A_{11} = A_{22}^*$, $A_{21} = A_{21}^*$, tengliklar bajarilsa, u holda A o‘z-o‘ziga qo‘shma operator bo‘ladi, ya‘ni $A^* = A$. $(\cdot, \cdot)_i$ va $\|\cdot\|_i$, $i = 1, 2$ lar orqali H_i fazodagi mos ravishda skalyar ko‘paytma va normani belgilaymiz.

$f = (f_1, f_2) \in H$, $\|f_i\|_i = 1$, $i = 1, 2$ elementlar uchun

$$A_f = \begin{pmatrix} (A_{11}f_1, f_1)_1 & (A_{12}f_2, f_1)_1 \\ (A_{21}f_1, f_2)_2 & (A_{22}f_2, f_2)_2 \end{pmatrix}$$

A_f matrisaning barcha xos qiymatlari to‘plamiga $A \in L(H)$ blok operatorli matrisaning (1)-ko‘rinishiga mos keluvchi kvadratik sonli obrazi deyiladi va $W^2(A)$ kabi belgilanadi, ya‘ni

$$W^2(A) = \bigcup_{\substack{\|f_i\| \\ i=1,2}} \sigma_p(A_f)$$

bu yerda, $\sigma_p(A_f)$ orqali A_f ning nuqtali spektri belgilangan. $A_f - 2 \times 2$ sonli matrisa bo'lganligi uchun $\sigma_p(A_f)$ to'plam A_f matrisaning xos qiymatlaridan iborat bo'ladi.

H Gilbert fazosining turli yoyilmalariga turli kvadratik sonli obrazlar to'g'ri keladi.

Masalan, ushbu

$$M = \begin{pmatrix} -2 & -1 & 1 & 0 \\ -1 & -2 & 0 & 1 \\ -2 & -1 & 0 & -3i \\ -1 & -2 & 3i & 0 \end{pmatrix}$$

sonli matrisaning $C^2 \oplus C^2$ va $C^3 \oplus C^1$ yoyilmalariga mos kvadratik sonli obrazlar turlicha bo'ladi.

Ba'zi hollarda kvadratik sonli obrazning quyidagi ekvivalent ta'rifidan foydalanish qulaydir, bunda f_1 va f_2 lar nolmas bo'lib, normasi 1 ga teng bo'lishi shart emas.

$f_i \in H_i \setminus \{0\}$, $i = 1, 2$ element uchun

$$\hat{A}_f = \left(\frac{(A_{ij}f_j, f_i)_i}{\|f_i\|_i \cdot \|f_j\|_j} \right)_{i,j=2}^2$$

matrisani qaraymiz va

$$\Delta(f_1, f_2; \lambda) = \det \begin{pmatrix} (A_{11}f_1, f_1)_1 - \lambda(f_1, f_1)_1 & (A_{12}f_2, f_1)_1 \\ (A_{21}f_1, f_2)_2 & (A_{22}f_2, f_2)_2 - \lambda(f_2, f_2)_2 \end{pmatrix}$$

bo'lsin.

U holda

$$W^2(A) = \bigcup_{f_i \in H_i \setminus \{0\}, i=1,2} \sigma_p(\hat{A}_f) = \{\lambda \in C: \exists f_i \in H_i \setminus \{0\}, \quad i = 1, 2,\}$$

munosabat o'rinli.

Chiziqli operatorning kvadratik sonli obrazi hamisha uning sonli obrazida saqlanadi:

$$W^2(A) \subset W(A).$$

Agar A operator yuqori yoki quyi uchburchak ko'rinishiga ega bo'lsa, ya'ni

$$A = \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} \\ 0 & A_{22} \end{pmatrix} \text{ yoki } A = \begin{pmatrix} A_{11} & 0 \\ A_{21} & A_{22} \end{pmatrix} \text{ bo'lsa, u holda}$$

$W^2(A) = W(A_{11}) \cup W(A_{22})$ tenglik o'rinlidir. Chiziqli chegaralangan blok operatorli matrisaning kvadratik sonli obrazi C kompleks sonlar to'plamining chegaralangan qism to'plami bo'ladi:

$$W^2(A) \subset \{\lambda \in C: |\lambda| \leq \|A\|\}$$

Agar $\dim H < \infty$ bo'lsa, u holda $W^2(A)$ yopiq to'plam bo'ladi. Sonli obrazdan farqli ravishda kvadratik sonli obraz umuman olganda qavariq to'plam bo'lmasligi ham mumkin, bu to'plam ko'pi bilan ikkita komponentdan iborat bo'lishi mumkin.

Agar $a, b, c, d \in C$ sonlar orqali aniqlangan

$$A = \begin{pmatrix} a & b \\ c & d \end{pmatrix}$$

sonli matrisada $a, d \in R$ va $c = \bar{b}$ bo'lsa, u holda uning xos qiymatlari

$$\lambda_1 = \max\{a, d\} + |b| \operatorname{tg} \left(\frac{1}{2} \arctg \frac{2|b|}{|a-b|} \right);$$

$$\lambda_2 = \min\{a, d\} - |b| \operatorname{tg} \left(\frac{1}{2} \arctg \frac{2|b|}{|a-b|} \right).$$

ko'rinishida tasvirlanadi.

$f_i \in H_i \setminus \{0\}$ element uchun

$$dis_A(f_1, f_2) = \left(\frac{(A_{11}f_1, f_1)_1}{\|f_1\|_1^2} - \frac{(A_{22}f_2, f_2)_2}{\|f_2\|_2^2} \right)^2 + 4 \frac{(A_{11}f_1, f_1)_1 \cdot (A_{22}f_2, f_2)_2}{\|f_1\|_1^2 \cdot \|f_2\|_2^2}$$

belgilashni kiritamiz. Agar $dis_A(f_1, f_2) \geq 0$ bo'lsa, u holda

$$\lambda_{\pm} \begin{pmatrix} f_1 \\ f_2 \end{pmatrix} = \frac{1}{2} \left(\frac{(A_{11}f_1, f_1)_1}{\|f_1\|_1^2} + \frac{(A_{22}f_2, f_2)_2}{\|f_2\|_2^2} \right) \pm \frac{1}{2} \sqrt{\left(\frac{(A_{11}f_1, f_1)_1}{\|f_1\|_1^2} - \frac{(A_{22}f_2, f_2)_2}{\|f_2\|_2^2} \right)^2 + 4 \frac{(A_{11}f_1, f_1)_1 \cdot (A_{22}f_2, f_2)_2}{\|f_1\|_1^2 \cdot \|f_2\|_2^2}}$$

belgilashni kiritamiz. Agar o'z-o'ziga qo'shma bo'lsa, u holda $W^2(A) \subset R$ bo'ladi va

$$W^2(A) = \Lambda_-(A) \cup \Lambda_+(A)$$

tenglik o'rinaldir, bu yerda

$$\Lambda_{\pm}(A) = \left\{ \lambda_{\pm} \begin{pmatrix} f_1 \\ f_2 \end{pmatrix} : f_i \in H_i \setminus \{0\}, i = 1, 2 \right\}$$

Shunday qilib, chiziqli chegaralangan blok operatorli matrisalarning kvadratik sonli obrazini o'rganishda sonli matrisaning xos qiymatlari muhim o'rin egallar ekan.

Endi chiziqli operatorning kubik sonli obrazini qaraymiz. Agar operatorning spektri uchta kesishmaydigan kesmalar birlashmasidan iborat bo'lsa, u holda bu operatorning sonli obrazi ham, kvadratik sonli obrazi ham spektri yetarlicha o'rganish imkonini bera olmaydi. Quyida biz kubik sonli diopozon va uning ba'zi xossalarga to'xtalamiz.

H_1, H_2 va H_3 lar Gilbert fazolari, H esa bu fazolarning to'g'ri yig'indisi, ya'ni

$$H = H_1 \oplus H_2 \oplus H_3$$

bo'lsin. U holda istalgan $A \in L(H)$ operator

$$A = \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} & A_{13} \\ A_{21} & A_{22} & A_{23} \\ A_{31} & A_{32} & A_{33} \end{pmatrix} \quad (2)$$

ko'rinishidagi 3×3 blok operatorli matrisa kabi tasvirlanadi, bunda $A_{ij}: H_j \rightarrow H_i$,

$i, j = 1, 2, 3$ lar chiziqli chegaralangan operatorlar.

Sorqali H dagi birlik sferani belgilaymiz, ya'ni

$$S = \{f \in (f_1, f_2, f_3) \in H : \|f_i\| = 1, \quad i = 1, 2, 3\}$$

$f \in S$ element uchun ushbu

$$A = \begin{pmatrix} (A_{11}f_1, f_1) & (A_{12}f_2, f_1) & (A_{13}f_3, f_1) \\ (A_{21}f_1, f_2) & (A_{22}f_2, f_2) & (A_{23}f_3, f_2) \\ (A_{31}f_1, f_3) & (A_{32}f_2, f_3) & (A_{33}f_3, f_3) \end{pmatrix}$$

3×3 matrisani qaraymiz.

U holda

$$W^3(A_f) = \bigcup_{f \in S} \sigma_p(A_f)$$

to'plamga $A_{3 \times 3}$ blok operatorli matrisaning (2) ko'rinishiga mos kubik sonli obrazi deyiladi.

Ma'lumki, har bir uchun

$$\sigma_p(A_f) = \{\lambda \in \mathbb{C} : \det(A_f - \lambda) = 0\}.$$

tenglik o'rinaldir. Shu sababli, $W^3(A)$ to'plam uchun quyidagi ekvivalent formula o'rinni:

$$W^3(A) = \{\lambda \in \mathbb{C} : \exists f \in S, \quad \det(A_f - \lambda) = 0\}.$$

Chiziqli operatorning kubik sonli obrazi hamisha uning sonli obrazida yotadi, ya'ni

$$W^3(A) \subset W(A).$$

Agar A operator yuqori yoki quyi uchburchak ko'rinishda bo'lsa, ya'ni

$$A = \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} & A_{13} \\ 0 & A_{22} & A_{23} \\ 0 & 0 & A_{33} \end{pmatrix} \text{ yoki } A = \begin{pmatrix} A_{11} & 0 & 0 \\ A_{21} & A_{22} & 0 \\ A_{31} & A_{32} & A_{33} \end{pmatrix}$$

ko'rinishga ega bo'lsa, u holda $W^3(A)$ uchun

$$W^3(A) = W(A_{11}) \cup W(A_{22}) \cup W(A_{33})$$

tenglik o'rinlidir.

Chiziqli chegaralangan blok operatorli matrisaning kubik sonli obrazi C kompleks sonlar to'plamining chegaralangan qism to'plamidir, ya'ni

$$W^3(A) \subset \{\lambda \in C : |\lambda| \leq \|A\|\}.$$

Agar $\dim H < \infty$ bo'lsa, u holda $W^3(A)$ yopiq to'plam bo'ladi. Kubik sonli obraz ko'pi bilan uchta komponentlardan iborat bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, 3×3 blok operatorli matrisa kubik sonli obrazini o'rganishda 3×3 sonli matrisa xos qiyatlari muhim o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR:

1. T.A.Саримсоков. Функционал анализ курси. Тошкент, ўқитувчи 1980, 9-73-bet
2. J.I.Abdullayev, R.N.G'anixo'jayev, M.H.Shermatov, O.I.Egamberdiyev. Funksional analiz. Toshkent-Samarqand 2009, 110-367-bet.
3. R. A. Horn, Ch. R. Johnson. Matrix analysis. Cambridge University Press. London, New York, New Rochelle, 1990.
4. R. Bhatia. Matrix analysis. Springer-Verlag, New York, 1996.
5. C. Tretter. Spectral theory of block operator matrices and applications. – London: Imperial College Press, 2008.
6. T. H. Rasulov, C. Tretter. Spectral inclusion for diagonally dominant unbounded block operator matrices. Preprint 2011, Bern, pp. 1-36.
7. М. Руд, Б. Саймон. Методы современной математической физики. Т. 4. Анализ операторов. М.: Мир. 1982.
8. Т. Като. Теория возмущения линейных операторов. Изд-во «Мир», Москва, 1972.
9. T. H. Rasulov, R. Q. G'aybullayev. 3×3 sonli matrisa xos qiymatlarining monotonligi haqida. Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2012 yil, № 4 (48), 27-31 betlar.
10. T. H. Rasulov, R. Q. G'aybullayev. 3×3 sonli matrisa xos qiymatlarining ba'zi xossalari. "Yosh matematiklarning yangi teoremlari-2013", Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 15--16 aprel 2013, Namangan, 151-154 betlar.
11. Т. Х. Расулов, Р. К. Гайбуллаев. О монотонности собственных значений числовой матрицы 3×3 . Тезисы 44-й Всероссийской молодежной школа-конференции "Современные проблемы математики", Екатеринбург, 2013, С. 283-284.
12. Uzoqboyev, A., Abdullayev, S., & Abriyev, N. (2023). Robototexnik mexanizmlarning maxsusliklarini izlashda matritsaviy usulning qo'llanishi. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(1), 92-100.
13. Barotov, A. S., & Abdullayev, S. A. (2022, May). Robototexnik mexanizmlarning maxsusliklarini izlashda matritsaviy usulning qo'llanishi. In International scientific and practical conference on "Modern problems of applied mathematics and information technologies.
14. Anvar o'g'li, A. S. (2024). Ko'phad rezultatining tenglamalar sistemasini yechishga tadbiqlari. Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 4(4).
15. Saxayev M. "Elementar matematika masalalari to'plami" I.II qismlar. "O'qituvchi" Toshkent 1970.1972. 220-236 bet.
16. Anvar o'g'li, A. S. (2024). Kompleks o'zgaruvchili funksiyalarning integralini. Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 4(4).

TARMOQLANUVCHI TASODIFIY JARAYONNING TA'RIFI VA TALQINI

Muxtorova Shohida Negmat qizi,

Qarshi davlat texnika universiteti o'qituvchisi
muxtorovashohida1998@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarning nazariy asoslari, ularning matematik ta'rifi hamda ehtimollik nuqtayi nazaridan talqini yoritilgan. Tarmoqlanuvchi jarayon — bu vaqt o'tishi bilan elementlarning ko'payishi yoki yo'qolishi ehtimoli orqali rivojlanadigan tasodifiy tizim sifatida qaraladi. Maqolada bunday jarayonlarning Markov xossasi, stasionarlik, o'sish tezligi va yo'qolish ehtimoli kabi asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Galton–Watson modeli misolida tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonning amaliy talqini va uning populyatsiya dinamikasini modellashirishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari tarmoqlanuvchi jarayonlarning biologiya, demografiya, epidemiologiya va axborot tizimlaridagi qo'llanilishini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayon, ehtimollik modeli, Markov xossasi, Galton–Watson jarayoni, stasionarlik, populyatsiya dinamikasi.

DEFINITION AND INTERPRETATION OF THE BRANCHING RANDOM PROCESS

Abstract. This article examines the theoretical foundations of branching stochastic processes, providing their mathematical definition and probabilistic interpretation. A branching process is considered as a stochastic system that evolves over time through the probabilistic reproduction or extinction of its elements. The paper analyzes key properties such as the Markov property, stationarity, growth rate, and extinction probability. The Galton–Watson model is presented as an example to illustrate the practical interpretation of branching stochastic processes and their role in modeling population dynamics. The results of the study contribute to the theoretical justification of branching process applications in biology, demography, epidemiology, and information systems.

Keywords: branching stochastic process, probabilistic model, Markov property, Galton–Watson process, stationarity, population dynamics.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЕТВЯЩЕГОСЯ СЛУЧАЙНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы ветвящихся случайных процессов, их математическое определение и вероятностная интерпретация. Ветвящийся процесс рассматривается как стохастическая система, которая развивается во времени за счёт вероятностного размножения или исчезновения элементов. Проанализированы основные свойства таких процессов, включая марковское свойство, стационарность, скорость роста и вероятность вырождения. В качестве примера приведена модель Гальтона–Уотсона, демонстрирующая практическое применение ветвящихся случайных процессов при моделировании динамики популяций. Результаты исследования способствуют теоретическому обоснованию применения ветвящихся процессов в биологии, демографии, эпидемиологии и информационных системах.

Ключевые слова: ветвящийся случайный процесс, вероятностная модель, марковское свойство, процесс Гальтона–Уотсона, стационарность, динамика популяции.

Bu maqolada biz bir turdagi zarrachalar bilan berilgan eng sodda tur Markov tarmoqlanuvchi jarayonlarini o'rganamiz. Vaqtga nisbatan bir jinsli Markov jarayonlarini $\square = \{1, 2, \dots\}$ holatlar fazosida qaraymiz. Markov jarayonining o'tish ehtimolligi $P_{ij}(t)$, $t \in T$ quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

$$P_{ij}(t) \geq 0 \quad (1)$$

barcha $i, j \in \square$ va $t \in T$ uchun (nomanfiylik sharti);

$$\sum_{j=0}^{\infty} P_{ij}(t) = 1 \quad (2)$$

ixtiyoriy $i, j \in \square$ va $t \in T$ da (normalanganlik sharti);

$$P_{ij}(t) = \sum_{k=0}^{\infty} P_{ik}(u) P_{kj}(t-u) \quad (3)$$

ixtiyoriy $i, j \in \square$ va $0 \leq u \leq t, u, t \in T$ (markovlik xossasi);

$$P_{ij}(0) = \delta_{ij} = \begin{cases} 1, & i = j \\ 0, & i \neq j \end{cases} \quad (\text{boshlang'ich shart})$$

(4).

Ta'rif 1.1.1. Agar $P_{ij}(t)$ o'tish ehtimolligi $P_{ij}(t)$ ning n -karrali taqsimot kompozitsiyasi

$$P_{ij}(t) = P_{1j}^{*i}(t) = \sum_{j_1 + j_2 + \dots + j_i = j} P_{1j_1}(t) P_{1j_2}(t) \dots P_{1j_i}(t) \quad (5)$$

(tarmoqlanish sharti)ga ega bo'lsa, Markov jarayoni $\square$ da tarmoqlanuvchi deyiladi, xususan, $i = 0$ da (1.1.5) shart $P_{0j}(t) = \delta_{0j}$ ni bildiradi [14].

T ning qism to'plamlari nomanfiy butun sonlar to'plami $\square_0 = \{0\} \cup \square$ yoki $t \in [0, \infty)$ bo'lishi mumkin. Birinchi holatda *diskret vaqtli*, ikkinchi holatda *uzluksiz vaqtli* tarmoqlanuvchi jarayonlar haqida gapiramiz.

$t \in [0, \infty)$ uzluksiz bo'lgan holatda odatda yana qo'shimcha

$$\lim_{t \uparrow 0} P_{ii}(t) = 1 \quad (6)$$

uzluksizlik sharti ishlatiladi. (6), (1) va (2) shartlardan birdaniga har bir i uchun barcha $j \neq i$ larda bir tekis

$$\lim_{t \downarrow 0} P_{ij}(t) = 0, \quad (7)$$

(3) shartdan esa barcha $P_{ii}(t)$ o'tish ehtimolliklarining $\forall t \geq 0$ da uzluksizligi kelib chiqadi.

(5) tarmoqlanish shartlari ko'rib chiqilayotgan tarmoqlanuvchi jarayonlar sinfini Markov jarayonlaridan ajratib turadi. Bunday tanlash ikki nuqtayi nazardan asoslanadi. Bir tomondan, tarmoqlanuvchi jarayonlar fizikada, kimyoda, biologiyada, texnikada, demografiyada va boshqalarda real hodisalarning ancha keng sinfini tavsiflaydi. Boshqa tomondan, juda qulay matematik apparat bo'lgan hosil qiluvchi funksiyalar tarmoqlanuvchi jarayonlarni chuqur o'rganish imkonini beradi. Tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasida ularning o'ziga xos muammoli bayonlari va ularni hal qilish usullari tabiiy ravishda ajralib turadi [3].

Kelgusida biz fizik va kimyoviy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlanuvchi jarayonlarining haqiqiy mazmunini aks ettiruvchi vizual terminologiyaga amal qilamiz. Bizga bir xil turdagi zarrachalar berilgan bo'lsin. Tizimning holati zarrachalar soni bilan aniqlanadi. t vaqtdagi zarrachalar sonini $X(t)$ bilan belgilaylik. Faraz qilaylik, t vaqtda bir zarracha, kelib chiqishi va boshqa zarrachalar mavjudligidan qat'iy

nazar, $P_{1n}(t)$ ehtimollik bilan n ta zarrachaga aylanadi va $\sum_{n=0}^{\infty} P_{1n}(t) = 1$. Bundan agar dastlabki vaqtda k ta

zarracha mavjud bo'lsa, keyin t vaqt o'tishi bilan ular $X^{(1)}(t) + X^{(2)}(t) + \dots + X^{(k)}(t)$ zarrachaga aylanadi,

bu yerda $X^{(i)}(t)$ - i - zarrachaning avlodlar soni, barcha $X^{(i)}(t), i = 1, 2, \dots, k$ lar bog'liqsiz va bir xil

$P_{1n}(t) = P\{X^{(i)}(t) = n\}$ taqsimotga ega. Shunday qilib, t vaqt ichida $P_{kn}(t)$ ning k zarrachadan n ta zarrachaga o'tish ehtimoli uchun $P_{1n}(t)$ ning k -karrali kompozitsiyasi, ya'ni

$$P_{kn}(t) = P_{1n}^{*k}(t) = \sum_{n_1 + n_2 + \dots + n_k = n} P_{1n_1}(t) P_{1n_2}(t) \dots P_{1n_k}(t)$$

o'rinni.

Bundan tashqari, biz zarrachalarning o'zgarishi oldingi davrdagi tarixiga bog'liq emas, deb faraz qilganimiz uchun, $X(t)$ jarayon Markov jarayonidir, ya'ni $P_{kn}(t)$ o'tish ehtimolligi (3) shartni qanoatlantiradi [13].

Tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayon — bu ehtimollik nazariyasida o'ziga xos o'rin egallagan, avlodlar bo'yicha takrorlanadigan stoxastik tizim bo'lib, uning asosiy strukturasini elementlarning mustaqil replikasiya mexanizmi tashkil etadi. Har bir element ma'lum ehtimollik taqsimotiga ega bo'lgan tasodifiy sonli avlod hosil qilishi bilan jarayonning keyingi holati aniqlanadi. Shuning uchun tarmoqlanuvchi jarayonlarning dinamikasi diskret vaqtli va tasodifiy ko'payish mexanizmiga ega bo'lgan Markov jarayoni sifatida qaraladi.

Tarmoqlanuvchi jarayonni tavsiflashda asosiy parametrlar quyidagilardan iborat:

1. Avlodlar taqsimoti

Jarayonning rivojlanishi $p_k = P(X = k)$ ehtimollik taqsimoti orqali belgilanadi. Bu taqsimot har bir element nechta avlod hosil qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Avlodlar taqsimoti jarayonning barqarorligi va uzoq muddatli xatti-harakatini aniqlovchi asosiy omildir.

2. Matematik kutilma:

Jarayonning o'sish yoki yo'qolish holati quyidagi kutilma bilan aniqlanadi:

$$m = \sum_{k=0}^{\infty} k p_k$$

Agar ($m < 1$) bo'lsa — jarayon degeneratsiyalanuvchi, ya'ni yo'q bo'lib ketadi.

Agar ($m = 1$) bo'lsa — kritik holat, jarayonning uzoq muddatli barqarorligi sezilarli darajada tasodifiylikka bog'liq.

Agar ($m > 1$) bo'lsa — jarayonning cheksiz o'sish ehtimoli mavjud bo'ladi.

3. Generatsiya funksiyasi

Tarmoqlanuvchi jarayonlarning matematik tahlilida quyidagi generatsiya funksiyasi muhim rol o'ynaydi:

$$G(s) = \sum_{k=0}^{\infty} p_k s^k$$

Bu funksiya jarayonning avlodlar soniga oid barcha ehtimollik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Jarayonning asimptotik tavsifi va yo'qolish ehtimoli aynan ushbu funksiyaning qat'iy matematik xususiyatlari orqali aniqlanadi.

4. Yo'qolish ehtimoli:

Jarayonning yo'qolish ehtimoli q generatsiya funksiyasining quyidagi tenglamani qanoatlantiruvchi eng kichik musbat ildizidir:

$$q = G(q).$$

Bu matematik mezon jarayonning uzoq muddatli barqarorligini baholashda asosiy nazariy vosita hisoblanadi.

5. Tarmoqlanuvchi jarayonlarning qo'llanilish sohalari:

Ushbu jarayonlar ko'plab amaliy sohalarda qo'llaniladi:

Biologiya — populyatsiya o'sishini modellashtirish

Genetika — nasl zanjiri va mutatsiya jarayonlarining rivojlanishi

Epidemiologiya — infeksiya tarqalishi zanjiri

Yadroviy fizika — neytronlarning ko'payish jarayoni

Axborot tizimlari — tarmoqlanuvchi ma'lumot oqimlarining modellarini yaratish

Har bir sohada jarayonning o'ziga xos interpretatsiyasi mavjud bo'lib, ular orqali murakkab tizimlarning tasodifiy rivojlanish qonuniyatlari aniqlanadi.

6. Tarmoqlanuvchi jarayonning talqini:

Tarmoqlanuvchi jarayon nafaqat matematik model, balki tizimlarning o'z-o'zidan rivojlanishiga oid universal konsepsiya sifatida qaraladi. U tizimdagi har bir elementning mustaqil qaror qabul qilishi yoki mustaqil ko'payish mexanizmi mavjud bo'lgan holatlarni aniqlashda qo'llanadi. Shuning uchun ushbu jarayon tasodifiy tizimlarning o'z-o'zidan tashkil bo'lishi va o'sish dinamikasini tushuntiruvchi fundamental nazariy model sanaladi.

Diskret vaqtli tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasi XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan angliyalik statistiklar Galton va Vatsonlar nomlari bilan bog'liq. Ular familiyalarni yo'qolib ketishi masalasini

yechishda o'zlarining matematik modelini taklif etishgan. Keyinchalik bu model umumlashmasi bilan bog'liq jarayonlar (diskret vaqtli) Galton-Vatson jarayonlari deb nom oldi. Galton-Vatson jarayonining uzluksiz vaqtda umumlashmasi esa tarmoqlanuvchi Markov jarayonlaridir. Demak, Galton-Vatson jarayoni tarmoqlanuvchi jarayonlarning eng sodda ko'rinishi ekan. Jarayonda ishtirok etayotgan alohida zarrachalar evolyusiyasi zarrachalar o'tmishi va soniga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshadi. Bunday bog'liqsizlik real jarayonlar uchun juda kuchli chegaralanishdek tuyulsada, ko'plab holatlar uchun bunday chegaralanish mutlaqo tabiiydir. Yuqoridagi kabi masalalarni o'rganishda eng yaqin model bo'lgani uchun ham tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasi keyingi vaqtda tez suratlarda bilan rivojlanmoqda. Tarmoqlanuvchi jarayonlarni o'rganishda juda kuchli matematik apparat bo'lgan hosil qiluvchi funksiyalar apparatidan foydalanish imkoniyati bu rivojlanishdagi yana bir muhim mezonidir. Bugungi kunga kelib, tarmoqlanuvchi jarayonlarning ko'plab modellari mavjud va rivojlanmoqda. 1957 yilda B.A.Sevastyanov tomonidan ta'riflangan immigratsiyali jarayonlar 1948 - yilda AQShlik olimlar Bellman va Xarrislar tomonidan kiritilgan zarrachalar yoshiga bog'liq jarayonlar, migratsiyali jarayonlar, diffuziyali jarayonlar, energiyali zarralar uchun tarmoqlanuvchi jarayonlar, tug'ilish va o'lim jarayonlari va hokazolar shular jumlasidandir. Deyarli barcha klassik teoremlar dastlab Galton-Vatson jarayonlari uchun isbotlangan va keyin boshqa modellar uchun umumlashtirilgan.

Uzluksiz vaqtli tarmoqlanuvchi jarayonlar ba'zi hollarda kimyoviy zanjir reaksiyalarining dastlabki bosqichlarini yaxshi tasvirlashi mumkin. Biror muhitda (masalan, molekulalar, ionlar, alohida atomlar va boshqalar) oz miqdordagi faol zarrachalar bo'lsin. Faraz qilaylik, reaksiya faol zarrachalar muhit zarrachalari bilan to'qnashganda sodir bo'lsin. Har bir bunday to'qnashuv natijasida ma'lum bir ehtimollik bilan ikkita faol zarracha paydo bo'lishi yoki yutilish sodir bo'lishi mumkin. Reaksiyaning dastlabki bosqichida faol zarrachalar kam bo'lgani uchun ularning bir-biri bilan to'nashuvini e'tiborsiz qoldirishimiz mumkin. So'ngra faol zarralarning har biri boshqalardan mustaqil ravishda yangi faol zarrachalarni hosil qiladi. Shuning uchun bunday reaksiyani uzluksiz vaqt bilan mos keladigan tarmoqlanish jarayoni bilan juda yaxshi tasvirlash mumkin [12].

Quyida biz illyustratsiya sifatida tarmoqlanish jarayonlarini qo'llash mumkin bo'lgan turli misollarni keltiramiz. Xususan, bir necha turdagi zarrachalar bilan berilgan tarmoqlanuvchi jarayonlar kimyoviy zanjir reaksiyalarini tavsiflash uchun ko'proq mos keladi, chunki reaksiyada odatda bir necha turdagi molekulalar yoki ularning qismlari ishtirok etadi.

Xulosa. Tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarning nazariy asoslarini o'rganish natijasida ushbu jarayonlarning murakkab ehtimollik tuzilmasiga ega ekani aniqlangan. Ularning rivojlanish mexanizmi har bir avlod elementlarining tasodifiy tarmoqlanish jarayoni orqali ifodalanadi, bu esa tizimning vaqt bo'yicha o'sishi yoki yo'qolish ehtimolini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot davomida tarmoqlanuvchi jarayonlarning Markov xossasi, stasionarlik shartlari, shuningdek, Galton-Watson modeli misolida ularning o'sish dinamikasi matematik jihatdan tahlil qilindi.

Olingan nazariy natijalar tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarning matematik modellashtirish usullarini yanada takomillashtirish, ularning chegaraviy taqsimotlarini o'rganish va turli sohalarda (biologiya, demografiya, epidemiologiya, axborot tizimlari) qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish uchun ilmiy asos yaratadi. Mazkur tadqiqot natijalari tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasining rivojiga hissa qo'shadi hamda murakkab tasodifiy tizimlarni tavsiflashda yangi tahliliy yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Feller, W. (1968). **An Introduction to Probability Theory and Its Applications. Vol. I-II.** New York: John Wiley & Sons.
2. Harris, T. E. (1963). **The Theory of Branching Processes.** Berlin: Springer-Verlag.
3. Athreya, K. B., & Ney, P. E. (1972). **Branching Processes.** New York: Springer-Verlag.
4. Grimmett, G., & Stirzaker, D. (2001). **Probability and Random Processes.** Oxford: Oxford University Press.
5. Karlin, S., & Taylor, H. M. (1975). **A First Course in Stochastic Processes.** New York: Academic Press.
6. Нагорный, В. П. (1982). **Стохастические процессы и их приложения.** Москва: Наука.
7. Чистов, Н. В. (1990). **Ветвящиеся случайные процессы и их математические модели.** Москва: Наука.

8. Ходжаев, А. А. (2008). **Tasodifiy jarayonlar nazariyasi.** Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
9. Эргашев, М. И. (2016). **Ehtimolliklar nazariyasi va tasodifiy jarayonlar.** Toshkent: Fan va texnologiya.
10. Ross, S. M. (2014). **Introduction to Probability Models.** 11th ed. Academic Press.
11. Mode, C. J. (1971). **Multitype Branching Processes: Theory and Applications.** New York: Elsevier.
12. Назаров, Б. Б. (2021). **Tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarning ehtimollik modellari va ularning amaliy qo'llanilishi.** – **O'zbekiston matematika jurnali**, №3, 45–56-betlar.
13. Qodirov, R. A., & Jo'rayev, Sh. M. (2019). **Ehtimolliklar nazariyasi va matematik statistika asoslari.** Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
14. Karimov, U. S. (2017). **Tasodifiy jarayonlarning matematik modellari va ularning amaliy qo'llanilishi.** Toshkent: TATU nashriyoti.
15. To'xtayev, N. A. (2020). **Matematik modellashtirish va ehtimollik usullari.** Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

QATORLARNING YAQINLASHISHINI TAHLIL QILISHDA D’ALAMBER ALOMATI VA UNGA O‘XSHASH ALOMATLAR

Shog‘dorova Qunduz Samad qizi,

O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi

qunduzshogdarova@gmail.com

Omonov Olim Isoqovich,

O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Klassik D’alamber alomati — matematik analizda musbat hadli qatorlarning yaqinlashishini aniqlashda qo‘llaniladigan muhim alomatlardan biridir. Ushbu maqolada D’alamber alomatidagi limit mavjud bo‘lgan holatda uning Koshi alomati bilan ekvivalentligi isbotlanadi. Shuningdek, shunday $k \in \mathbb{N}$ son uchun $\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{n+k}}{a_n}$ limitining mavjudligi asosida qatorning yaqinlashishi yoki uzoqlashishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: limit, ketma-ketlik, Shtolts teoremasi, musbat ketma-ketlik, D’alamber alomati, Koshi alomati.

ПРИЗНАК Д’АЛАМБЕРА И АНАЛОГИЧНЫЕ ПРИЗНАКИ В АНАЛИЗЕ СХОДИМОСТИ РЯДОВ

Аннотация. Классический признак Д’Аламбера является одним из важных признаков в математическом анализе для определения сходимости рядов с положительными членами. В данной статье доказывается эквивалентность признака Д’Аламбера с признаком Коши в случае существования соответствующего предела. Кроме того, на основе существования предела $\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{n+k}}{a_n}$ для некоторого $k \in \mathbb{N}$ проводится анализ сходимости или расходимости ряда.

Ключевые слова: предел, последовательность, теорема Штольца, положительная последовательность, признак Д’Аламбера, признак Коши.

THE D’ALEMBERT TEST AND ITS ANALOGUES IN THE ANALYSIS OF SERIES CONVERGENCE

Abstract. The classical D’Alembert test is one of the important criteria in mathematical analysis for determining the convergence of series with positive terms. In this article, the equivalence of the D’Alembert test with the Cauchy test is proved in the case when the corresponding limit exists. In addition, based on the existence of the limit $\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{n+k}}{a_n}$ for some $k \in \mathbb{N}$, the convergence or divergence of the series is analyzed.

Keywords: limit, sequence, Stolz theorem, positive sequence, D’Alembert test, Cauchy test.

Kirish. Cheksiz qatorlar ko‘plab amaliy masalalarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi, ilm-fan va muhandislikning turli sohalarida keng qo‘llaniladi. XVIII asrda fransuz matematigi J. D’Alamber tomonidan taklif etilgan D’Alamber alomati cheksiz qatorlarning yaqinlashishini aniqlashda asosiy usullardan biri bo‘ldi. D’Alamber limitlar nazariyasini qat’iy matematik asosda shakllantirish zarurligini ilgari suradi [10]. Aynan shu g‘oya D’Alamber alomatining rivojlanishiga olib keldi.

1.1-teorema (D’alamber alomati [1]). Agar

$$p = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{n+1}}{a_n} \quad (1.3)$$

mavjud bo‘lsa, u holda:

- agar $p < 1$ bo‘lsa, $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qator yaqinlashuvchi;
- agar $p > 1$ bo‘lsa, $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qator uzoqlashuvchi;
- agar $p = 1$ bo‘lsa, $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qator yaqinlashuvchi yoki uzoqlashuvchi bo‘ladi.

Bugungi kunda ham D’Alamber alomati oliy ta’lim muassasalarida matematik analiz fanining asosiy mavzularidan biri sifatida o’qitilib kelinmoqda. Shu bilan birga, ushbu alomatning qo’llanish doirasi cheklangan: agar

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{n+1}}{a_n} = 1$$

bo’lsa, qatorning yaqinlashishi yoki uzoqlashishi haqida aniq xulosa chiqarib bo’lmaydi. Aynan mana shu noaniqlik yangi yaqinlashish alomatlari — Koshi, Raabe, Gauss, Bertrand, va boshqalar — ishlab chiqilishiga turtki bo’lgan.

1.2-teorema (Koshi alomati [1]). Agar

$$q = \lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{a_n} \quad (1.4)$$

mavjud bo’lsa, unda:

- agar $q < 1$ bo’lsa, $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qator yaqinlashuvchi;
- agar $q > 1$ bo’lsa, $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qator uzoqlashuvchi;
- agar $q = 1$ bo’lsa, $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qator yaqinlashuvchi yoki uzoqlashuvchi bo’ladi.

1834-yilda nemis matematigi J. Raabe [11] D’Alamber alomatining umumlashtirilgan shakli sifatida tanilgan Raabe alomatini taklif etdi. Shuningdek, yana bir nemis matematigi K. Gauss qatorlar nazariyasida hozirda Gauss alomati nomi bilan mashhur bo’lgan yaqinlashish alomatini ishlab chiqdi.

Ali [9] tomonidan 2008-yilda ikkinchi nisbat alomat deb nomlangan yangi alomat taklif etilgan bo’lib, u Raabe va Gauss alomatlarining o’rnida qo’llanishi mumkin. Quyidagi teorema ushbu alomatning matematik ifodasini beradi:

1.3-teorema (ikkinchi nisbat alomat). $\{a_n\}$ — musbat hadlardan iborat ketma-ketlik bo’lsin. Agar

$$L = \max \left\{ \limsup_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{2n}}{a_n}, \limsup_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{2n+1}}{a_n} \right\}$$

va

$$l = \min \left\{ \liminf_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{2n}}{a_n}, \liminf_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{2n+1}}{a_n} \right\}.$$

U holda

a) Agar $L < \frac{1}{2}$ bo’lsa, u holda $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qator yaqinlashadi.

b) Agar $l > \frac{1}{2}$ bo’lsa, u holda $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qator uzoqlashadi.

c) Agar $l \leq \frac{1}{2} \leq L$ bo’lsa, u holda $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qatorning yaqinlashishi yoki uzoqlashishi haqida yakuniy xulosa chiqarib bo’lmaydi.

Monoton kamayuvchi ketma-ketliklar uchun Koshining quyidagi natijasi mavjud:

1.4-teorema. $\{a_n\}$ — musbat va monoton kamayuvchi ketma-ketlik bo’lsin. Shunda $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qator yaqinlashishi uchun $\sum_{n=1}^{\infty} 2^n a_{2^n}$ qatorning yaqinlashishi zarur va yetarli.

Keyingi holda, Ali [9] Ikkinchi nisbiy alomatda ishlatiladigan ikkita nisbatdan foydalangan holda nisbiy taqqoslash alomatining quyidagi ko’rinishini isbotlagan:

1.5-teorema (Ikkinchi nisbiy taqqoslash alomati). $\{a_n\}$ va $\{b_n\}$ musbat sonlardan iborat ketma-ketliklar bo’lsin. Faraz qilaylik, barcha yetarlicha katta n lar uchun quyidagi tengsizliklar bajariladi:

$$\frac{a_{2n}}{a_n} \leq \frac{b_{2n}}{b_n} \text{ va } \frac{a_{2n+1}}{a_n} \leq \frac{b_{2n+1}}{b_n}.$$

U holda:

(i) agar $\sum_{n=1}^{\infty} b_n$ qatori yaqinlashsa, $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qator ham yaqinlashadi;

(ii) agar $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qator uzoqlashsa, $\sum_{n=1}^{\infty} b_n$ qator ham uzoqlashadi.

Ma’lumki, ko’p hollarda, $\{x_n\}$ va $\{y_n\}$ ketma-ketliklarining nisbatidan tuzilgan $\{\frac{x_n}{y_n}\}$ ketma-ketlikning yaqinlashuvchiligini tadqiq etishda Shtolts teoremasidan foydalaniladi.

1.5-teorema (Shtolts [2]). Faraz qilaylik, $\{y_n\}$ — o’suvchi va limiti cheksiz ketma-ketlik bo’lsin, va $\{\frac{x_{n+1}-x_n}{y_{n+1}-y_n}\}$ ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo’lib, uning limit qiymati a ga teng bo’lsin. Unda $\{\frac{x_n}{y_n}\}$ ketma-ketlik ham yaqinlashadi va uning limiti ham a ga teng bo’ladi.

Shunday qilib,

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{x_n}{y_n} = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{x_{n+1} - x_n}{y_{n+1} - y_n} = a. \quad (1.5)$$

Ushbu maqolaning maqsadi — D'Alembert alomatida limit mavjud bo'lgan taqdirda, Koshi alomatidagi limit ham mavjud bo'lishini va bu ikki alomatning o'zaro ekvivalentligini isbotlashdan iborat.

Olingan natijalar. Faraz qilaylik, $\{a_n\}$ —musbat ketma-ketlik berilgan bo'lsin. Quyidagi nisbat barcha $n \in \mathbb{N}$ uchun aniqlangan bo'lsin:

$$r_n = \frac{a_{n+1}}{a_n}.$$

1.2-teorema. Agar $\lim_{n \rightarrow \infty} r_n = p$ limiti mavjud bo'lsa, u holda $\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{a_n} = p$ bo'ladi.

Isbot. Avvalo, $p \geq 0$ ekanligini e'tiborga olamiz, chunki $a_n > 0$ bo'lganda $r_n > 0$ bo'ladi. Endi ikki holatni ko'rib chiqamiz:

1-holat. $p = 0$ bo'lsin. Har qanday $\varepsilon > 0$ uchun $r_n \rightarrow 0$ bo'lganligi sababli mavjud $n_0 \in \mathbb{N}$ shundayki $n \geq n_0$ uchun $r_n < \varepsilon$. Shundan kelib chiqib:

$$a_n = a_{n_0} \prod_{k=n_0}^{n-1} r_k \leq a_{n_0} \varepsilon^{n-n_0}.$$

Bu tengsizlikdan

$$\sqrt[n]{a_n} \leq \sqrt[n]{a_{n_0}} \varepsilon^{\frac{n-n_0}{n}}$$

kelib chiqadi. Ma'lumki, $\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{a_{n_0}} = 1$ va $\lim_{n \rightarrow \infty} \varepsilon^{\frac{n-n_0}{n}} = \varepsilon$, shuning uchun

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{a_n} \leq \varepsilon.$$

Shuningdek, $\varepsilon > 0$ ixtiyoriy tanlanganligi sababli $\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{a_n} = 0$. Musbatlikdan $\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{a_n} \geq 0$ ekanligi ayon, demak,

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{a_n} = 0 = p.$$

2-holat. $p > 0$ bo'lsin. Ma'lumki, har bir a_n ni oldingi hadlar orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$a_n = a_1 \cdot \frac{a_2}{a_1} \cdot \frac{a_3}{a_2} \dots \frac{a_n}{a_{n-1}} = a_1 \prod_{k=1}^{n-1} \frac{a_{k+1}}{a_k}. \quad (2.1)$$

Endi bu tenglikning har ikki tomonidan n -ildiz olamiz:

$$\sqrt[n]{a_n} = \sqrt[n]{a_1} \cdot \left(\prod_{k=1}^{n-1} \frac{a_{k+1}}{a_k} \right)^{1/n}. \quad (2.2)$$

Ushbu tenglikning ikki tomonini logarifmlab yozamiz:

$$\ln \sqrt[n]{a_n} = \frac{\ln a_1}{n} + \frac{1}{n} \sum_{k=1}^{n-1} \ln \frac{a_{k+1}}{a_k}. \quad (2.3)$$

Endi ushbu ifodani tahlil qilib, Stolts teoremasini qo'llash uchun zarur shaklga keltiramiz:

$$r_k = \frac{a_{k+1}}{a_k}.$$

Shunday qilib,

$$\ln \sqrt[n]{a_n} = \frac{\ln a_1}{n} + \frac{1}{n} \sum_{k=1}^{n-1} \ln r_k. \quad (2.4)$$

Agar $\lim_{k \rightarrow \infty} r_k = p$ mavjud bo'lsa, unda $\lim_{k \rightarrow \infty} \ln r_k = \ln p$. Endi quyidagi yig'indini qaraymiz:

$$S_n = \sum_{k=1}^{n-1} \ln r_k.$$

U holda

$$\frac{1}{n} \sum_{k=1}^{n-1} \ln r_k = \frac{S_n}{n}.$$

Stolts teoremasiga ko'ra, agar $\lim_{k \rightarrow \infty} \ln r_k = \ln p$ bo'lsa, u holda

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{S_n}{n} = \ln p.$$

Demak,

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{1}{n} \sum_{k=1}^{n-1} \ln r_k = \ln p. \quad (2.5)$$

Shunday qilib, (2.2) va (2.5) formulalardan quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \ln \sqrt[n]{a_n} = \lim_{n \rightarrow \infty} \left(\frac{\ln a_1}{n} + \frac{1}{n} \sum_{k=1}^{n-1} \ln r_k \right) = \ln p.$$

Bundan

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{a_n} = e^{\ln p} = p.$$

Teorema isbotlandi.

2.1-misol. $\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{n!}$ limitni hisoblang.

Yechish. $a_n = n!$ teng bo'lib, $r_n = \frac{a_{n+1}}{a_n} = n+1$ ga teng. Demak, $\lim_{n \rightarrow \infty} r_n = \infty$, 2.1-teoremaga ko'ra

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{n!} = \infty.$$

2.2-misol. Hisoblang

$$L = \lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{\frac{1^1 \cdot 2^2 \cdot \dots \cdot n^n}{(n!)^n}}.$$

Yechish. $a_n = \frac{1^1 \cdot 2^2 \cdot \dots \cdot n^n}{(n!)^n}$ teng. Shunday qilib,

$$a_{n+1} = \frac{\prod_{k=1}^{n+1} k^k}{((n+1)!)^{n+1}} = \frac{(\prod_{k=1}^n k^k) (n+1)^{n+1}}{((n+1)!)^{n+1}}.$$

Nisbati

$$r_n = \frac{a_{n+1}}{a_n} = \frac{(n+1)^{n+1} (n!)^n}{((n+1)!)^{n+1}}.$$

Lekin $(n+1)! = (n+1)n!$, shuning uchun

$$((n+1)!)^{n+1} = (n+1)^{n+1} (n!)^{n+1}.$$

Bularni o'rniga qo'yib, oddiylashsak:

$$r_n = \frac{(n+1)^{n+1} (n!)^n}{(n+1)^{n+1} (n!)^{n+1}} = \frac{1}{n!}.$$

Demak,

$$r_n = \frac{a_{n+1}}{a_n} = \frac{1}{n!}$$

bunga ko'ra $\lim_{n \rightarrow \infty} r_n = 0$ va 2.1-teoremadan yoki yuqoridagi tahlildan $\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{a_n} = 0$.

2.3-misol. $\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{\frac{n^n}{n!}}$ limitni hisoblang.

Yechish. r_n topamiz

$$r_n = \frac{a_{n+1}}{a_n} = \frac{\frac{(n+1)^{n+1}}{(n+1)!}}{\frac{n^n}{n!}} = \frac{(n+1)^{n+1} n!}{(n+1)! n^n}.$$

Endi $(n+1)! = (n+1)n!$ bo'lgani uchun:

$$r_n = \frac{(n+1)^{n+1}}{(n+1)n^n} = \frac{(n+1)^n}{n^n} = \left(1 + \frac{1}{n}\right)^n.$$

Ma'lum limitga ko'ra:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \left(1 + \frac{1}{n}\right)^n = e.$$

Shuning uchun:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} r_n = e.$$

2.1-teoreмага ko'ra, agar $\lim_{n \rightarrow \infty} r_n = e$, u holda:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{a_n} = e.$$

2.1-natija. Agar ushbu $\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{n+1}}{a_n}$ limit mavjud bo'lsa, u holda Dalamber va Koshi alomatlari ekvivalent bo'ladi.

Demak, (1.3) limit mavjud bo'lganda Dalamber va Koshi alomatlari ekvivalent bo'lib, ular qatorning yaqinlashishi yoki uzoqlashishi haqida bir xil xulosaga olib keladi.

2.4-misol. Quyidagi qator $p = q$ bo'lishini tekshiring:

$$\sum_{n=1}^{\infty} \frac{n!}{n^n}.$$

Yechish. (1.5) dan ma'lumki har bir a_n oldingi hadlar orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$a_n = \frac{n!}{n^n} = \prod_{k=1}^{n-1} \frac{(k+1)!}{(k+1)^{k+1}} = \prod_{k=1}^{n-1} \frac{k^k}{(k+1)^k}. \quad (2.6)$$

Har ikki tomonidan n -ildiz olib:

$$\sqrt[n]{a_n} = \sqrt[n]{\frac{n!}{n^n}} = \left(\prod_{k=1}^{n-1} \frac{k^k}{(k+1)^k} \right)^{1/n}. \quad (2.7)$$

Ushbu tenglikning ikki tomonini logarifmlab yozamiz:

$$\ln \sqrt[n]{a_n} = \ln \sqrt[n]{\frac{n!}{n^n}} = \frac{1}{n} \sum_{k=1}^{n-1} \ln \frac{k^k}{(k+1)^k}. \quad (2.8)$$

Endi ushbu ifodani tahlil qilib, Stolts teoremasini qo'llash uchun zarur shaklga keltiramiz:

$$r_k = \frac{k^k}{(k+1)^k}.$$

Shunday qilib,

$$\ln \sqrt[n]{a_n} = \frac{1}{n} \sum_{k=1}^{n-1} \ln r_k. \quad (2.9)$$

Ma'lumki, $\lim_{k \rightarrow \infty} r_k = \lim_{k \rightarrow \infty} \frac{k^k}{(k+1)^k} = \frac{1}{e}$ bo'ladi. Shunda $\lim_{n \rightarrow \infty} \ln r_k = -1$. Endi quyidagi yig'indini qaraymiz:

$$S_n = \sum_{k=1}^{n-1} \ln r_k.$$

U holda

$$\frac{1}{n} \sum_{k=1}^{n-1} \ln r_k = \frac{S_n}{n}.$$

Stolts teoremasiga ko'ra, agar $\lim_{n \rightarrow \infty} \ln r_k = -1$ bo'lsa, u holda

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{S_n}{n} = -1.$$

Demak,

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{1}{n} \sum_{k=1}^{n-1} \ln r_k = -1. \quad (2.10)$$

Shunday qilib, (2.8) va (2.10) formulalardan quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \ln \sqrt[n]{a_n} = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{1}{n} \sum_{k=1}^{n-1} \ln r_k = -1.$$

Bundan

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{a_n} = e^{-1} = \frac{1}{e}.$$

Demak,

$$q = \frac{1}{e} < 1.$$

Dalamber mezoniga ko'ra esa:

$$p = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{n+1}}{a_n} = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{(n+1)!/(n+1)^{n+1}}{n!/n^n} = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{n^n}{(n+1)^n} = \frac{1}{e}.$$

Demak, $p = q = \frac{1}{e}$.

2.1-izoh. Agar (1.3) limit mavjud bo'lmasa, bu holatda (1.4) limitning ham mavjud emasligini anglatmaydi.

2.5-misol. $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{2-(-1)^n}{n}$ qatorni qaraylik, D'Alamber alomati:

$$\frac{a_{n+1}}{a_n} = \frac{\frac{2-(-1)^{n+1}}{n+1}}{\frac{2-(-1)^n}{n}} = \frac{n}{n+1} \cdot \frac{2-(-1)^{n+1}}{2-(-1)^n}.$$

Agar n juft bo'lsa:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{n}{n+1} \cdot \frac{2-(-1)^{n+1}}{2-(-1)^n} = 3.$$

Agar n toq bo'lsa:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{n}{n+1} \cdot \frac{2-(-1)^{n+1}}{2-(-1)^n} = \frac{1}{3}.$$

Demak,

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{n+1}}{a_n} \text{ limit mavjud emas.}$$

Koshi alomati:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{a_n} = \lim_{n \rightarrow \infty} \left(\frac{2-(-1)^n}{n} \right)^{1/n} = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{(2-(-1)^n)^{1/n}}{n^{1/n}} = 1.$$

2.3-teorema. Agar $k \in \mathbb{N}$ shunday son topilib, ushbu

$$d = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{n+k}}{a_n} \quad (2.11)$$

limit mavjud bo'lsa, u holda

(a) agar $d < 1$ bo'lsa, (1.2) qator yaqinlashuvchi bo'ladi;

(b) agar $d > 1$ bo'lsa, (1.2) qator uzoqlashuvchi bo'ladi.

Isbot. (a) Faraz qilaylik, (2.11) limit mavjud bo'lin. $d < 1$ bo'lganligi sababli, shunday kichik $\varepsilon > 0$ sonni tanlash mumkinki,

$$d_0 = d + \varepsilon < 1. \quad (2.12)$$

Limit ta'rifiga ko'ra, shunday $n_0 \in \mathbb{N}$ son topiladiki, barcha $n > n_0$ lar uchun quyidagi tengsizlik bajariladi:

$$\frac{a_{n+k}}{a_n} < d_0. \quad (2.13)$$

Demak,

$$a_{n+k} < d_0 a_n, n > n_0. \quad (2.14)$$

Endi (2.14) tengsizlikni ketma-ket qo'llaymiz:

$$a_{n_0+k} < d_0 a_{n_0}, a_{n_0+2k} < d_0 a_{n_0+k} < d_0^2 a_{n_0}, \dots,$$

va umuman olganda, barcha $m \in \mathbb{N}$ uchun

$$a_{n_0+mk} < d_0^m a_{n_0}. \quad (2.15)$$

Endi ixtiyoriy $n > n_0$ ni qaraymiz. U holda $n = n_0 + mk + r$ ko'rinishda yozish mumkin, bu yerda $0 \leq r < k$.

(2.15) dan quyidagi baho hosil bo'ladi:

$$a_n \leq a_{n_0+mk} < d_0^m a_{n_0}. \quad (2.16)$$

Endi berilgan (1.2) qatorni quyidagi geometrik qator bilan solishtiramiz:

$$\sum_{m=0}^{\infty} d_0^m a_{n_0} = a_{n_0} \sum_{m=0}^{\infty} d_0^m = \frac{a_{n_0}}{1-d_0}, \quad (2.17)$$

u $0 < d_0 < 1$ bo'lgani uchun yaqinlashuvchi bo'ladi.

(2.16) dan ko'rinadiki, a_n hadlari ushbu geometrik qator hadlari bilan chegaralangan, shuning uchun (1.2) qator yaqinlashuvchi bo'ladi.

(b) Faraz qilaylik,

$$d = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{n+k}}{a_n} > 1. \quad (2.18)$$

Demak, limit ta'rifi ko'ra, shunday musbat son $\varepsilon > 0$ va natural son n_0 topiladiki, barcha $n > n_0$ lar uchun

$$\frac{a_{n+k}}{a_n} > 1 + \varepsilon.$$

Bu tengsizlikdan:

$$a_{n+k} > (1 + \varepsilon)a_n. \quad (2.19)$$

Endi (2.19) ni ketma-ket m marta qo'llaymiz:

$$\begin{aligned} a_{n_0+k} &> (1 + \varepsilon)a_{n_0}, \\ a_{N+2k} &> (1 + \varepsilon)a_{N+k} > (1 + \varepsilon)^2 a_N, \\ &\dots, \\ a_{n_0+mk} &> (1 + \varepsilon)^m a_{n_0}. \end{aligned} \quad (2.20)$$

Endi $a_{n_0} > 0$ bo'lgani uchun (2.20) dan quyidagini olamiz:

$$\lim_{m \rightarrow \infty} a_{n_0+mk} \geq \lim_{m \rightarrow \infty} a_{n_0} (1 + \varepsilon)^m = +\infty.$$

Shuning uchun

$$\lim_{n \rightarrow \infty} a_n \neq 0.$$

Demak, $p > 1$ bo'lsa, a_n hadlari nolga intilmaydi. Shuning uchun (1.2) qator uzoqlashuvchi bo'ladi.

2.2-izoh. Agar $d = 1$ bo'lsa, (1.2) qatorning yaqinlashishini aniqlash uchun boshqa usul qo'llanadi.

2.3-izoh. Agar $k = 1$ bo'lsa, D'alambertning klassik alomatiga aylanadi.

Xulosa. Maqolada D'Alamber va Koshi alomatlari o'rtasidagi bog'liqlik isbotlandi. Agar $\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{n+1}}{a_n}$ mavjud bo'lsa, bu ikki alomat ekvivalentligi ko'rsatildi. Shuningdek, $\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{n+k}}{a_n} = d$ bo'lganda, $d < 1$ uchun qator yaqinlashishi, $d > 1$ uchun esa uzoqlashishi isbotlandi. Bu natijalar D'Alamber alomatining qo'llanish doirasini kengaytiradi va qatorlarning yaqinlashishini tahlil qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Azlarov T.A., Mansurov H. (1986, 1989). *Matematik analiz (1 va 2-qismlar)*. T.: O'qituvchi.
2. Sa'dullayev A., Mansurov H., Xudoyberganov G., & G'ulomov R. (1993, 1995). *Matematik analiz kursidan misol va masalalar to'plami (1 va 2-qismlar)*. T.: O'zbekiston.
3. Зорич, А. (1981). *Математический анализ (Т. 1–2)*. М.: Наука.
4. Ильин В.А., Садовничий В.А., Сендов Б.Х. (1979). *Математический анализ (Т. 1–2)*. М.: Наука.
5. Фихтенгольц Г.М. (1962). *Курс дифференциального и интегрального исчисления (Т. 1–3)*. М.: Физ-матгиз.
6. Демидович Б.П. (1972). *Сборник задач и упражнений по математическому анализу*. М.: Наука.
7. Кубрякцев Л.Д., Кумасов А.Д., Шеглов В.И., Шабунин М.И. (1984, 1986). *Сборник задач по математическому анализу (Т. 1–2)*. М.: Наука.
8. Виноградова И.А., Олехник С.Н., & Садовничий В.А. (1988). *Задачи и упражнения по математическому анализу (Т. 1)*. Издательство Московского Университета.
9. Ali, S. (2008). *The mth Ratio Test: New Convergence Tests for Series*. Amer. Math. Monthly.

10. d'Alembert, J. (1768). *R'eflexions sur les Suites Divergentes ou Convergentes*. Opuscles Math'ematiques ou M'emoires sur Diff'erens Sujets de G'eom'etrie.
11. Raabe, J. (1834). *Note zur Theorie der Convergenz und Divergenz der Reihen*. Journal f'ur die reine und angewandte Mathematik.
12. Tong, J. (1994). *Kummer's Test Gives Characterization for Convergence or Divergence of all Positive Series*. Amer. Math. Monthly.

IKKI O'LCHAMLI SIMPLEKSDA ANIQLANGAN V — TARTIBLI BISTOXASTIK
OPERATORLAR OILASI DINAMIKASI

Utayev Azizbek Toyir o'g'li,

Qarshi davlat universiteti

Matematik analiz va differensial tenglamalar kafedrası o'qituvchisi

azizbekutayev42@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ish ikki o'lchamli simpleksda aniqlangan nochiziqli bistoxastik operatorlar dinamikasini o'rganishga bag'ishlangan. Ikki o'lchamli simpleksda V — tartibli bistoxastik operatorlarning aniq bir oilasi qurilgan. Ushbu operatorlarning invariant to'plamlar va qo'zg'almas nuqtalar xossalari o'rganilgan. Ko'rib chiqilayotgan operatorlar oilasi uchun qo'zg'almas nuqtalar to'plami va traektoriyalarning xatti-harakati tavsiflovchi teorema shakllantirilgan va isbotlangan.

Kalit so'zlar: qo'zg'almas nuqta, stoxastik operator, bistoxastik operator, simpleks, majorizatsiya.

DYNAMICS OF THE FAMILY OF V — TH ORDER BISTOCHASTIC OPERATORS
DEFINED ON A TWO-DIMENSIONAL SIMPLEX

Abstract. This work is devoted to the study of the dynamics of nonlinear bistochastic operators defined on a two-dimensional simplex. A specific family of bistochastic operators of order V on the two-dimensional simplex is constructed. The properties of the invariant sets and fixed points of these operators are investigated. A theorem describing the set of fixed points and the behavior of trajectories for the considered family of operators is formulated and proven.

Keywords: Fixed point, stochastic operator, bistochastic operator, simplex, majorization.

ДИНАМИКА СЕМЕЙСТВА БИССТОХАСТИЧЕСКИХ ОПЕРАТОРОВ V ГО ПОРЯДКА
ОПРЕДЕЛЕННЫХ НА ДВУМЕРНОМ СИМПЛЕКСЕ

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению динамики нелинейных бистохастических операторов, определенных на двумерном симплексе. На двумерном симплексе построено конкретное семейство бистохастических операторов порядка V . Исследованы свойства инвариантных множеств и неподвижных точек этих операторов. Для рассматриваемого семейства операторов сформулирована и доказана теорема, описывающая множество неподвижных точек и поведение траекторий.

Ключевые слова: Неподвижная точка, стохастический оператор, бистохастический оператор, симплекс, мажоризация.

Kirish. Tabiatshunoslik, aholi genetikasi, tur populyatsiyasi va boshqa ko'plab sohalarda jarayonning vaqt o'tishi bilan o'zgarishini modellashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunday jarayonlarni o'rganishda diskret vaqtli dinamik sistemalarlar nazariyasi asosiy vositadir. Shu o'rinda, stoxastik operatorlar orqali ifodalangan diskret dinamik sistemalar alohida o'rin tutadi, chunki ular ehtimollik taqsimotlarining evolyutsiyasini tavsiflash imkonini beradi.

Stoxastik operatorlar orasida, barcha kordinatalari bo'yicha simmetrik xususiyatga ega bo'lgan bistoxastik operatorlar alohida o'rganiladi. Ushbu operatorlar majorizatsiya tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ma'lum bir tartibni saqlab qolish xususiyatiga ega. Shuning uchun ularni o'rganish nafaqat matematik, balki qo'llash jihatidan ham muhimdir.

Ikki o'lchamli simpleks - bu uch komponentli ehtimollik taqsimotlarining to'plami bo'lib, eng soddagi chiziqli bo'lmagan dinamikani o'rganish uchun qulay model hisoblanadi. Ushbu maqolada ikki o'lchamli simpleksda aniqlangan, ma'lum bir tartibdagi chiziqli bo'lmagan bistoxastik operatorlarning bir oilasi qaraladi.

Ishning asosiy maqsadi shu operatorlar oilasi uchun invariant to'plamlarni, operatorning qo'zg'almas nuqtalar to'plamini topish va boshlang'ich shartga bog'liq ravishda traektoriyalarning xatti-harakatini (ya'ni

limit xossasini) aniqlashtirishdan iborat. Isbotlangan teorema orqali, ko'rib chiqilayotgan operatorlar dinamikasining barcha asosiy xususiyatlari to'liq tavsiflanadi.

Asosiy ta'rif va tushunchalar. Bizga $N_{\leq q} = \{1, 2, 3, \dots, q\} \subset N$ (bu yerda $q \in N$) to'plam va berilgan bo'lsin.

$$S^{m-1} = \{x = (x_1, x_2, \dots, x_m) \in R^m, \sum_{j=1}^m x_j = 1, x_j \geq 0, j \in N_{\leq m}\}$$

to'plamga R^m dagi $m-1$ o'lchamli simleks deyiladi. $S_{>}^{m-1}$ orqali S^{m-1} simpleksning ichki nuqtalari to'plamini belgilaymiz, ya'ni

$$S_{>}^{m-1} = \{x = (x_1, x_2, \dots, x_m) \in R^m, \sum_{j=1}^m x_j = 1, x_j > 0, j \in N_{\leq m}\}.$$

S^{m-1} simpleksning chegarasini ∂S^{m-1} orqali belgilaymiz. $e_k = (e_1^{(k)}, e_2^{(k)}, \dots, e_m^{(k)})$, ($k \in N_{\leq m}$) orqali S^{m-1} simpleksni uchini belgilaymiz, ya'ni

$$e_k^{(k)} = 1 \text{ va } e_j^{(k)} = 0 \text{ barcha } j \neq k, k \in N_{\leq m} \text{ uchun.}$$

Elementlari haqiqiy sonlardan tashkil topgan $m \times m$ kvadrat matritsani $A = (a_{ij})$ orqali belgilaymiz.

Agar A - $m \times m$ kvadrat matritsa elementlari uchun $a_{ij} \geq 0$, $\forall i, j \in N_{\leq m}$ va $\sum_{i=1}^m a_{ij} = 1$, $j \in N_{\leq m}$ tengliklar

o'rinli bo'lsa, u holda A stoxastik matritsa deyiladi. S_n orqali $n \in N$ ta elementning o'rin almashtirishlari guruppasini belgilaymiz.

Tarif 1.1. Ixtiyoriy $\nu \in N$ uchun, quyidagi operator

$$S: x = (x_1, x_2, \dots, x_m) \in \square^m \rightarrow \varphi(x) = (\varphi_1(x), \varphi_2(x), \dots, \varphi_m(x)) \in \square^m \quad (1.1)$$

ν -tartibli stoxastik operator deyiladi, agar $S \geq \theta$ va

$$\varphi_k(x) = \sum_{i_1, i_2, \dots, i_\nu=1}^m P_{i_1 i_2 \dots i_\nu, k} x_{i_1} x_{i_2} \dots x_{i_\nu}, \quad x \in \square^m, \quad k \in N_{\leq m} \quad (1.1.1)$$

bu yerda

$$P_{i_1 i_2 \dots i_\nu, k} \geq 0, \quad i_j = \overline{1, m}, \quad j = \overline{1, \nu}, \quad k = \overline{1, m} \quad (1.1.2)$$

$$P_{i_1 i_2 \dots i_\nu, k} = P_{i_{\pi(1)} i_{\pi(2)} \dots i_{\pi(\nu)}, k}, \quad k = \overline{1, m} \quad (1.1.3)$$

ixtiyoriy $\pi \in S_m$ o'rin almashtirish uchun, va

$$\sum_{k=1}^m P_{i_1 i_2 \dots i_\nu, k} = 1, \quad i_j = \overline{1, m}, \quad j = \overline{1, \nu}. \quad (1.1.4)$$

Yuqoridagi (1.1.2) - (1.1.4) shartlardan

$$\sum_{k=1}^m \varphi_k(x) = (x_1 + x_2 + \dots + x_m)^\nu, \quad x \in \square^m$$

bo'lishi kelib chiqadi. Ko'rinib turibdiki, S operator S^{m-1} simpleksni o'zini o'ziga akslantiruvchi operatordir. $\nu=1$ bo'lganda S operator chiziqli stoxastik operator deyiladi, $\nu=2$ bo'lganda S operator kvadratik stoxastik operator deyiladi, $\nu=3$ bo'lganda S operator kubik stoxastik operator deyiladi va hokazo. $S^{[\nu]}$ orqali ν -tartibli stoxastik operatorni belgilaymiz.

Elementlari haqiqiy sonlardan tashkil topgan $m \times m$ kvadrat matritsani $A = (a_{ij})$ orqali belgilaymiz.

Agar A - $m \times m$ kvadrat matritsa elementlari uchun $a_{ij} \geq 0$, $\forall i, j = \overline{1, m}$ $\sum_{i=1}^m a_{ij} = 1$,

$\forall i, j = \overline{1, m} \quad \sum_{j=1}^m a_{ij} = 1, \quad \forall i, j = \overline{1, m}$ tengliklar o'rinli bo'lsa, u holda A matritsa bistoxastik

matritsa deyiladi. Ba'zan bistoxastik matritsa, $\square^m$ dagi bistoxastik operator deb ham ataladi. Ko'rishimiz mumkinki chiziqli bistoxastik operator uchun $A(S^{m-1}) \subset S^{m-1}$ munosabat o'rinli bo'ladi.

Endi umumiy holda bistoxastik operator ta'rifini kiritaylik. Ixtiyoriy $X = (x_1, x_2, \dots, x_m) \in R^m$ uchun quyidagi $X \downarrow = (x_{[1]}, x_{[2]}, \dots, x_{[m]})$ ga X ning qayta tartiblanishi deyiladi, bu yerda $x_{[1]} \geq x_{[2]} \geq \dots \geq x_{[m]}$.

Ta'rif 1.2. Faraz qilaylik, $X, Y \in S^{m-1}$ bo'lsin. Agar barcha $k = \overline{1, m-1}$ uchun $\sum_{i=1}^k x_{[i]} \leq \sum_{i=1}^k y_{[i]}$ tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda X element Y ga majorizatsiyalashgan (kattalashgan) deyiladi va $X \prec Y$ ko'rinishida belgilanadi.

Ta'rif 1.3. Agar V -tartibli stoxastik operator uchun $S^{[V]} X \prec X, \forall X \in S^{m-1}$. munosabat o'rinli bo'lsa, V -tartibli bistoxastik operator deyiladi.

V -tartibli bistoxastik B operatorni $B^{[V]}$ ko'rinishida belgilaymiz.

S^2 Simpleksda bistoxastik operatorlar oilasi.

Lemma 1. Ixtiyoriy $x = (x_1, x_2, \dots, x_m) \in S^{m-1}$ va ixtiyoriy $\alpha_j \in (0; 1), j = \overline{1, m}$ uchun $\min\{\alpha_1, \alpha_2, \alpha_3\} < \alpha_1 x_1 + \alpha_2 x_2 + \alpha_3 x_3 < \max\{\alpha_1, \alpha_2, \alpha_3\}$ tengsizlik o'rinli bo'ladi.

Lemma 2. Agar $|a| < 1$ bo'lsa, u holda ixtiyoriy $h(x) = ax + b$ va ixtiyoriy $x_0 \in R$ uchun

$\lim_{n \rightarrow \infty} h^{(n)}(x_0) = \frac{b}{1-a}$ tenglik o'rinli bo'ladi.

Quyidagi $B_{\alpha^{[1]}}^{[1]} : S^2 \rightarrow S^2$ chiziqli bistoxastik operatorlar oilasini qaraylik

$$B_{\alpha^{[1]}}^{[1]} : \begin{cases} x_1' = x_1, \\ x_2' = \alpha x_2 + (1-\alpha)x_3, \\ x_3' = (1-\alpha)x_2 + \alpha x_3 \end{cases}$$

bu yerda $\alpha \in (0, 1)$.

Bizga ikkita $B_{\alpha_1^{[1]}}^{[1]}, B_{\alpha_2^{[1]}}^{[1]}$ chiziqli bistoxastik operatorlar oilasi berilgan bo'lsin. Bu operatorlar yordamida quyidagi $B_{\alpha^{[2]}}^{[2]} = x_1 B_{\alpha_1^{[1]}}^{[1]} + (x_2 + x_3) B_{\alpha_2^{[1]}}^{[1]}$ kvadratik stoxastik operatorni hosil qilamiz, ya'ni

$$B_{\alpha^{[2]}}^{[2]} : \begin{cases} x_1' = x_1(x_1 + x_2 + x_3), \\ x_2' = \alpha^{[2]} x_2 + (1-\alpha^{[2]})x_3, \\ x_3' = (1-\alpha^{[2]})x_2 + \alpha^{[2]} x_3 \end{cases}$$

Bu yerda $\alpha^{[2]}(x_1) = x_1\alpha_1^{[1]} + (1-x_1)\alpha_2^{[1]}$ ga teng. $\alpha^{[2]}(x_1)$ parameter $x \in S^2$ ning birinchi kordinatasiga bog'liq funksiya bo'lib, $B_{\alpha^{[2]}}^{[2]}$ operator dinamikasini o'rganayotganimizda o'zgarmas son vazifasini bajaradi, chunki $B_{\alpha^{[2]}}^{[2]}$ operatorning $x \in S^2$ ga ta'siri x ning dastlabki kordinatasini qo'zg'almas qoldiradi. Lemma 1 ga ko'ra $|\alpha^{[2]}| < 1$.

Huddi shu metodni davom ettirish natijasida, V -tartibli bistoxastik $B_{\alpha^{[v]}}^{[v]} = x_1 B_{\alpha_1^{[v-1]}}^{[v-1]} + (x_2 + x_3) B_{\alpha_2^{[v-1]}}^{[v-1]}$ operatorni hosil qilamiz, ya'ni

$$B_{\alpha^{[v]}}^{[v]} : \begin{cases} x_1' = x_1(x_1 + x_2 + x_3)^{v-1}, \\ x_2' = \alpha^{[v]}(x_1)x_2 + (1 - \alpha^{[v]}(x_1))x_3, \\ x_3' = (1 - \alpha^{[v]}(x_1))x_2 + \alpha^{[v]}(x_1)x_3 \end{cases} \quad (3.1)$$

Bu yerda $\alpha^{[v]}(x_1) = x_1\alpha_1^{[v-1]}(x_1) + (x_2 + x_3)\alpha_2^{[v-1]}(x_1)$ ga teng. $\alpha^{[v]}(x_1)$ funksiya $x \in S^2$ ning faqat dastlabki kordinatasiga bog'liq bo'lganligi uchun, $B_{\alpha^{[v]}}^{[v]}$ operator dinamikasini o'rganayotganimizda o'zgarmas son vazifasini bajaradi, chunki $B_{\alpha^{[v]}}^{[v]}$ operatorning $x \in S^2$ ga ta'siri x ning dastlabki kordinatasini qo'zg'almas qoldiradi. Lemma 1 ga ko'ra $|\alpha^{[v]}(x_1)| < 1$.

Teorema 1. Ixtiyoriy $\tau \in [0;1]$ va $v \in \mathbb{N}$ uchun, $S_\tau = \{x = (x_1, x_2, x_3) \in S^2, x_1 = \tau\}$ to'plam, $B_{\alpha^{[v]}}^{[v]}$ operatorning invariant to'plamdir.

2. $B_{\alpha^{[v]}}^{[v]}$ operatorning S^2 simpleksdagi qo'zg'almas nuqtalari to'plami, uchlari e_1 va $u^{(0)} = \left(0, \frac{1}{2}, \frac{1}{2}\right)$ nuqtalarda bo'lgan kesmadan iborat.

3. Ixtiyoriy $x^{(0)} = (x_1^{(0)}, x_2^{(0)}, x_3^{(0)}) \in S^2 \setminus \text{Fix}(B_{\alpha^{[v]}}^{[v]})$ uchun

$$\lim_{n \rightarrow \infty} B_{\alpha^{[v]}}^{[v] (n)}(x^{(0)}) = \left(x_1^{(0)}, \frac{1-x_1^{(0)}}{2}, \frac{1-x_1^{(0)}}{2}\right)$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

Isbot: 1) 3.1 – operatoridan ko'rishimiz mumkinki, $x_1' = x_1(x_1 + x_2 + x_3) = x_1$ tenglik o'rinli. Bundan kelib chiqadiki S_τ to'plam, 3.1 operator uchun invariant to'plamdir.

2) 3.1 operatorning qo'zg'almas nuqtasi

$$\begin{cases} x_1 = x_1(x_1 + x_2 + x_3)^{v-1}, \\ x_2 = \alpha^{[v]}(x_1)x_2 + (1 - \alpha^{[v]}(x_1))x_3, \\ x_3 = (1 - \alpha^{[v]}(x_1))x_2 + \alpha^{[v]}(x_1)x_3 \end{cases} \quad (3.2)$$

sistemaning yechimi demakdir. $x_1 + x_2 + x_3 = 1$ va $\alpha^{[v]}(x_1) \in (0,1)$ ekanligini hisobga olsak, 3.2 sistemaning yechimi $x_2 = x_3$ tenglikni qanoatlantiruvchi S^{m-1} simpleksning nuqtalaridan iborat ekanligi

kelib chiqadi. Demak, $B_{\alpha^{[v]}}^{[v]}$ operatorning S^{m-1} simpleksdagi qo'zg'almas nuqtalari to'plami, uchlari e_1 va $u^{(0)} = \left(0, \frac{1}{2}, \frac{1}{2}\right)$ nuqtalarda bo'lgan ko'pyoqdan iborat.

3) Ko'rinib turibdiki, Ixtiyoriy $x^{(0)} = (x_1^{(0)}, x_2^{(0)}, x_3^{(0)}) \in S^2 \setminus \text{Fix}(B_{\alpha^{[v]}}^{[v]})$ uchun, $x_1^{(n)} = x_1^{(0)}$ tenglik o'rinli. Operatorning keyingi kordinatasi uchun

$$x_2' = \alpha^{[v]}(x_1)x_2 + (1 - \alpha^{[v]}(x_1))x_3 = (2\alpha^{[v]}(x_1) - 1)x_2 + (1 - \alpha^{[v]}(x_1))(1 - x_1)$$

tenglik o'rinli bo'ladi. $h(x_2) = (2\alpha^{[v]}(x_1) - 1)x_2 + (1 - \alpha^{[v]}(x_1))(1 - x_1)$ deb belgilaylik.

$\alpha^{[v]}(x_1) \in (0; 1) \Rightarrow |2\alpha^{[v]}(x_1) - 1| < 1$ tengsizlik va lemma 2 ga ko'ra

$$\lim_{n \rightarrow \infty} x_2^{(n)} = \lim_{n \rightarrow \infty} h^{(n)}(x_2) = \frac{1 - x_1^{(0)}}{2}.$$

Demak, ixtiyoriy $x^{(0)} = (x_1^{(0)}, x_2^{(0)}, x_3^{(0)}) \in S^2 \setminus \text{Fix}(B_{\alpha^{[v]}}^{[v]})$ uchun

$$\lim_{n \rightarrow \infty} B_{\alpha^{[v]}}^{[v] (n)}(x^{(0)}) = \left(x_1^{(0)}, \frac{1 - x_1^{(0)}}{2}, \frac{1 - x_1^{(0)}}{2}\right)$$

tenglik o'rinli bo'ladi. +

Xulosa. Ushbu ishda ikki o'lchamli simpleksda aniqlangan, ma'lum bir tartibdagi chiziqli bo'lmagan bistoxastik operatorlarning aniq bir oilasi qurildi va ularning dinamik xossalari o'rganildi.

Quyidagi asosiy natijalar isbotlandi: Operator uchun $x_1 = \tau$, $\tau \in [0, 1]$ shartni qanoatlantiruvchi to'g'ri chiziq invariant to'plam ekanligi ko'rsatildi. Bu shuni anglatadiki, agar tizim boshlang'ich holatda ushbu to'g'ri chiziqda joylashsa, u butunlay shu to'plamda qoladi. Operatorning qo'zg'almas nuqtalari to'plami kontinum quvvatli to'plam ekanligi isbotlandi.

Har qanday boshlang'ich nuqta uchun operatorning qo'llanishi natijasida hosil bo'lgan ketma-ketlik simpleksning ichiga, aniqrog'i, dastlabki koordinataga bog'liq ravishda qo'zg'almas nuqtalarga yaqinlashishi ko'rsatildi. Bu esa, dinamikaning uzoq muddatli xatti-harakati to'g'risida aniq tasavvur beradi. Olingan natijalar ko'rib chiqilayotgan bistoxastik operatorlar oilasi dinamikasini to'liq tavsiflash imkonini beradi va chiziqli bo'lmagan stoxastik operatorlar nazariyasiga muhim hissa hisoblanadi.

REFERENCES:

1. Lyubich Yu.I. *Mathematical Structures in Population Genetics*. - Kiev: Naukova Dumka, 1983. - 296 p. (in Russian).
2. Rozikov U.A., Khamraev A.Yu. On Cubic Operators Defined on a Finite-Dimensional Simplex. *Ukrainian Mathematical Journal*. 2004. Vol. 56. No. 10. P. 1424-1433.
3. Rozikov U.A., Zhamilov U.U. Volterra Quadratic Stochastic Operators of a Bisexual Population. *Ukrainian Mathematical Journal*. 2011. Vol. 63. No. 7.
4. Rozikov U.A., Zhamilov U.U. F-Quadratic Stochastic Operators. *Mathematical Notes*. 2008. Vol. 83. No. 4. P. 606-612.
5. Zhamilov U.U., Rozikov U.A. On the Dynamics of Strictly Non-Volterra Quadratic Stochastic Operators on the Two-Dimensional Simplex. *Sbornik: Mathematics*. 2009. Vol. 200. No. 9. P. 81-94.
6. Shahidi F.A. On Biostochastic Operators Defined on a Finite-Dimensional Simplex. *Siberian Mathematical Journal*. March-April, 2009. Vol. 50. No. 2. P. 463-468.
7. Prasolov V.V. *Polynomials*. MTSNMO. 2nd ed., 336 (2001). (in Russian).
8. Ganikhodzhaev R., Mukhamedov F., Rozikov U. Quadratic Stochastic Operators and Processes: Results and Open Problems. *Infinite Dimensional Analysis, Quantum Probability and Related Topics*. 2011. Vol. 14. No. 2. P. 279-335.
9. Jamilov U.U., Khamraev A.Yu., Ladra M. On a Volterra Cubic Stochastic Operator. *Bulletin of Mathematical Biology*. 2018. Vol. 80. No. 2. P. 319-334.

10. Mamurov B. J., Rozikov U. A. *On Cubic Stochastic Operators and Processes. Journal of Physics: Conference Series.* 2016. Vol. 697. 012017.
11. Mukhamedov F., Ganixodjaev N. *Quantum Quadratic Operators and Processes. Lecture Notes in Mathematics.* Vol. 2133. Nov. 12. 2015.
12. Nickalls, R.W.D. *Vieta, Descartes and the Cubic Equation. Mathematical Gazette.* 2006. Vol. 90. P. 203-208.

ИНТЕГРИРОВАНИЕ УРАВНЕНИЯ МКДФ С САМОСОГЛАСОВАННЫМ ИСТОЧНИКОМ В КЛАССЕ ФУНКЦИЙ КОНЕЧНОЙ ПЛОТНОСТИ, В СЛУЧАЕ ПРОСТЫХ СОБСТВЕННЫХ ЗНАЧЕНИЙ

Мамедов Кудрат Алламович,

к. ф.-м.н., доцент, кафедра

“ Точные науки”, университета Маъмун

mqudrat1969@gmail.com

Жуманиязов Низом,

(PhD), доцент, кафедра

“ Точные науки”, университета Маъмун

nizomjon_ursu@mail.ru

Азаматов Азизбек Шавкатович,

(PhD), доцент, кафедра

“ Точные науки”, университета Маъмун

azizbek_shavkatovich@gmail.com

Аннотация. В данной работе изучается задача Коши для модифицированного уравнения Кортевега-де Фриза с самосогласованным источником в классе функций конечной плотности, в случае простых собственных значений соответствующей спектральной задачи. Исследуется эволюция данных рассеяния для связанного несамосопряженного оператора Дирака, возникающего при интегрировании данного уравнения. Особое внимание уделено корректности постановки задачи Коши. Выводятся эволюции данных рассеяния несамосопряженного оператора Дирака с простыми собственными значениями, потенциал которого является решением уравнения Кортевега-де Фриза с самосогласованным источником, в случае конечной плотности. Полученные результаты могут быть использованы в спектральной теории линейных операторов, в математической физике при интегрировании нелинейных уравнений и при решении некоторых задач физики плазмы.

Ключевые слова: метод обратной задачи рассеяния, модифицированное уравнение Кортевега-де Фриза (мКДФ), оператор Дирака, решение Йоста, собственное значение, собственная функция, данные рассеяния, класс функций имеющих конечную плотность.

MKDF TENGLAMANI ODDIY XUSUSIY QIYMATLAR HOLIDAGI CHEKSIZLIK FUNKSIYALARI SINFIGA O'Z-O'ZI BO'LGAN MANBA BILAN INTEGRATRIYA

Annotatsiya. Ushbu ishda moslangan manbali modifitsirlangan Korteveg–de Friz (mKdF) tenglamasini chekli zichlikli funksiyalar sinfiga sochilish nazariyasining teskari masala usulida karrasiz xos qiymatlar holidagi o'rganiladi. Tenglamani integrallash jarayonida paydo bo'ladigan o'z-o'ziga qo'shma bo'lmagan Dirak operatori uchun sochilish nazariyasi berilganlarining evolyutsiyasi tadqiq etiladi. Koshi masalasining korrektiligiga alohida e'tibor berilgan. Potensial moslangan manbali modifitsirlangan Korteveg–de Friz (mKdF) tenglamasining chekli zichlikli funksiyalar sinfiga yechimi bo'lgan o'z-o'ziga qo'shma bo'lmagan Dirak operatori uchun karrasiz xos qiymatlar holidagi sochilish nazariyasining berilganlari evolyutsiyasi keltirib chiqarilgan. Olingan natijalarni chiziqli operatorlarning spektral nazariyasida, plazma fizikasining ba'zi masalalarini yechishda kelib qoladigan matematik fizikaning nochiqli tenglamalarini integrallashda qo'llash mumkin.

Kalit so'zlar: sochilish nazariyasining teskari masalasi, modifitsirlangan Korteveg–de Friz tenglamasi (mKdF), Dirak operatori, Yost yechimi, xos qiymat, xos funksiyasi, sochilish nazariyasining berilganlari, chekli zichlikli funksiyalar sinfi.

INTEGRATION OF THE MKDF EQUATION WITH A SELF-CONSISTENT SOURCE IN THE CLASS OF FINITE DENSITY FUNCTIONS IN THE CASE OF SIMPLE EIGENVALUES

Abstract. This work investigates the Cauchy problem for the modified Korteweg–de Vries equation with a self-consistent source in the class of functions of finite density, in the case of simple eigenvalues of the

corresponding spectral problem. The evolution of the scattering data is studied for the associated non-selfadjoint Dirac operator that arises in the integration of this equation. The study devotes significant attention to ensuring that the Cauchy problem is correctly posed. The evolution formulas for the scattering data of the non-selfadjoint Dirac operator with simple eigenvalues are derived, where the potential is a solution of the modified Korteweg–de Vries equation with a self-consistent source in the finite-density case. The obtained results may be applied in the spectral theory of linear operators, in mathematical physics for the integration of nonlinear equations, and in solving certain problems of plasma physics.

Keywords: inverse scattering problem method, modified Korteweg-de Vries equation (mKdV), Dirac operator, Jost solution, eigenvalue, eigenfunction, scattering data, class of functions having finite density.

Введение. Модифицированное уравнение Кортевега-де Фриза (мКдФ)

$$u_t + 6u^2u_x + u_{xxx} = 0$$

встречается при решении некоторых задач физики плазмы. В работе [1] это уравнение было проинтегрировано методом обратной задачи рассеяния для системы Дирака. Метод обратной задачи рассеяния ведет свое начало с работы [2], в которой он представлен как метод решения задачи Коши для уравнения Кортевега-де Фриза.

Применение метода обратной задачи для уравнения мКдФ опирается на задачу рассеяния для оператора Дирака вида

$$L(t) = i \begin{pmatrix} \frac{d}{dx} & -u(x, t) \\ -u(x, t) & -\frac{d}{dx} \end{pmatrix}$$

на всей оси. Обратная задача рассеяния для оператора Дирака изучалась в работах М.Г.Гасимова, Б.М.Левитана [3], В.Е.Захарова, А.Б.Шабата [4], И.С.Фролова [5], Л.П.Нижника, А.Б.Хасанова [6], Л.А.Тахтаджяна, Л.Д.Фаддеева [7] и др.

Применения метода обратной задачи рассеяния для оператора Дирака к интегрированию нелинейных эволюционных уравнений изучалась в работах М.Абловица, Д.Каупа, А.Ньюэлла и Х.Сигура [8], В.Е.Захарова, Л.А.Тахтаджяна, Л.Д.Фаддеева [9], В.К.Мельникова [10], А.Б.Хасанова, У.А.Хоитметова [11], Г.У.Уразбоева, А.Б.Хасанова [12], Г.У.Уразбоева, К.А.Мамедова [13], А.Б.Хасанова, К.А.Мамедова [14] и др. Именно в работе [10] был введен термин «самосогласованный источник». Самосогласованность источника понимается в том смысле, что правая часть рассматриваемого эволюционного уравнения является комбинацией собственных функций соответствующей спектральной задачи, потенциал которой есть решение рассматриваемого эволюционного уравнения.

Отметим, также, что в работе Ж.Леона и А.Латифи [15] приведена конкретная физическая задача, которая сводится к решению уравнения КдФ с источником.

В связи с применением к конкретным физическим задачам возникла необходимость рассмотрении нелинейных эволюционных уравнений не только в классе «быстроубывающих» функций, но в классах функций специального вида, а именно периодических, ступенчатых, имеющих конечную плотность и др.

Следует отметить, что в работе А.Б.Яхшимуратова, М.М.Хасанова [16] было интегрировано уравнение мКдФ с самосогласованным источником в классе периодических функций, а в случае конечной плотности, т.е. в случае $u(x, t) \rightarrow c$ при $|x| \rightarrow \infty$, $c \in \mathbb{R}$ изучалась в работах Н.Н.Романовой [17], К.А.Мамедова [18] и др.

Рассмотрим систему уравнений

$$\begin{cases} u_t + 6u^2u_x + u_{xxx} = \sum_{k=1}^{2N} (\Phi_{k1}^2 - \Phi_{k2}^2), \\ L\Phi_k = \xi_k \Phi_k, \quad k = 1, 2, \dots, 2N, \end{cases} \quad (1)$$

при начальном условии

$$u(x, 0) = u_0(x), \quad x \in \mathbb{R}, \quad (2)$$

где $u_0(x) \rightarrow c$ при $x \rightarrow \pm\infty$, $c \in R$. Здесь начальная функция $u_0(x)$ обладает следующими свойствами:

$$1) \int_{-\infty}^{\infty} (1+|x|)|u_0(x)-c|dx < \infty; \quad (3)$$

2) Оператор $L(0)$ имеет ровно $2N$ простых собственных значений $\xi_1(0), \xi_2(0), \dots, \xi_{2N}(0)$.

В рассматриваемой задаче $\Phi_k = (\Phi_{k1}, \Phi_{k2})^T$ – собственная вектор-функция оператора $L(t)$ соответствующая собственному значению ξ_k так, что

$$\int_{-\infty}^{\infty} \Phi_{k1} \Phi_{k2} dx = A_k(t), \quad k = 1, 2, \dots, 2N. \quad (4)$$

Здесь $A_k(t)$ заданные, непрерывные, ненулевые функции, которые удовлетворяют условиям

$$A_k(t) = A_n(t) \text{ при } \xi_k = -\xi_n. \quad (5)$$

Предполагаем, что функция $u(x, t)$ обладает достаточной гладкостью и достаточно быстро стремится к своим пределам при $x \rightarrow \pm\infty$, т.е.

$$\int_{-\infty}^{\infty} \left((1+|x|)|u(x, t)-c| + \sum_{k=1}^3 \left| \frac{\partial^k u(x, t)}{\partial x^k} \right| \right) dx < \infty. \quad (6)$$

Основная цель данной работы – получить представление для решения $u(x, t)$, $\Phi_{k1}(x, t)$, $\Phi_{k2}(x, t)$, $k = 1, 2, \dots, N$, задачи (1)–(5) в классе функций (6), в рамках метода обратной задачи рассеяния для оператора $L(t)$.

Задача рассеяния. Рассмотрим систему уравнений

$$\begin{cases} y_{1x} + i\xi y_1 = u(x)y_2, \\ y_{2x} - i\xi y_2 = -u(x)y_1, \end{cases} \quad (7)$$

на всей оси $(-\infty < x < \infty)$, с потенциалом $u(x)$, удовлетворяющим условию

$$\int_{-\infty}^{\infty} (1+|x|)|u(x)-c|dx < \infty, \quad c \in R. \quad (8)$$

Видно, что с помощью оператора

$$L = i \begin{pmatrix} \frac{d}{dx} & -u(x) \\ -u(x) & -\frac{d}{dx} \end{pmatrix}$$

и вектор-функции $y = (y_1, y_2)^T$ систему (7) можно переписать в виде

$$Ly = \xi y. \quad (9)$$

При условии (8) система уравнений (9) обладает решениями Йоста со следующими асимптотиками

$$\begin{aligned} \phi(x, \xi) &\sim \begin{pmatrix} 1 \\ \frac{i(\xi - p)}{c} \end{pmatrix} e^{-ipx}, \quad \text{при } x \rightarrow -\infty, \\ \bar{\phi}(x, \xi) &\sim \begin{pmatrix} -\frac{i(\xi - p)}{c} \\ -1 \end{pmatrix} e^{ipx}, \quad \text{при } x \rightarrow -\infty, \end{aligned}$$

$$\psi(x, \xi) \sim \begin{pmatrix} \frac{i(\xi - p)}{c} \\ 1 \end{pmatrix} e^{-ipx}, \quad \text{при } x \rightarrow \infty,$$

$$\bar{\psi}(x, \xi) \sim \begin{pmatrix} 1 \\ \frac{i(\xi - p)}{c} \end{pmatrix} e^{ipx}, \quad \text{при } x \rightarrow \infty.$$

Здесь $p = \sqrt{\xi^2 + c^2}$ и ветвь квадратного корня фиксируется условием

$$\operatorname{Im} p(\xi) > 0 \quad \text{при} \quad \operatorname{Im} \xi > 0. \quad (10)$$

В дальнейшем мы часто будем опускать зависимость функции $p(\xi)$ от ξ . Таким образом, в формулах, где участвует $p(\xi)$ и ξ , всегда подразумевается, что p является функцией от ξ . (Отметим, что $\bar{\phi}$ в общем случае, не является комплексным сопряжением к ϕ). При действительных ξ , пары вектор-функций $\{\phi, \bar{\phi}\}$ и $\{\psi, \bar{\psi}\}$ являются парами линейно независимых решений для системы уравнений (9), поэтому

$$\phi(x, \xi) = a(\xi)\bar{\psi}(x, \xi) + b(\xi)\psi(x, \xi), \quad (\operatorname{Im} \xi = 0), \quad (11)$$

$$\bar{\phi}(x, \xi) = -\bar{a}(\xi)\psi(x, \xi) + \bar{b}(\xi)\bar{\psi}(x, \xi), \quad (\operatorname{Im} \xi = 0), \quad (12)$$

где

$$a(\xi) = \frac{W\{\phi, \psi\}}{W\{\bar{\psi}, \psi\}}, \quad b(\xi) = \frac{W\{\phi, \bar{\psi}\}}{W\{\bar{\psi}, \bar{\psi}\}}, \quad |a(\xi)|^2 + |b(\xi)|^2 = 1.$$

Риманова поверхность Γ функции $p(\xi)$ состоит из двух экземпляров Γ_+ и Γ_- комплексной плоскости C с разрезами по мнимой оси от $-ic$ до ic . Условие (10) однозначно определяет аналитическую продолжение функции $a(\xi)$ на лист Γ_+ , исключая точки ветвления $\xi = \pm ic$. Невещественные нули функции $a(\xi)$ соответствуют собственным значениям оператора $L(t)$ на листе Γ_+ . Собственные значения оператора $L(t)$ на листе Γ_- совпадают с нулями функции $\bar{a}(\xi)$. Итак, числа $\{\xi_k, \bar{\xi}_k\}_{k=1}^N$ являются собственными значениями оператора $L(t)$, и других собственных значений этот оператор не имеет. Предположим, что все собственные значения оператора $L(t)$ простые, так, что

$$\phi(x, \xi_k) = C_k \psi(x, \xi_k), \quad \bar{\phi}(x, \bar{\xi}_k) = \bar{C}_k \bar{\psi}(x, \bar{\xi}_k), \quad k = \overline{1, N}.$$

Справедливы следующие равенства

$$\bar{\psi}(x, \xi) = \begin{pmatrix} \psi_2(x, -\xi) \\ -\psi_1(x, -\xi) \end{pmatrix}, \quad \bar{\phi}(x, \xi) = \begin{pmatrix} \phi_2(x, -\xi) \\ -\phi_1(x, -\xi) \end{pmatrix}, \quad (13)$$

$$\bar{a}(\xi) = a(-\xi), \quad \bar{b}(\xi) = b(-\xi), \quad \bar{\xi}_k = -\xi_k, \quad \bar{C}_k = C_k, \quad k = \overline{1, N}.$$

Для функции $\psi(x, \xi)$ справедливо следующее интегральное представление

$$\psi(x, \xi) = \begin{pmatrix} \frac{i(\xi - p)}{c} \\ 1 \end{pmatrix} e^{ipx} + \int_x^\infty \mathbf{K}(x, s) \begin{pmatrix} \frac{i(\xi - p)}{c} \\ 1 \end{pmatrix} e^{ips} ds, \quad (14)$$

где

$$\mathbf{K}(x, s) = \begin{pmatrix} K_1(x, s) & K_2(x, s) \\ -K_2(x, s) & K_1(x, s) \end{pmatrix}.$$

В представлении (14) ядро $\mathbf{K}(x, y)$ не зависит от ξ и связано с $u(x)$ с помощью равенства

$$u(x) - c = 2K_2(x, x). \quad (15)$$

Компоненты ядра $\mathbf{K}(x, y)$ при $y > x$ являются решениями системы интегральных уравнений

$$-\frac{2i}{c} \begin{pmatrix} K_2(x, y) \\ K_1(x, y) \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} F_1(x+y) \\ F_2(x+y) \end{pmatrix} + \int_x^\infty \begin{pmatrix} K_1(x, s) & K_2(x, s) \\ -K_2(x, s) & K_1(x, s) \end{pmatrix} \begin{pmatrix} F_1(s+y) \\ F_2(s+y) \end{pmatrix} ds = 0,$$

где

Akustooptik effekt fotoelastiklik hodisasi bilan bog‘liq bo‘lib, elastik to‘lqinlar tomonidan keltirilgan davriy sinish ko‘rsatkichi modulyatsiyasi natijasida yorug‘likning difraksiyalanishiga olib keladi. Kollinear Bragg difraksiyasi holatida optik va akustik to‘lqinlar bir yo‘nalishda tarqaladi, bu faza sinxronizatsiyasining eng qulay sharoitini yaratadi [7–8]. Ushbu jarayonning samaradorligi fotoelastiklik tenzori komponentlari, akustik to‘lqin tezligi, zichlik va optik sindirish ko‘rsatkichiga bog‘liq bo‘lib, ular M_2 akustooptik sifat koeffitsienti orqali baholanadi [9–10].

Avvalgi ishlar CaMoO_4 kristalining yuqori fotoelastik xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ayniqsa *ko‘ndalang* akustik to‘lqinlar uchun *kollinear difraksiyaning* burchakka bog‘liqligi hali yetarlicha o‘rganilmagan [3, 11]. Shu bois ushbu tadqiqot CaMoO_4 kristallarining kollinear Bragg difraksiyasi mexanizmlarini chuqur tahlil qilishga, samarali fotoelastik konstantalar va M_2 koeffitsientining burchakka bog‘liqligini aniqlashga qaratilgan. Taqqoslash uchun keng qo‘llaniladigan PbMoO_4 va LiNbO_3 kristallari ham tekshirildi [12–15].

Tadqiqot metodologiyasi. Tajribalarda He–Ne lazer ($\lambda=632.8$ nm) nuri yordamida yorug‘likning akustik to‘lqinlarga Bragg difraksiyasi kuzatildi. Akustik to‘lqinlar kvarts transduserlar orqali 10–30 MHz chastotalarda qo‘zg‘atildi. Effektiv fotoelastik konstantalar modifikatsiyalangan Dikson usuli bilan aniqlanib, quyidagi ifoda asosida hisoblandi [4]:

$$p_{\text{eff}} = \frac{n^3 V}{2\rho\lambda} \sqrt{\frac{I_x}{I_s}} \quad (1)$$


bu yerda n – sinish ko‘rsatkichi, V – akustik to‘lqin tezligi, ρ – zichlik, I_x va I_s tadqiqot namunasi va etalon uchun difraksiyon intensivliklardir.

Olingan tezliklar va p_{eff} qiymatlaridan foydalanib, akustooptik sifat koeffitsienti quyidagi formula orqali topildi [5]:

$$M_2 = \frac{n^6 p_{\text{eff}}^2}{\rho V^3} \quad (2)$$

Ushbu metodologiya orqali CaMoO_4 , PbMoO_4 va LiNbO_3 kristallarining ko‘ndalang to‘lqinlar uchun akustooptik xossalari aniqlandi.

Natijalar va muhokama. Kristallarda akustik to‘lqinlarning faza tezligi ularning elastik konstantalari va simmetriyasiga bog‘liq bo‘lib, anizotrop materiallarda bu tezlik to‘lqin vektorining yo‘nalishiga qarab sezilarli o‘zgaradi. CaMoO_4 va PbMoO_4 kabi tetragonal simmetriyaga ega kristallarda kvazi-ko‘ndalang to‘lqinlar uchun faza tezliklari Kristoffel tenglamalari asosida hisoblanadi va bu qiymatlar akustooptik samaradorlikka bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Yo‘nalish bo‘yicha faza tezligining kamayishi M_2 koeffitsientining ortishiga olib keladi, chunki M_2 akustik tezlikning uchinchi darajasiga teskari proporsionaldir. (001) tekislikdagi CaMoO_4 va PbMoO_4 kristallarining kvazi-ko‘ndalang to‘lqinlar faza tezliklarining burchakka bog‘liqligi 1-rasmda keltirilgan.



a.

1-rasm. CaMoO_4 (1) va PbMoO_4 (2) kristallarining (001) tekislikda kvazi-ko‘ndalang akustik to‘lqinlar faza tezligining akustik to‘lqin vektoriga bog‘liqligi

Grafik faza tezliklarining burchak bo‘yicha anizotropligini yaqqol aks ettiradi. Har ikki kristalda faza tezligi yo‘nalish o‘zgarishi bilan sezilarli darajada farq qiladi, biroq CaMoO_4 kristalida bu o‘zgarish nisbatan


barqaror va silliq xarakterga ega. PbMoO_4 kristalida esa elastik modullarning og'ir metall komponentlari sababli faza tezligining burchakka sezgirliigi kuchliroq. Grafikdan ko'rinadiki, CaMoO_4 kristali ko'plab yo'nalishlarda PbMoO_4 ga nisbatan yuqori faza tezligiga ega bo'lib, bu akustooptik jarayonda qulay dinamik sharoitlarni yaratadi. Faza tezligining burchakka bog'liq bu farqlari M_2 ko'effitsientining maksimal qiymatlarining ham aynan ma'lum yo'nalishlarda (120° va 210°) kuzatilishiga sabab bo'ladi. Zero, faza tezligi qanchalik past bo'lsa, akustooptik o'zaro ta'sir uchun shunchalik qulay bo'ladi, chunki M_2 ko'effitsienti tezlikning uchinchi darajasiga teskari proporsional. Shu bois CaMoO_4 ning (001) tekislikdagi faza tezliklari taqsimoti materialning yuqori akustooptik samaradorligini tushuntiruvchi asosiy fizik omillardan biridir. 1- jadval uchta material orasida to'liq va kompleks taqqoslash imkonini beradi.

1-jadval.

Kristallarning akustooptik parametrlari

Kristall	N	ρ (kg/m ³)	V (m/s)	p_{eff}	$M_{2,max}$ ($\times 10^{-15}$ s ³ /kg)
CaMoO_4 (CMO)	1.98	4250	2850	0.17	12.12
PbMoO_4 (PMO)	2.20	6950	2700	0.12	4.43
LiNbO_3	2.23	4650	3700	0.10	3.07

Jadvalda CaMoO_4 , PbMoO_4 va LiNbO_3 kristallarining asosiy akustooptik parametrlarining taqqoslanishi keltirilgan bo'lib, ular materiallarning difraksion samaradorligini aniqlovchi asosiy omillardan hisoblanadi. CaMoO_4 kristalining nisbatan past sindirish ko'rsatkichi ($n = 1.98$) va ayniqsa past zichligi ($\rho = 4250$ kg/m³) uning akustooptik samaradorligini oshiradi, chunki M_2 ko'effitsienti zichlik va akustik tezlikning kubiga teskari proporsionaldir. CaMoO_4 ning ko'ndalang akustik to'lqin tezligi ($V=2850$ m/s) ham boshqa kristallarga nisbatan past bo'lib, bu M_2 ning ortishiga yana bir omil bo'ladi. Eng muhim parametr samarali fotoelastik konstantaning ($p_{eff} = 0.17$) PbMoO_4 va LiNbO_3 ga qaraganda yuqori bo'lishi CaMoO_4 ning optik modulyatsiyaga javob berish xususiyatini kuchaytiradi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, CaMoO_4 akustooptik qurilmalar uchun eng qulay parametrlar kombinatsiyasiga ega materialdir. Bu jadval akustooptik modulyatorlar, filtrlash tizimlari, spektral analizatorlar va lazerlar uchun material tanlashda asosiy ilmiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin. CaMoO_4 , PbMoO_4 va LiNbO_3 kristallarida akustooptik sifat ko'effitsientining (001) tekislikda akustik to'lqinning tarqalish yo'nalishiga bog'liqligi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. CaMoO_4 (1), PbMoO_4 (2) va LiNbO_3 (3) kristallarida M_2 ko'effitsiyentining (001) tekislikda akustik to'lqinning tarqalish yo'nalishiga bog'liqligi

Grafikdan ko'rinib turibdiki, M_2 ning qiymati CaMoO_4 kristali uchun 120° va 210° burchaklarda maksimumga ega bo'lib, qiymat 12.1×10^{-15} s³/kg ga yetadi. Bu PbMoO_4 va LiNbO_3 kristallaridagi mos ravishda 4.4 va 3.1×10^{-15} s³/kg qiymatlardan mos ravishda 2.7 va 4 baravar yuqoridir. Bu yo'nalishlarda optik-akustik faza uyg'unlashuvi maksimal bo'lib, kollinear Bragg difraksiyasi uchun optimal geometriya ta'minlanadi. Bu natija CaMoO_4 kristallarining kollinear Bragg difraksiyasi sharoitida optik va akustik to'lqinlar energiya almashinuvi eng samarali yo'nalishlarga ega ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, uning past zichligi (4250 kg/m³) tufayli energiya o'tish samaradorligi yuqori bo'ladi, bu esa akustooptik filtrlarda sezilarli afzallik beradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda CaMoO_4 kristallarida ko'ndalang akustik to'lqinlar bilan yorug'likning kollinear Bragg difraksiyasi o'rganildi. Modifikatsiyalangan Dikson usuli yordamida fotoelastik tenzor komponentlari aniqlanib, samarali fotoelastik konstantalar va akustooptik sifat koeffitsiyenti M_2 hisoblandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, CaMoO_4 kristallarida M_2 PbMoO_4 va LiNbO_3 ga nisbatan yuqori bo'lib, maksimal qiymat 120° va 210° yo'nalishlarda kuzatildi. Faza tezligining barqaror taqsimoti, past zichlik va yuqori fotoelastik konstantalar CaMoO_4 ning akustooptik jarayonlarda yuqori samaradorlik ko'rsatishiga imkon beradi. Shu bilan birga, u akustooptik modulyatorlar, filtrlash tizimlari va lazerlarda qo'llash uchun istiqbolli material sifatida ajralib turadi. Olingan natijalar kollinear Bragg difraksiyasi va akustooptik samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Dixon R.W., Cohen M.G. *A new technique for measuring magnitudes of photoelastic tensors...* Appl. Phys. Lett., 1966.
2. Venturini E.L., Spencer E.G., Ballman A.A. *Elasto-optic properties of $\text{Bi}_{12}\text{GeO}_{20}$...* J. Appl. Phys., 1969.
3. Akhmedzhanov F.R., Elboeva M.I. *Collinear Diffraction of Light in CaMoO_4 Crystals*, 2024.
4. Yao X., Zhang W. *Acousto-optic properties of CaMoO_4 and PbMoO_4* , Optical Materials, 2020.
5. Yariv A. *Optical Electronics in Modern Communications*, OUP, 2019.
6. Boyd R.W. *Nonlinear Optics*, Academic Press, 2020.
7. Dmitriev V. et al. *Handbook of Nonlinear Optical Crystals*, Springer, 2021.
8. Smith J. et al. *Acousto-Optic Devices*, J. Appl. Phys.
9. Chang R. *Advanced Acousto-Optic Theory*, Physics Reports, 2018.
10. Kolbus R., et al. *Elastic Wave Propagation in Anisotropic Crystals*, Optics Express, 2017.
11. Müller M. *Sheelite-type Crystals for Modern Optics*, Crystal Growth Reports, 2022.
12. Lin S., et al. *Photoelastic characterization of tetragonal oxides*, Optics Letters, 2019.
13. Kuroda T. *Bragg diffraction in acousto-optic systems*, JOSA B, 2021.
14. Pavlov P. *Elastic and acoustic properties of Mo-based crystals*, J. Crystal Phys., 2020.
15. Huang Y., et al. *Comparative acousto-optic study of LiNbO_3 and Mo-based crystals*, Optical Engineering, 2023.

URAN VA PLUTONIY IZOTOPLARINI BOYITILISHI VA ULARNI YADRO
REAKTORLARIDA QO‘LLANILISHI

Eshbo‘riyev Rashid,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro texnologiyalari instituti Yadro fizikasi va
astronomiya kafedrası professori
eshburiyev0082@gmail.com

Ubaydullayeva Muhayyo Abdurasul qizi,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro texnologiyalari instituti Yadro fizikasi va
astronomiya kafedrası magistranti
ubaydullayevamuhayyo80@gmail.com

Fayzullayeva Mukarram Lutfullo qizi,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro texnologiyalari instituti Yadro fizikasi va
astronomiya kafedrası stajyor-tadqiqotchisi
mukarramfayzullayeva@gmail.com

Abdusamadova Dilfuza Iskandar qizi,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro texnologiyalari instituti Yadro fizikasi va
astronomiya kafedrası magistranti
dilfuzaabdusamadova28@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ishda uran izotoplarini boyitilish usullari va texnologiyalari chuqur tahlil qilingan va bu usullarning bir-biridan ustunligi hamda aniqlik darajasi ko‘rsatilgan. Uran-235 izotopini boyitishning ayniqsa gaz-diffuziya, lazer va kimyoviy usullari to‘liq tahlil qilingan.

Shuningdek, uran-235 izotopini matematik tenglamalardan foydalanib boyitishning bir bosqichli usuli taklif etilgan, bu bo‘yicha matematik tenglamalar sistemasi va uning yechimlari keltirilgan. Uran-235 izotopini boyitilishini matematik tenglamalar yordamida bir bosqichli usuli bilan hisoblangan qiymati boshqa usullar bilan olingan qiymatlariga mos kelishi ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: ajratish koeffitsiyenti, atom reaktori, boyitilgan uran, gaz diffuziya, izotop almashinuv, izotop boyitish, izotop ajratish, kimyoviy usuli, lazer usuli, magnit maydoni, matematik modellash, matematik tenglama, massa balansi, neytron, tabiiy uran, uran izotoplari, uran-233, uran-235, uran-238, yadro yoqilg‘isi.

ENRICHMENT OF URANIUM AND PLUTONIUM ISOTOPES AND THEIR APPLICATION
IN NUCLEAR REACTORS

Abstract. In this work, the methods and technologies for uranium isotope enrichment have been thoroughly analyzed, highlighting their relative advantages and levels of precision. The enrichment methods of the Uranium-235 isotope, particularly the gas diffusion and chemical methods, are presented in detail.

Furthermore, a single-stage method for enriching the U-235 isotope based on mathematical equations has been proposed. The system of mathematical equations and their solutions are provided. It has been demonstrated that the calculated values obtained through the single-stage mathematical method for Uranium-235 enrichment correspond closely with the values derived from other established methods.

Keywords: chemical method, diffusion coefficient, enriched uranium, gas diffusion method, isotope enrichment, isotope exchange, isotope separation technology, laser method, magnetic field, mathematical equations, mathematical modeling, mass balance, natural uranium, neutron, nuclear fuel, uranium isotopes, uranium-233, uranium-235, uranium-238.

ОБОГАЩЕНИЕ ИЗОТОПОВ УРАНА И ПЛУТОНИЯ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В
ЯДЕРНЫХ РЕАКТОРАХ

Аннотация. В данной работе проведён глубокий анализ методов и технологий обогащения изотопов урана, показаны их преимущества и степень точности. Особое внимание уделено методам обогащения изотопа урана-235, в частности газодиффузионному и химическому методам, которые изложены подробно.

Кроме того, предложен одноступенчатый метод обогащения изотопа уран-235 с использованием математических уравнений. Приведена система математических уравнений и их решения. Показано, что рассчитанные значения, полученные с помощью одноступенчатого математического метода обогащения урана-235, хорошо согласуются со значениями, полученными другими методами.

Ключевые слова: газодиффузионный метод, изотопное обогащение, изотопный обмен, изотопы урана, химический метод, коэффициент разделения, лазерный метод, магнитное поле, математическое моделирование, математические уравнения, массовый баланс, нейтрон, обогащённый уран, природный уран, разделение изотопов, ядерное топливо, уран-233, уран-235, уран-238.

Kirish. Yadro yoqilg'isi deb-neutronlar ta'sirida bo'linadigan, tarkibida nuklidlar mavjud bo'lgan yadro materiallari (YaM) ga aytiladi. Bo'linuvchi nuklidlarga:

-Uran va toriyning tabiiy izotoplari (^{238}U , ^{232}Th , ^{235}U , ^{234}U);

-Plutoniyning sun'iy izotoplari (^{239}Pu , ^{240}Pu , ^{241}Pu). ^{239}Pu izotopi ^{238}U izotopining tez neutronni qamrashidan va ketma-ket β yemirilishdan hosil bo'ladi).

-Transuran elementlar (Np , Am , Cm , Bk , Cf) izotoplari;

-Uraning ^{233}U sun'iy izotopi. Bu izotop ^{232}Th izotopining tez neutronni qamrab 2 marta β^- yemirilishidan hosil qilinadi [1].

Asosiy qism. Ma'lumki tabiiy uran tarkibida uranning 3 ta izotopi uchraydi, bu izotoplarga:



$$^{238}\text{U} - 99,25\% \left(T_{\frac{1}{2}} = 4,5 \cdot 10^9 \text{yil} \right),$$

$$^{235}\text{U} - 0,71\% \left(T_{\frac{1}{2}} = 0,7 \cdot 10^9 \text{yil} \right)$$

$$^{234}\text{U} - 0,0056\% \left(T_{\frac{1}{2}} = 2,5 \cdot 10^5 \text{yil} \right)$$

kiradi.

Ammo yadro yoqilg'isi sifatida qo'llanadigan ^{233}U va plutoniyning -239,240 va 241 izotoplari yadro reaktorlarida uran va toriy izotoplaridan quyidagi reaksiyalar yordamida hosil qilinadi:



^{239}Pu va ^{233}U izotoplari yadro reaktorlarida yoqilg'i sifatida qo'llaniladi va sun'iy izotoplar hisoblanadi. ^{235}U , ^{239}Pu va ^{233}U izotoplari issiq neytronlar ($\epsilon = 0,025\text{eV}$) ta'sirida bo'linadi. ^{238}U va ^{232}Th izotoplari tabiiy yadro materiali (YaM) hisoblanadi va bu izotoplar tez neytronlar ($\epsilon \approx 1 - 10\text{MeV}$) ta'sirida parchalanadi va to'g'ridan-to'g'ri yadro yoqilg'isi sifatida qo'llanilmaydi, ya'ni yadro xom-ashyosi bo'lib hisoblanadi.

Hozirda yadro energetikasi asosan boyitilgan uran izotoplariga asoslanadi. Boyitilgan uran- ^{235}U bo'linuvchi izotopining miqdori tabiiy urandagi miqdoridan (0,71%) yuqori bo'lgan uran tushuniladi. Hozirgi zamon AESlarining aksariyatini, tarkibida ^{235}U izotopli past boyitilgan (2-5%) uranoksidli yoqilg'isidan foydalanadigan yengil suvli, issiq reaktorlar tashkil qiladi.

Uranni izotop boyitishning bir qator, ko'plab yadro texnologiyalari mavjud. Bularning barchasining asosida ^{238}U va ^{235}U izotoplarining massalari farqini aniqlashga asoslangan. Bu massalar farqi (3 m.a.b) magnit maydonida (elektromagnit usul) ionlashgan atomlarning har xil burchaklarga og'ishiga; atomlarning g'ovak to'siqlar (gaz diffuziyali usul) orqali o'tish tezliklari farqi; markazdan qochma kuchlar maydonida atomlar (molekulalarning) har xil fazoviy taqsimlanishi (gazli sentrafuga usuli); kichik egrilik radiusli

(ajratuvchi sonli usuli) to'siqni aylanib o'tishda atom (molekula)lar turli harakat trayektoriyalariga ega bo'lishiga asoslangan.

Uran izotoplarini ajratishni miqdoriy baholash usulini birinchi marta ingliz fiziklari R. Payerls va P. Diraklar taklif etishgan [2]. Ular izotop birikmalarini xarakterlovchi U funksiyani kiritgan. Bu funksiya birikma miqdori T ni faqat hosil qilingan izotop miqdoridan bog'liq bo'lgan biror o'lhamsiz funksiya $V(C_T)$ ko'paytmasi ko'rinishida ifodalagan,

$$U_T = T \cdot V(C_T)$$

va $V(C_T)$ –funksiyani izotoplarni ajratish potentsiali deb atagan.

Olimlar bu potentsial yordamida birlashgan va boyitilgan uran miqdorlarini aniqlagan.

Uranni boyitishning eng asosiy usullaridan biri gaz diffuziya usulidir (GD). Bu usulda issiqlik harakati hisobidan gaz birikmasida massalar ko'chishi jarayoni tushuniladi. GD usuli yordamida uranni boyitish og'ir va yengilroq molekulalarning issiqlik harakati tezliklari farqi hamda yengilroq molekulalarning yupqa g'ovak to'siqchadan o'tish qobiliyatiga asoslangan.

Bir xil temperaturali ikki xil gaz aralashmasida yengil va og'ir molekulalarning kinetik energiyalari ham bir xil,

$$m_e \vartheta_e^2 = m_0 \vartheta_0^2 \quad (1)$$

ya'ni, yengil molekulaning o'rtacha tezligi og'ir molekulanikidan kattaroq,

$$\vartheta_e = \vartheta_0 \left(\frac{m_0}{m_e} \right)^{1/2} \quad (2)$$


g'ovak to'siq orqali o'tuvchi ikkita gaz aralashmalarining ideal ajratish koeffitsiyenti:

$$\beta = \frac{\vartheta_e}{\vartheta_0} = \left(\frac{m_0}{m_e} \right)^{1/2} \approx 1 + \Delta m / 2m_e \quad (3)$$

Δm –og'ir va yengil molekulalar massalari farqi. Geksoftorid uran $^{235}\text{UF}_6$ va $^{238}\text{UF}_6$ uchun massalar farqi mos ravishda $m_e = 349$, $m_0 = 352$ va ajratish koeffitsiyenti hamda boyitilishi quyidagiga teng: $\beta = 0,043$; $A = 1 + \beta$, $A = 1 + 0,043$, $A_0 = 0,043\% = 4,3\%$. Gaz diffuziya usuli uran izotoplarini ajratish va boyitishning asosiy usuli hisoblanadi [3].

Bundan tashqari uranni izotop boyitilishining lazer usuli ham mavjud bo'lib bu usul ikki ko'rinishda ro'y berishi aniqlangan [3]. Birinchi ishchi jism-uranning atomar bug'i, ikkinchi-ishchi jism-molekulyar gaz ko'rinishidagi geksaftorid uran UF_6 dan iborat. Atomar ajratish lazer nuri yordamida ^{235}U atomlarining tanlab uyg'onishiga asoslangan. So'ngra uyg'ongan atomlar lazer nuri bilan nurlantirilib tanlab ionlashadi va elektromagnit usuli bilan ^{238}U atomlari elektr neytral ko'rinishda uyg'onmagan birikmadan ajratib olinadi. ^{238}U va ^{235}U izotoplarini molekulyar ajratish $^{235}\text{UF}_6$ (geksoftorid uran) molekulalarini selektiv uyg'onishiga asoslangan. Jarayonning birinchi bosqichida $^{235}\text{UF}_6$ molekulalari lazer nuri yordamida selektiv uyg'onadi, ikkinchi bosqichda esa $^{235}\text{UF}_6$ ning uyg'ongan molekulalari lazer nurlanishi ta'sirida selektiv dissotsiatsiyanadi va $^{235}\text{UF}_6$ qattiq kukunini hosil qiladi.

Har xil kimyoviy birikmalarda izotoplarning turli mustahkamligiga asoslangan kimyoviy boyitish usuli ham mavjud. Kimyoviy usulda bitta elementning ikkita har xil kimyoviy birikmalari o'rtasida izotop almashinuv yuz beradi. Alohida izotoplar har holda mustahkamroq birikmalarda to'planadi. Bunga tabiiy borning ^{10}B izotopi bilan boyitilishi misol bo'la oladi. Tabiiy bor-20% ^{10}B izotopidan va 80% ^{11}B izotopidan iborat. Ammo bu izotoplarning issiq neytronlarni qamrash kesimi bir-biridan keskin farq qiladi: ^{11}B izotopi uchun qamrash kesimi 0,005 barn, ^{10}B izotopi uchun esa 3837 barn. Shuning uchun ham yadro reaktorlarini boshqarishda foydalaniladigan borni ^{10}B izotopi bilan boyitish maqsadga muvofiq. BF_3 birikmasini dimetilefirat triflorid bor- $\text{BF}_3\text{O}(\text{H}_3)_2$ bilan aralashganda organik birikmada ^{10}B to'planishi bilan izotop almashinuvi sodir bo'ladi [4]:



Turli valentli uran birikmalarida ham xuddi shunday izotop almashinuv reaksiyasini hosil qilish mumkin. Magnit maydonida ionlar maydon kuch chiziqlari bo'ylab spiral bo'yicha harakatlanadi. ^{235}U va ^{238}U ionlari ma'lum radiusli orbita bo'ylab harakatlanishi natijasida fazoviy ajraladi. Bu esa ^{235}U va ^{238}U izotoplarini alohida-alohida to'plash imkoniyatini beradi. Umumiy izotoplarni boyitish texnologiyasining

sifati asosan ikkita parametrlar bilan baholanadi: effektivlik va energiya sig'imi. Boyituvchi texnologiyaning effektivligi jarayonning birinchi bosqichida birikmada zarur izotopning miqdorini oshirish qobiliyatidir. Boyituvchi texnologiyaning energiya sig'imi esa bir marta ajratish uchun sarflangan elektr energiyasi bilan aniqlanadi.

Biz bu ishda izotoplarni bir-biridan ajratishning matematik usullaridan va tenglamalaridan foydalanamiz. Buning uchun uran ^{235}U izotopini boyitishning prinsipial sxemasini qaraymiz.

Uran misolida dastlabki material massasini M va boyitilishini $C_M(^{235}\text{U})$ deb belgilaymiz. Ajratuvchi bosqich tizimidan so'ng ikkita yangi materialni hosil qilamiz. N miqdorli boyitilganligi $C_N(^{235}\text{U})$ bo'lgan uran va K miqdorli boyitilganligi $C_K(^{235}\text{U})$ bo'lgan birlashgan uran. Uran izotoplarini ajratishning matematik tenglamasini yozamiz: Asosi $M - C_M(^{235}\text{U})$

→Ajratuvchi bosqichlar tizimi

→Birlashgan uran- K (xom ashyo), $C_K(^{235}\text{U})$ to'plam;

→Boyitilgan uran- N (mahsulot), $C_N(^{235}\text{U})$ →yadro yoqilg'isi. Bu tizimlarni ikkita yadro materialini hisobga olgan matematik tenglama bilan ifodalash mumkin:

1) Uranning massa balansi→ $M = N + K$

2) ^{235}U izotopining massa balansi→

$$C_M \cdot M = C_N \cdot N + C_K \cdot K \quad (4)$$

ko'rinishda yozish mumkin va natijada uchta noma'lumdan (M, N, K) iborat ikkita tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz. Bu tenglamalar sistemalarini N ga bo'lib ikkita noma'lumdan $(\frac{M}{N}$ va $\frac{K}{N})$ iborat tenglamalar sistemasini hosil qilish mumkin.

$$\left. \begin{aligned} 1) \quad \frac{M}{N} &= 1 + \frac{K}{N} \\ 2) \quad C_M \cdot \frac{M}{N} &= C_N + C_K \cdot \frac{K}{N} \end{aligned} \right\} \quad (5)$$

bu tenglamalar sistemasini yechib quyidagi koeffitsiyentlarni hosil qilamiz:

a) birlik mahsulotda tabiiy uran sarfi:

$$\frac{M}{N} = \frac{C_N - C_K}{C_M - C_K} \quad (6)$$

b) birlik mahsulotda birlashgan uran hosil bo'lishi,

$$\frac{K}{N} = \frac{C_N - C_M}{C_M - C_K} \quad (7)$$

Umumiy holda (6) va (7) tenglamalarni quyidagicha yozamiz:

$$\left. \begin{aligned} \frac{M}{N} &= \frac{C_N(^{235}\text{U}) - C_K(^{235}\text{U})}{C_M(^{235}\text{U}) - C_K(^{235}\text{U})} \\ \frac{K}{N} &= \frac{C_N(^{235}\text{U}) - C_M(^{235}\text{U})}{C_M(^{235}\text{U}) - C_K(^{235}\text{U})} \end{aligned} \right\} \quad (7)$$

v) tabiiy uranning bo'linish oqimi-F

$M = N + K = F \cdot M + (1 - F) \cdot M$, bundan

$$F = \frac{N}{M} = \frac{C_M(^{235}\text{U}) - C_K(^{235}\text{U})}{C_N(^{235}\text{U}) - C_K(^{235}\text{U})} \quad (8)$$

(8) ifoda tabiiy uranning bo'linish oqimini xarakterlaydi.

1) Boyitilish jarayonni xarakteristikasi sifatida bir bosqichli ajratishda birikish yoki boyitilishni xarakterlovchi ajratish koeffitsiyentidan foydalaniladi:

2) Boyitilgan qoldiq bo'yicha ajratish koeffitsiyenti

$$\beta = \frac{D}{D} = \frac{C_N / (1 - C_N(^{235}\text{U}))}{C_M(^{235}\text{U}) / (1 - C_M(^{235}\text{U}))} \quad (9)$$

g) birlashgan qoldiq bo'yicha ajratish koeffitsiyenti;

$$\gamma = \frac{D'}{D''} = \frac{C_M(^{235}\text{U}) / (1 - C_M(^{235}\text{U}))}{C_K(^{235}\text{U}) / (1 - C_K(^{235}\text{U}))} \quad (10)$$

Boyitilish koeffitsiyenti:

$$A = \beta - 1 \quad (11)$$

birlashish koeffitsiyenti:

$$A' = \gamma - 1 \quad (12)$$

bir bosqichda to'liq boyitilish koeffitsiyenti:

$$A_0 = A + A' \quad (13)$$

Yuqorida (9) va (10) tenglamlarni hisobga olsak, to'liq boyitilish koeffitsiyenti uran-235 izotopi uchun turli qiymatlarni qabul qiladi.

Masalan: $A_0 = 0,02(2\%)$, $A_0 = 0,04(4\%)$ va hokazo.

Demak dastlabki uran izotopini M va ajratilgan, boyitilgan uran miqdori N va birlashgan uran miqdorlari K ni aniqlab (7-10) formulalar yordamida ^{235}U izotopini boyitilish darajasini aniqlash mumkin.

Ko'plab yadroviy reaktorlarda, jumladan VVER-1000, RBMK-1000 energetik reaktorlarda (2-4) % boyitilgan uran-235 izotopi qo'llaniladi va bu boyitilish darajasi issiq reaktorlarda zanjir reaksiyasini borishini ta'minlaydi.

XULOSA. Biz [5-6] maqolalarda energetik reaktorlarning (3-5) % boyitilgan $^{235}_{92}\text{UO}_2$ -uran oksidida ishlashini aytgan edik. Mazkur ishda uran-235 izotopining boyitilish darajasi [7] da kimyoviy reaksiyalar natijasida hosil qilingan qiymatlariga karralidir.

Shunday qilib yuqorida keltirilgan matematik tenglamalardan foydalanib ^{235}U izotopini yuqori aniqlikda bir bosqichli boyitish koeffitsiyentini aniqlash mumkin. Olingan natijalar boshqa ko'plab usullar yordamida olingan qiymatlarga to'liq mos keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Бекман И.Н. Ядерная физика. Учебное пособие, Москва, МГУ, 2010, 520 с.
2. Дяченко А.Н., Петлик И.В. Передерин А.Т. Введение в технологию ядерного топлива. Учебное пособие. Издательство Томского политехнического университета, 2023, 160 с.
3. АПСЭ В.А., Хмелев А.Н. Ядерные технологии, учебная пособия, Москва, 2008, 127 с.
4. Громов Б.В. Введение в химическую технологию урана / Б.В. Громов.-Москва: Атомиздат, 2008,-336 с.
5. Eshbo'riyev Rashid Majidovich, Abdusamadova Dilfuza Iskandar qizi, Sharipov Dilshod Elmurod o'g'li, Fayzullayeva Mukarram Lutfullo qizi. Yadro energiyasini hosil qilish muammolari. Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti. 6-son. 2025-yil. 159-164 betlar.
6. D.I. Abdusamadova, R.M. Eshburiyev, M. Fayzullaeva, D. Sharipov. The Advantages Of Nuclear Energy Over Other Energy Sources. Texas Journal of Engineering and Technology ISSN NO: 2770-4491 <https://zienjournals.com> May 2025. Peer Reviewed International Journal Volume 44. 8-12 pages.
7. Rashid Eshbo'riyev, Muhayyo Ubaydullaeva, Mukarram Fayzullaeva, Dilfuza Abdusamadova. Investigation of nuclear fuel characteristics based on uranium isotopes. ISSN: 2776-0979, Volume 6, Issue 10, October- 2025. Web of scientist: international scientific research journal. 28-38 pages.

**KUBIK SIMMETRIYALI KRISTALLARINING AKUSTIK XOSSALARI
ANIZOTROPIYASI VA RELAKSATSIYA VAQTLARI**

Axmedjanov Farxad Rashidovich,

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti*

akhmedzhanov.f@gmail.com

Maharov Nodir Mamadiyor o‘g‘li,

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti*

maxarovnodir217@gmail.com

Avdievich Vladimir Nikolaevich,

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti*

avdievich@iplt.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada kubik simmetriyaga ega bo‘lgan KBr, NaBr, NaCl va MgO kristallarining akustik xossalari keng ko‘lamda eksperimental ravishda tadqiq etilgan. Tadqiqotda impulsli interferensiya usuli qo‘llanilib [100], [110] va [111] kristolografik yo‘nalishlar bo‘ylab bo‘ylama va ko‘ndalang akustik to‘lqinlarning tarqalish tezliklari hamda ularning so‘nish ko‘effitsiyentlari yuqori aniqlik bilan o‘lchangan. Olingan natijalar asosida kristallarning haqiqiy va mavhum elastiklik konstantalari aniqlanib Akheizer mexanizmi asosida akustik fononlarning relaksatsiya vaqtlariga baho berilgan. Shuningdek, MgO kristallida so‘nish ko‘effitsiyentining temperaturaga bog‘liqligi o‘rganilib issiqlik ta‘sirida akustik xossalarning o‘zgarish tendensiyasi aniq ko‘rsatilgan. Ushbu tadqiqot natijalari kubik galogenid kristallarining akustik, termoe elastik va akustooptik qurilmalarda qo‘llanilishi uchun asos yaratadi hamda materiallarning anizotrop elastik xatti xarakterlarini chuqur tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: kubik kristallar, Impulsli interferensiya, anizotropiya, akustik to‘lqin, qutblanish vektori, to‘lqin vektori, so‘nish ko‘effitsiyenti, elastik doimiy, to‘lqin tezligi.

**АНИЗОТРОПИЯ И ВРЕМЕНА РЕЛАКСАЦИИ АКУСТИЧЕСКИХ СВОЙСТВ
КУБИЧЕСКИХ СИММЕТРИЧНЫХ КРИСТАЛЛОВ**

Аннотация. В данной статье проведено обширное экспериментальное исследование акустических свойств кубических кристаллов KBr, NaBr, NaCl и MgO. В ходе исследования с использованием метода импульсной интерференции с высокой точностью измерены скорости распространения продольных и поперечных акустических волн вдоль кристаллографических направлений [100], [110] и [111], а также их коэффициенты затухания. На основании полученных результатов определены действительные и абстрактные упругие постоянные кристаллов, а также оценены времена релаксации акустических фононов на основе механизма Ахейзера. Также изучена температурная зависимость коэффициента затухания в кристаллах MgO и наглядно показана тенденция к изменению акустических свойств под воздействием тепла. Результаты данного исследования создают основу для применения кубических галогенидных кристаллов в акустических, термоупругих и акустооптических устройствах и способствуют более глубокому пониманию анизотропного упругого поведения материалов.

Ключевые слова: кубические кристаллы; импульсная интерференция; анизотропия; акустическая волна; вектор поляризации; волновой вектор; коэффициент затухания; упругая постоянная; скорость волны.

**ANISOTROPY AND RELAXATION TIMES OF ACOUSTIC PROPERTIES OF CUBIC
SYMMETRICAL CRYSTALS**

Abstract. In this article, the acoustic properties of cubic symmetry KBr, NaBr, NaCl, and MgO crystals have been extensively experimentally investigated. In the study, the propagation velocities of longitudinal and transverse acoustic waves along the [100], [110], and [111] crystallographic directions

and their extinction coefficients were measured with high accuracy using the pulsed interference method. Based on the results obtained, the real and abstract elastic constants of the crystals were determined, and the relaxation times of acoustic phonons were estimated based on the Akheizer mechanism. Also, the temperature dependence of the extinction coefficient in MgO crystals was studied, and the tendency of the acoustic properties to change under the influence of heat was clearly shown. The results of this study create a basis for the application of cubic halide crystals in acoustic, thermoelastic, and acousto-optic devices, and contribute to a deeper understanding of the anisotropic elastic behavior of materials.


Keywords: cubic crystals; pulse interference; anisotropy; acoustic wave; polarization vector; wave vector; attenuation coefficient; elastic constant; wave velocity.

Kirish. Kubik simmetriyalı galogenid kristallari jumladan KBr NaBr NaCl va MgO Fm3m simmetriyaning kubik nuqta guruhiga kiradi va ko'plab fizik xususiyatlarda izotropdir. Biroq, elastiklik xususiyatlariga ko'ra, bu kristallar anizotropikdir va ularni akustik va akusto-optik qurilmalarda qo'llash akustik to'lqinlarning tarqalish tezligi va zaiflashuv koeffitsienti kabi muhim xususiyatlarning orientatsiya bog'liqligini bilishni talab qiladi [1-3]. Ushbu qurilmalarda ishlaydigan muhit ko'pincha ko'rinadigan va infraqizil elektromagnit to'lqinlarda yuqori elastik va fotoelastik konstantalarga ega bo'lgan Magniy oksidi kabi galogenid gidroksidi kristallari ishlatiladi [1-4].

Tarqalish tezligi va ulardagi so'nish koeffitsienti past ultratovush chastotalari diapazonida yetarli darajada batafsil o'rganilgan, bunda so'nish Axiezer mexanizmi [5-7] bo'yicha kvadratik qonun bo'yicha chastotaga bog'liq. Shu bilan birga, yuqori chastotalarda bunday tadqiqotlar deyarli yo'q, chunki ulardan foydalanishni cheklovchi asosiy omil zaiflashuv koeffitsientining katta qiymati hisoblanadi. Shu munosabat bilan ushbu ishda ishqor galogenid kristallarining gomologik qatoridagi uzunlamasına va ko'ndalang akustik to'lqinlarning tarqalish tezligi, samarali elastik konstantalari va susaytirish koeffitsienti ultratovush usullari yordamida o'rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi. KBr, NaBr va NaCl kristallari klassik NaCl-tipi panjara tuzilmasiga ega bo'lib, bu tuzilma kubik simmetriyaning Fm3m fazoviy guruhiga kiradi. Magniy oksidi (MgO) kristali ham shu turdagi tuzilmani namoyon qiladi va o'xshash fazoviy guruhga mansub hisoblanadi. Bunday kristallarning simmetriya xususiyatlari ularning elastik va akustik xossalari izchil o'rganish imkonini beradi chunki kristall panjarasining yuqori darajadagi simmetriyasi fizik kattaliklarning aniq yo'nalishlarda o'lchanishini soddalashtirish imkonini beradi. Kristallar namunalari shakli kubik prizma bo'lib, kubning qirralari taxminan 15 mm ni tashkil etadi. Namunalarning yuzalari kristallofizik o'qlar [100], [010] va [001] yo'nalishida yo'naltirilgan bo'lib. Bunday yo'naltirish barcha to'lqin turlari bo'yicha o'lchovlarni bir xil namunalar asosida amalga oshirishga imkon beradi. Bu esa, har xil namunalar o'rtasidagi o'qlar orientatsiyasi farqlari, strukturaviy nuqsonlar kabi turli omillarning eksperimental natijalarga ta'sirini kamroq bo'lishiga yordam beradi.

Biz akustik to'lqinlarning tezligini va so'nish koeffitsiyentini aniqlash uchun Impulsli interferensiya usulidan foydalanganmiz[9]. Ushbu usulning mohiyati shundaki unda tadqiq qilinayotgan namunadan turlicha yo'l bosib otgan akustik to'lqinlarning fazalar farqi taqqoslanadi. Past chastotali o'lchov tizimining asosiy qismlaridan biri **amplituda selektori** bo'lib, u faqat ma'lum vaqt oralig'ida ochiladi. Mazkur vaqt oralig'i signalning kerakli qismigina o'tishiga imkon beradi. Quyidagi rasmdan Impulsli interferensiya usulining blok sxemasi keltirilgan.



1-rasm. Akustik o'lchov tizimining blok-sxemasi [10]

Sxemada quyidagi qurilmalardan foydalanilgan: yuqori chastotali elektromagnit tebranishlar generatori, strob kuchaytirgich, qabul qiluvchi (detektor), va ikkita impuls ketma-ketligining bir-biriga nisbatan kechikishini 0.01 mikrosekundgacha aniqlikda ta'minlay oluvchi impulsli signal generatorlari va kechikish generatoridan tashkil topgan diskret kechikish tizimi. Namunaga yuboriluvchi radioimpulsni yaratish uchun maxsus kuchaytirgich – rezonansli strob kuchaytirgich ishlatiladi. Bu kuchaytirgich hosil qilgan radioimpuls namunaga ulangan pyezodatchikka yuboriladi. Pyezodatchikda quyidagi bosqichlar bajariladi: radioimpulsni tovush (elastik) impulsga aylantiradi; namunaning qarama qarshi tomonidan qaytgan tovush impulsini yana radioimpulslarga aylantirib qabul qiladi. Qabul qilgichda hosil bo'lgan sekin-asta so'nuvchi radio-ehoimpuls ketma-ketligi amplituda bo'yicha kuchaytiriladi. Bu yerda qabul qilgich sifatida kuchaytirish darajasi 100 dB gacha sozlanadigan maxsus rezonansli kuchaytirgich qo'llaniladi. Kuchaytirgich tarkibidagi amplitudaviy detektor radioimpuls ketma-ketligini mos keluvchi videoimpuls ketma-ketligiga aylantiradi. Kuchaytirgich kirishidagi attenyuator (signalni zaiflashtiruvchi qurilma) va kuchaytirish darajasining sozlanishi yordamida kuchaytirgichning chiziqli rejimi (ya'ni, signalni buzmasdan kuchaytirish) taminlanadi. Qabul qilgichdan kelgan impuls yuboriladigan amplitudaviy selektor orqali impuls ketma-ketligidan keraklisini tanlab olish mumkin. Tanlangan impulsning amplitudasini voltmeter yordamida o'lchash amalga oshiriladi. Qo'shni ikkita impuls amplitudalari — A_1 va A_2 , hamda namuna uzunligi L bo'yicha akustik to'lqinlarning so'nish koeffitsiyenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi [11].

$$\alpha = \frac{20 \lg \left(\frac{A_k}{A_n} \right)}{2L(k - n)} \quad (1)$$

Bu yerda L — namunani uzunligi. So'nish koeffitsientini aniqlash aniqligi esa taxminan 5 % ni tashkil etadi. Bunday aniqlikka erishish uchun impuls amplitudalari bir necha marta o'lchandi va olingan natijalar keyinchalik o'rtacha qiymatlarga keltiriladi qilindi.

Generatorning uzluksiz tebranish chastotasi o'zgartirilganda kuzatiladigan interferensiya minimumlari yoki impuls amplitudasining maksimumlari yordamida namunadagi akustik to'lqin tezligi V quyidagi munosabat asosida aniqlanadi [9]:

$$V = 2L \cdot \Delta \nu \quad (2)$$

Bu yerda $\Delta \nu$ — yuqori chastotali generatorning qarama-qarshi fazali interferensiyaga mos keluvchi ikki qo'shni chastotalar farqi. Ushbu chastotalar raqamli chastotomer yordamida o'lchangan bo'lib, u chastotalar farqini ± 10 Gts aniqlik bilan aniqlash imkonini beradi. Akustik to'lqin tezligini aniqlashdagi umumiy aniqlik esa namuna uzunligini o'lchashdagi aniqlik bilan chegaralangan va taxminan 0,01 % ni tashkil etgan.

Shuningdek ushbu ishda Akustik fononlarning relaksatsiya vaqtlari ham aniqlangan. Relaksatsiya vaqtlarini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanilgan[12]:

$$\tau = \frac{3c''_{eff}}{\gamma^2 C_V T \omega} \quad (3)$$


Bu yerda c''_{eff} -kristallarning mavhum elastiklik koeffitsiyenti, γ - grunayzen parametri, C_V - kristallarning hajmiy issiqlik sig'imi, T - temperaturaning kelvin qiymati, ω - akustik tolqin chastotasi.

Natijalar va muhokama. [100], [110] kristallografik yo'nalishlar bo'ylab bo'ylama va ko'ndalang akustik to'lqinlarning so'nish koeffitsientlarini aniqlash natijalari hamda tadqiq qilingan kristallar uchun hisoblangan haqiqiy va mavxum samarali elastiklik konstantalari qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan. Akustik to'lqinlarning tezlik qiymatlari esa adabiyotdagi ma'lumotlar bilan yaxshi mos kelgani sababli ular 1-jadvalda keltirilmagan.

q	η	c'_{eff} , $10^{10} \text{ N}\cdot\text{m}^{-2}$			α , $\text{dB}\cdot\mu\text{s}^{-1}$			c''_{eff} $10^7 \text{ N}\cdot\text{m}^{-2}$		
		KBr	NaBr	MgO	KBr	NaBr	MgO	KBr	NaBr	MgO
[100]	[100]	3.52	3.96	28.6	38	25	4.34	4.82	3.7	4.56
	[001]	0.51	0.99	14.8	6.0	3.1	0.60	0.11	0.11	0.33
[110]	[110]	2.55	3.49	33.4	28	17	1.90	2.81	2.01	2.33
	[110]	1.48	1.47	9.95	40	34	7.01	2.12	1.79	2.56
	[001]	0.51	0.99	14.8	6.0	3.1	0.60	0.11	0.11	0.33
[111]	[111]	2.22	3.33	35.06	26.4	11.9	1.23	2.14	1.45	1.59
	[110]	1.15	1.31	11.56	34.8	25.6	4.26	1.45	1.23	1.81

1-jadval KBr, NaBr va RbBr kristallarida akustik to'lqinlarning so'nish koeffitsienti ($v = 1$ GGts da) hamda samarali haqiqiy va mrim elastiklik konstantalar qiymatlari

O'rganilgan barcha kristallar uchun elastiklik tenzori haqiqiy va mavhum qismlaring uchta mustaqil komponentalari barcha kristallografik yo'nalishlar bo'yicha o'lchangan bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlarning tezligi va so'nish koeffitsiyentlaridan aniqlangan. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida KBr kristali uchun akustik to'lqinlarning polyar diagrammadagi grafiklari quyidagi ko'rinishda bo'ladi.



2-rasm. Kaliy brom kristallaridagi akustik to'lqin tarqalish tezligi sirtlarining (100) tekislik bo'yicha ko'rinishi: 1 - kvazi-bo'ylama, 2 - kvazi-ko'ndalang, 3 - sof ko'ndalang akustik to'lqinlar

1-jadvaldagi malumotlar asosida aniqlangan akustik fononlarning relaksatsiya vaqtlari va grunayzen parametrlarining qiymatlari 2- jadvalda keltirilgan. Fonon relaksatsiya vaqtlarini aniqlashda 3- formuladan foydalanilgan.


q	η	γ_{eff}				$\tau \cdot 10^{-12} \text{ s}$			
		KBr	NaBr	NaCl	MgO	KBr	NaBr	NaCl	MgO
[100]	[100]	2.60	2.1	2.50	2.58	9.5	9	4.15	3.48
	[001]	0.48	0.44	0.51	0.69	6.35	6.15	2.81	3.5

[110]	[110]	2.32	1.94	1.78	1.69	6.94	5.78	4.15	4.1
	[110]	2.47	1.67	2.28	1.77	4.62	6.95	2.64	4.15
	[001]	0.56	0.48	0.53	0.63	4.66	5.17	2.6	4.22
[111]	[111]	2.51	1.63	1.48	1.38	4.52	5.9	4.3	4.24
	[110]	2.17	1.86	1.94	1.48	4.1	3.54	2.26	4.2

2-jadval KBr, NaBr, NaCl va MgO kristallari uchun grunayzen parametri va relaksatsiya vaqtlari

2- jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, KBr, NaBr, NaCl va MgO kristallaridagi akustik fononlarning turli yo'nalishlarda va qutublanishlarda tarqalish vaqtida yuzaga keladigan angarmoniklik va relaksatsiya vaqtlari keltirilgan. [100] yo'nalish bo'yicha grunayzen parametri boshqa yonalishlarga nisbatan katta qiymatlarga ega bu ushbu yo'nalishda panjara atomlarining angarmoniklik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. E'tibor qilsak shu yo'nalishda fononlarning relaksatsiya vaqtlari ham katta bu fononlarning uzoq yashashini va akustik to'lqinlarning so'nishi sekin kechishini bildiradi. Shuningdek biz MgO Kubik simmetriyali kristallarida Akustik to'lqinlarning so'nish koeffitsiyentining temperaturaga bog'liqligi o'rganilgan va olingan natijalar grafik ko'rinishida keltirilgan.

MgO kristallari uchun so'nish koeffitsiyentining temperaturaga bog'liqligi hona haroratidan 170°C gacha o'lchandi. Grafikda ko'k rangli nuqtalar o'lchov natijalarini ko'rsatadiva ko'rishimiz mumkinki akustik to'lqinlarning so'nish koeffitsiyenti temperatura ortishi bilan chiziqli ortadi bunga sabab esa kristal panjara atomlarining issiqlik natijasida tebranishi va fonon harakatiga qarshiligining ortishi hisoblanadi.



3- rasm MgO kristalining [110] yo'nalish bo'yicha akustik to'lqinlari so'nish koeffitsiyentining temperaturaga bog'liqligi

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kristall panjarasining simmetriyasi yuqori bo'lishiga qaramay, elastik xossalar sezilarli darajada anizotrop bo'lib, akustik to'lqinlarning tezligi va yo'qolish koeffitsiyenti kristallografik yo'nalishga kuchli bog'liqdir. Grunayzen parametrlari va relaksatsiya vaqtlarining qiymatlari fononlarning angarmon harakatini chuqur tushunish imkonini berdi. Xususan, [100] yo'nalishida relaksatsiya vaqtlarining yuqori bo'lishi ushbu yo'nalishda fononlarning uzoq umrli ekanini ko'rsatadi. MgO kristallida o'tkazilgan temperatura tajribalari esa so'nish koeffitsiyentining harorat oshishi bilan deyarli chiziqli ortishini tasdiqladi. Bu hodisa issiqlik tebranishlarining kuchayishi va fononlarning o'zaro to'qnashuv chastotasining ortishi bilan izohlanadi. Olingan natijalar kubik galogenid kristallarining akusto-optik, akustik, termoelastik va yuqori aniqlik talab qilinadigan sensor qurilmalarda qo'llanishi uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Bundan tashqari, materiallarning anizotrop elastik xatti-harakatlarini chuqurroq tushunishga, fonon kinetikasini baholashga va akustik qurilmalar parametrlarini optimallashtirishga xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. D. Royer, E. Dieulesaint. *Elastic Waves in Solids II /Generation/Acousto-optic Interaction/Applications.* (Verlag Berlin Heidelberg, Springer, 2000), p. 474.
2. R.E. Newnham. *Properties of Materials /Anisotropy/Symmetry/Structure.* (New York, Oxford University Press, 2005), p. 378.
3. Ф.Р. Ахмеджанов, Ж.О. Курбанов, Н.М. Махаров. *Затухание акустических волн в кубических кристаллах фторида лития. Доклады АН РУз. Вып. 5. 2021, С. 11-15.*
4. *Акустические кристаллы. Справочник /Под ред. М. П. Шаскольской. – М. Наука, 1982, 632 с.*
5. Akhiezer A. About Sound Absorption in Solids, *J. of Experimental and Theoretical Physics (SU).* - Moscow, 1938. - No 8, - P. 1318-1329.
6. R. Nava, M. P. Vecchi, J. Romero and B. Fernandez. Akhiezer damping and the thermal conductivity of pure and impure dielectrics. *Phys. Rev. B. Vol. 14, No 2. 1975, P. 800-807.*
7. Логачев Ю. А., Мойжес Б. Я. *К теории поглощения звука по Ахиезеру. – ФТТ. - Санкт-Петербург, 1974, - Т. 16. - № 8, - С. 2219-2223.*
8. R.E. Newnham. *Properties of Materials /Anisotropy/Symmetry/Structure.* (New York, Oxford University Press, 2005), p. 378.
9. F.R. Akhmedzhanov, J.O. Kurbanov, A.F. Boltabaev, Attenuation of acoustic waves in single-domain and polydomain LiTaO₃ crystals, *Sensors & Transducers* 246, No.7, 2020. P. 43-47.
10. Ахмеджанов Ф.Р., Азаматов З.Т., Болтабаев А.Ф., Саидвалиев У.А., Хусаинов И. *Устройство для прецизионного определения скорости акустических волн в материалах. Патент, № FAP 01545 (28.09.2020)*
11. Труэлл Р., Эльбаум Ч., Чик Б. *Ультразвуковые методы в физике твердого тела. - М.: Мир, 1972. - 307 с.*
12. Y. Liao, T. Shiga, M. Kashiwagi & J. Shiomi, Akhiezer mechanism limits coherent heat conduction in phononic crystals, **Phys. Rev. B** 98, 134307 (2018).

THERMAL STABILITY OF ELECTRICAL PARAMETERS OF SILICON WITH NANOCLUSTERS OF MANGANESE ATOMS

Mavlonov Giyosiddin Haydarovich,

Tashkent State Technical University, University St., 2, 100095, Tashkent, Uzbekistan

Uralbaev Khurshid,

Tashkent State Technical University, University St., 2, 100095, Tashkent, Uzbekistan

xurshiduz5427@gmail.com

Tachilin Stanislav Anatolevich,

Tashkent State Technical University, University St., 2, 100095, Tashkent, Uzbekistan

Isakov Bobir Olimjonovich,

Tashkent State Technical University, University St., 2, 100095, Tashkent, Uzbekistan

Ibodullaev Shohboz Nizom ugli.

Tashkent State Technical University, University St., 2, 100095, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. A comprehensive study of the relative change of resistivity from temperature and annealing time in $p\text{-Si}\langle B, Mn \rangle$ samples with different concentrations of manganese atoms nanoclusters has been carried out. It was found that with increasing concentration of nanoclusters of manganese atoms, the thermal stability of $p\text{-Si}\langle B, Mn \rangle$ samples significantly improves, where at the concentration of nanoclusters $N=10^{15} \text{ cm}^{-3}$ up to the annealing temperature $T=125^\circ\text{C}$ decay is practically not observed, that is, the samples retain their initial electro physical parameters, NMR and the value of impurity photoconductivity

Keywords: semiconductor, silicon, nanocluster, manganese, boron, negative magneto resistance.

MARGANETS ATOMLARI BILAN LEGIRLANGAN KREMNIY NANOKLASTERLARI ELEKTR PARAMETRLARINING ISSIQLIK BARQARORLIGI

Annotatsiya. Marganets atomi nanoklasterlarining turli konsentratsiyalariga ega $p\text{-Si}\langle B, Mn \rangle$ namunalarida qarshilikning tovlash harorati va vaqti bilan nisbiy o'zgarishini o'rganish uchun keng qamrovli tadqiqot o'tkazildi. Marganets atomi nanoklasterlari konsentratsiyasining ortishi bilan $p\text{-Si}\langle B, Mn \rangle$ namunalarining issiqlik barqarorligi sezilarli darajada yaxshilanishi aniqlandi. $N=10^{15} \text{ cm}^{-3}$ nanoklaster konsentratsiyalarida va $T=125^\circ\text{C}$ tovlash haroratida deyarli parchalanish kuzatilmaydi, bu namunalar boshlang'ich elektrofizik parametrlarini, MMQ va kirishma fotoo'tkazuvchanligini saqlab qolishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: yarimo'tkazgich, kremniy, nanoklaster, marganets, bor, manfiy magnit qarshilik.

ТЕРМИЧЕСКАЯ СТАБИЛЬНОСТЬ ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ КРЕМНИЯ С НАНОКЛАСТЕРАМИ АТОМОВ МАРГАНЦА

Аннотация. Проведены комплексные исследования относительного изменения удельного сопротивления от температуры и времени отжига в образцах $p\text{-Si}\langle B, Mn \rangle$ с различной концентрацией нанокластеров атомов марганца. Установлено, что с ростом концентрации нанокластеров атомов марганца, существенно улучшается термостабильность образцов $p\text{-Si}\langle B, Mn \rangle$, где при концентрации нанокластеров $N=10^{15} \text{ см}^{-3}$ до температуры отжига $T=125^\circ\text{C}$ распад практически не наблюдается, то есть образцы сохраняют свои исходные электрофизические параметры, ОМС и величину примесной фотопроводимости.

Ключевые слова: полупроводник, кремний, наноклaster, марганец, бор, отрицательное магнетосопротивление.

Introduction. Unlike other semiconductor materials doped with paramagnetic impurity atoms [1-4], silicon with nanoclusters of manganese atoms is characterized by huge negative magnetoresistance (NMR) which is not conventional for other silicon-based materials. This anomalous huge NMR manifests itself at room temperature. Silicon with nanoclusters of manganese atoms is also characterized by high impurity photoconductivity in the region $\lambda=10\div 1.5 \text{ }\mu\text{m}$ [5, 6].

The thermal stability of electrical parameters of manganese-doped silicon samples without nanoclusters was studied in [7]. According to the results of this study, at annealing $T \geq 100$ °C for 30÷40 minutes the material properties tend to change significantly whereas at annealing duration $t = 1,5 \div 2$ hours a complete decay of parameters is observed, i.e. the material acquires its initial electrical parameters. It can be concluded that the compensation in boron- and manganese- doped silicon samples is thermally unstable. This can be explained by the change in the electronic state of manganese multi-atomic complexes in the silicon lattice or by disintegration of neutral boron-manganese complexes. How thermal annealing affects the state of manganese clusters and, consequently, the electrical properties of silicon with nanoclusters of manganese atoms is of great importance.

In [8-10], when studying the state of manganese atoms in silicon by electric paramagnetic resonance (EPR), it was shown that under certain doping conditions the manganese impurities forms nanoscale clusters consisting of four manganese atoms located in the nearest equivalent interstitial positions around the boron atoms in the silicon lattice.

Materials and methods. To ensure the process of formation of nanoclusters in silicon samples, *p*-type single-crystalline silicon with resistivity $\rho = 5 \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$ ($p = 4 \cdot 10^{15} \text{ cm}^{-3}$) was used as a starting material. Doping with manganese was carried out using a newly developed technology [1-3, 11]. The doping conditions were chosen so as to receive *p*-Si<B, Mn> samples with resistivity in the range of $6 \cdot 10^2 < \rho \leq 10^5 \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$ at $T = 20$ °C.

The electrical parameters of the samples (Table 1.) were measured on an Ecopia Hall Effect Measurement Systems HMS7000.

The *p*-Si<B, Mn> type samples with nanoclusters with resistivity $\rho \sim (6 \div 8) \cdot 10^3 \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$ exhibit anomalously large negative magnetoresistance (NMR), the value of which reaches more than $\frac{\Delta \rho}{\rho} \sim 100\%$ at room temperature, as well as very high subband (impurity) photoconductivity [2-4]. As the resistivity of the samples changes toward lower or higher values than $\rho \sim (6 \div 8) \cdot 10^3 \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$, the magnitude of NMR decreases. In overcompensated *n*-Si<B, Mn> samples, a small PMR is always observed regardless of their resistivity.

Results and discussion.

Table 1 - Electrical parameters of the samples

Diffusion method	Samples obtained	Type	$\rho, \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$	$\mu, \text{ cm}^2/\text{V} \cdot \text{s}$	$N_{n, p}, \text{ cm}^{-3}$	Type and value of magnetoresistance
By applying novel technology	Si<B, Mn> with nanoclusters	p	$7 \cdot 10^2$	98	$9,1 \cdot 10^{13}$	19 % NMR
	Si<B, Mn> with nanoclusters	p	$7,5 \cdot 10^3$	72	$1,15 \cdot 10^{13}$	100 % NMR
	Si<B, Mn> with nanoclusters	p	$2 \cdot 10^4$	128	$2,44 \cdot 10^{12}$	46 % NMR
	Si<B, Mn> with nanoclusters	p	$4,1 \cdot 10^4$	145	$1,05 \cdot 10^{12}$	33 % NMR
	Si<B, Mn> with nanoclusters	p	10^5	224	$2,79 \cdot 10^{11}$	10 % NMR
	Si control	p	5,18	365	$3,7 \cdot 10^{15}$	3-4 % PMR
By applying standard technology	Si<B, Mn> without nanoclusters	p	$6,8 \cdot 10^2$	245	$3,7 \cdot 10^{13}$	4 % PMR
	Si<B, Mn> without nanoclusters	p	$7,3 \cdot 10^3$	271	$3,15 \cdot 10^{12}$	6 % NMR
	Si<B, Mn> without nanoclusters	p	$4 \cdot 10^4$	214	$5,84 \cdot 10^{11}$	2 % PMR
	Si control	p	5,2	352	$3,41 \cdot 10^{15}$	3-4 % PMR

In the samples where the maximum NMR is observed, the hole mobility was significantly smaller than the hole mobility in materials with the same resistivity obtained by conventional high-temperature diffusion and in general was $\mu = 70\text{-}150 \text{ cm}^2/\text{V} \cdot \text{s}$ [1].

The obtained manganese-doped samples had *p*-type conductivity, no overcompensated *n*-type samples were observed.

According to calculations, in the samples $\rho \sim (7 \div 8) \cdot 10^3 \Omega \cdot \text{cm}$ the Fermi level is in the position $F = E_v + 0.38 \text{ eV}$, i.e. it is in the lower half of the band gap of silicon. This allows us to assert that in these samples the majority of manganese atoms is strongly ionized state and is most likely in the state Mn^{+2} , since according to [12], interstitial manganese atoms in silicon are donor impurities and create energy levels in the upper half of the band gap of silicon with ionization energy $E_1 = E_c - 0.27 \text{ eV}$ and $E_2 = E_c - 0.5 \text{ eV}$. Mn^{+2} ions. These ions, in turn, can form nanoscale charged complexes like BMn_4 .

The presence of such nanoclusters of manganese atoms in the studied samples was confirmed by the study of the state of manganese atoms by EPR method, and their high degree of ionization by AFM [11, 13].

The obtained samples at room temperature were characterized by large negative magnetoresistance up to 100%, as well as high impurity photoconductivity in the spectral region $\lambda = 10 \div 1.5 \mu\text{m}$ at temperature $T = -193^\circ\text{C}$, which is characteristic of samples with nanoclusters of manganese atoms [1-6].

Simultaneously, *p*-Si<B, Mn> samples doped with manganese using a typical standard high-temperature diffusion technique [7] with similar parameters but without nanoclusters were received on the basis of *p*-type silicon with $\rho = 5 \Omega \cdot \text{cm}$. The absence of nanoclusters in these samples was also confirmed by EPR.

Temperature annealing of samples was carried out stepwise in a vacuum tube furnace MG17-60/300 with high accuracy of temperature maintenance ($\pm 1^\circ\text{C}$) and annealing time $t = 30$ minutes (± 10 seconds). After each heat annealing step, the samples were chemically treated with 10% HF solution to remove the SiO_2 layer, while the electrical properties of the samples were investigated under identical conditions.

Fig. 1 shows the relative change in resistivity of the studied samples as a function of annealing time at $T = 100^\circ\text{C}$. As can be seen, the resistivity of the material in *p*-Si<B, Mn> samples with nanoclusters practically does not depend on the annealing time (curve 1). At the same time in *p*-Si<B, Mn> samples without nanoclusters (without formation of nanoclusters) the electrical parameters change significantly with increasing annealing time, at annealing $t = 300$ minutes, where there is almost a complete decomposition of complexes containing manganese atoms (curve 2). After complete decay in *p*-Si<B, Mn> samples with nanoclusters, the anomalously small value of hole mobility increase to the value $\mu = 360 \text{ cm}^2/\text{V} \cdot \text{s}$ as in the original sample.





Figure 1 - Relative change in resistivity of manganese-doped silicon samples from annealing time at $T = 100^\circ\text{C}$: 1- with nanoclusters, 2- without nanoclusters



**Figure 2 - Relative change in resistivity of p -Si<B, Mn> silicon samples with nanoclusters of manganese atoms at different annealing temperatures:
1- 100 °C, 2- 125 °C, 3- 140 °C, 4- 160 °C**

Shortly after we investigated p -Si<B, Mn> samples with nanoclusters to determine up to what temperature they maintain the stability of their electro physical parameters (Fig. 2). The results show that no decay is revealed in silicon samples with nanoclusters up to annealing temperature of 110 °C for a long time (7 days). With increasing temperature up to $T=125$ °C a noticeable decomposition starts at annealing time greater than 1 hour.

Thermal stability studies were also carried out on samples having different contents of manganese clusters. For this purpose, p -type Si samples doped with boron $\rho=10 \Omega \cdot \text{cm}$, $\rho=5 \Omega \cdot \text{cm}$ and $\rho=2 \Omega \cdot \text{cm}$ were used as a starting material [1]. Samples of p -Si<B, Mn> with different concentration of nanoclusters were fabricated by the technology similar to [2, 10] with the condition of obtaining samples with resistivity $\rho=(7 \div 8)10^3 \Omega \cdot \text{cm}$ at $T=27$ °C. Taking into account almost complete compensation of boron impurity in these samples by manganese, one could estimate the concentration of nanoclusters as: $N_{(\text{Mn})4}=2 \cdot 10^{14} \text{ cm}^{-3}$ (p -type Si doped with boron $\rho=10 \Omega \cdot \text{cm}$ starting material), $5 \cdot 10^{14} \text{ cm}^{-3}$ (p -type Si samples doped with boron $\rho=5 \Omega \cdot \text{cm}$ starting material), 10^{15} cm^{-3} (p -type Si samples doped with boron $\rho=2 \Omega \cdot \text{cm}$ starting material) [1].

The relative variation in resistivity with annealing time in p -Si<B, Mn> samples with different concentrations of manganese atom nanoclusters is shown in Fig. 3. As can be seen from Fig. 3, the thermal stability of p -Si<B, Mn> samples significantly improves with increasing concentration of manganese atom nanoclusters. In p -Si<B, Mn> samples with the concentration of nanoclusters $N=10^{15} \text{ cm}^{-3}$ at annealing temperature $T=125$ °C, the decay is practically not observed, i.e. the samples retain their electro physical parameters. The studies also showed that the NMR and the magnitude of impurity photoconductivity retained their pre-annealing values.




Figure 3 - Relative changes in resistivity of $p\text{-Si}\langle\text{B, Mn}\rangle$ samples with different concentrations of manganese atom nanoclusters at $T=125\text{ }^{\circ}\text{C}$

1) $N_{(\text{Mn})4}=2\cdot 10^{14}\text{ cm}^{-3}$, 2) $N_{(\text{Mn})4}=5\cdot 10^{14}\text{ cm}^{-3}$, 3) $N_{(\text{Mn})4}=10^{15}\text{ cm}^{-3}$

Conclusion. The above experimental results related to the study of changes in the properties of silicon with nanoclusters of manganese atoms in times of heat treatment allow us to determine the operating temperature range of photovoltaic and magnetic devices based on the material $p\text{-Si}\langle\text{B, Mn}\rangle$ with nanoclusters. Sufficiently high maximum operating temperatures ($T\geq 100\text{ }^{\circ}\text{C}$) allow us to use this material to for receiving a wide range of new electronic devices in the field of spintronics and optoelectronics, as well as various highly sensitive sensors of physical quantities [14] operating both at room temperature and at low temperatures.

REFERENCES:

1. Bakhadir Khanov M.K., Ayupov K.S., Mavlyanov G.H., Isamov S.B. Negative magnetoresistance in silicon with manganese-atom complexes $[\text{Mn}]_4$. // *Semiconductors*. -2010. -Vol.44. -No.9. -P.1145–1148. <https://doi.org/10.1134/S106378261009006X>
2. Bakhadir Khanov M.K., Isamov S.B., Zikrillayev N.F., Iliev Kh.M., Mavlonov G.H., Koveshnikov S.V., Ibodullaev Sh.N. Functional Capabilities of Silicon with Nanoclusters of Manganese Atoms. // *Surface Engineering and Applied Electrochemistry*. -2020. -Vol.60. -No.6. -P.734–739. (2020). <https://doi.org/10.3103/S1068375520060046>
3. Bakhadyrkhanov M.K., Mavlonov G.Kh., and Iliev Kh.M. Control of the Magnetic Properties of Silicon with Manganese Atom Nanoclusters. // *Technical Physics*. -2014. -Vol.59. -No.10. -P.1556–1558.
4. Bakhadyrkhanov M.K., Mavlonov G.H., Iliev X.M., Ayupov K.S., Sattorov O.E., Tachilin S.A. Specific features of magnetoresistance in overcompensated manganese-doped silicon. // *Semiconductors*. -2014. -Vol.48. -No.8. -P.986–988. <https://doi.org/10.1134/S106378261408003X>
5. Bakhadyrkhanov M.K., Ayupov K.S., Mavlyanov G.Kh., Iliev Kh.M., Isamov S.B. Photoconductivity of silicon with nanoclusters of manganese atoms. // *Russian Microelectronics*. -2014. -Vol.39. -No.6. -P.401–404. <https://doi.org/10.1134/S1063739710060041>
6. Bakhadyrkhanov M.K., Isamov S.B., Zikrillayev N.F. IR Photodetectors in the Range of $\lambda = 1.5\text{--}8\text{ }\mu\text{m}$, Based on Silicon with Multicharged Nanoclusters of Manganese Atoms. // *Russian Microelectronics*. -2012. -Vol.41. -No 6. -P.354–356. <https://doi.org/10.1134/S1063739712030043>
7. Bakhadyrkhanov M.K., Boltaks B.I., Kulikov G.S. Diffusion, solubility and electrical properties of manganese in silicon. // *FTT*. -1970. -No.14. -P.1671-1678.

8. Ludwig G.W., Woodbury H.H., Carlson R.O. Spin resonance of deep level impurities in germanium and silicon. // *Journal of Physics and Chemistry of Solids*. -1959. -V.8. -P.490. [https://doi.org/10.1016/0022-3697\(59\)90397-X](https://doi.org/10.1016/0022-3697(59)90397-X)
9. Fistul V.I., Kazakova V.M., Bobrovnikov Yu.A., Ryabtsev A.V., Abdurakhmanov K.P., Zainabidinov S., Kamilov T.S., Utamuradova Sh.B. // *SOV PHYS SEMICOND*. -1982. -Vol.16. -No.5. – P.603–605.
10. Kreissl J., Gehlhoff W. Electron Paramagnetic Resonance of the Mn₄ Cluster in Silicon. // *Physica status solidi*. -1988. -Vol.145. -No.2. –P.609–617. <https://doi.org/10.1002/pssb.2221450227>
11. Bakhadyrkhanov M.K., Mavlonov G.Kh., Isamov S.B., Iliyev Kh.M., Ayupov K.S., Saparniyazova Z.M., and Tachilin S.A. Transport Properties of Silicon Doped with Manganese via Low Temperature Diffusion. // *Inorganic Materials*. -2011. -Vol.47. -No.5 –P.479-483. <https://doi.org/10.1134/S0020168511050062>
12. Abdurakhmanov K.P., Lebedev A.A., Kreysl Y., Utamuradova Sh.B. Deep levels in silicon associated with manganese. // *FTP*. -1985. -Vol.19. -No.2. -P.213-216.
13. Bakhadyrkhanov M.K., Iliyev Kh.M., Mavlonov G.Kh., Ayupov K.S., Isamov S.B. and Tachilin S.A. Silicon with Magnetic Nanoclusters of Manganese Atoms as a New Ferromagnetic Material. // *Technical Physics*. -2019. -Vol.64. -No.3. -P.385–388. <https://doi.org/10.1134/S1063784219030046>
14. Ayupov K.S., Bakhadyrkhanov M.K., Iliyev Kh.M., Mavlonov G.Kh., Tachilin S.A. Multifunctional sensor of physical quantities based on silicon with nanostructures of manganese atoms. // *Pribore*. -2017. – No.4. –P.7-10.

DINAMIKANING ASOSIY MASALALARI: MODDIY NUQTANING DINAMIK HARAKAT QONUNLARINI ANIQLASH USULLARI

Qo'chqorova Farida Tuychi qizi,

QDTU Shahrisabz oziq ovqat muhandisligi fakulteti
faridaquchqorova16@gmail.com

Mannonova Malika Sarvar qizi,

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali katta o'qituvchisi
Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti (PhD)
mannonovamalika37@gmail.com

Kengboyev Sirojiddin Abrayvich,

Qarshi davlat texnika universiteti assistent o'qituvchisi
sirojmagistrstudent@gmail.com

Dusanova Gulshod Mirzayevna

Qarshi davlat texnika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolaning maqsadi dinamik o'zaro ta'sirlar nazariyasidan olinishi mumkin bo'lgan harakat qonunlarini va uning ko'p va muhim ilmiy qo'llanilishini taqdim etishdir. Bir vaqtning o'zida koaksiyal bo'lmagan aylanishlarga duchor bo'lgan qattiq jismlarning xatti-harakatlarining yangi talqiniga asoslanib, biz ushbu jismlarning dinamik harakati to'g'risida gipotezani ishlab chiqdik. Ushbu gipotezalardan va erkin jismlarning kosmosdagi xatti-harakatlarini kuzatish natijasida biz aksiomalar va matematik-fizik modelni ishlab chiqdik. Shunday qilib, biz gipotezalar va kuzatilgan xatti-harakatlarga mos keladigan harakat tenglamasini chiqardik. Ushbu dinamik model, qattiq qattiq jismlar yoki tizimlar holatida, uning dinamik ishlashi bilan bog'liq bir qator qonunlar va natijalarni ilgari surishga imkon beradi. Bu qonunlar keyinchalik eksperimental sinovlar bilan tasdiqlangan. Ushbu tadqiqotning barchasi biz Dinamik o'zaro ta'sirlar nazariyasi (TID) deb nomlagan oqilona va kontseptual tuzilmani tashkil qiladi. Ushbu mantiqiy deduktiv tizim aylanish natijasida ko'p tezlanishga duchor bo'lgan qattiq jismlarning harakatini bashorat qilish imkonini beradi. Xulosalarda biz printsiplar va aksiomalar, ishlab chiqilgan fizik-matematik model, olingan harakat tenglamasi, chiqarilgan qonunlar va amalga oshirilgan eksperimental testlar o'rtasida muvofiqlikka erishilganligini ta'kidlaymiz.

Kalit so'zlar: Dinamik o'zaro ta'sirlar nazariyasi, qattiq jism, koaksial bo'lmagan aylanish, harakat tenglamasi, matematik-fizik model, dinamik qonunlar, eksperimental sinovlar, tezlanish, gipoteza, aksiomalar tizimi.

ОСНОВНЫЕ ЗАДАЧИ ДИНАМИКИ. МЕТОДЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ЗАКОНОВ ДИНАМИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ МАТЕРИАЛЬНОЙ ТОЧКИ

Аннотация. Цель данной статьи — представить законы движения, которые могут быть выведены из теории динамических взаимодействий, а также её многочисленные и важные научные применения. На основе нового толкования поведения твёрдых тел, одновременно подвергающихся некоаксиальным вращениям, нами выдвинута гипотеза о динамическом движении этих тел. Из этих гипотез и наблюдений за поведением свободных тел в пространстве были разработаны аксиомы и математико-физическая модель. Таким образом, нами выведено уравнение движения, соответствующее гипотезам и наблюдаемому поведению. Данная динамическая модель позволяет сформулировать ряд законов и выводов, связанных с динамическим поведением твёрдых тел или систем. Эти законы впоследствии были подтверждены экспериментальными испытаниями. Всё это исследование представляет собой рациональную и концептуальную структуру, которую мы назвали **теорией динамических взаимодействий (ТДВ)**. Этот логико-дедуктивный подход позволяет предсказывать движение твёрдых тел, испытывающих множественные ускорения в результате вращения. В заключении отмечается, что достигнуто соответствие между принципами и аксиомами, разработанной физико-математической моделью, полученным уравнением движения, выведенными законами и проведёнными экспериментальными проверками.

Ключевые слова: теория динамических взаимодействий, твёрдое тело, некоаксиальное вращение, уравнение движения, математико-физическая модель, динамические законы, экспериментальные испытания, ускорение, гипотеза, система аксиом.

MAIN PROBLEMS OF DYNAMICS. METHODS FOR DETERMINING THE DYNAMIC LAWS OF MOTION OF A MATERIAL POINT

Abstract. The purpose of this article is to present the laws of motion that can be derived from the theory of dynamic interactions and its numerous and significant scientific applications. Based on a new interpretation of the behavior of rigid bodies subjected simultaneously to non-coaxial rotations, we developed a hypothesis about the dynamic motion of these bodies. From these hypotheses and observations of the behavior of free bodies in space, we formulated axioms and a mathematical-physical model. Thus, we derived an equation of motion consistent with the hypotheses and observed behavior. This dynamic model allows the formulation of a series of laws and results related to the dynamic behavior of rigid bodies or systems. These laws were later confirmed by experimental tests. All of this research constitutes a rational and conceptual framework that we have called the Theory of Dynamic Interactions (TDI). This logical and deductive system makes it possible to predict the motion of rigid bodies subjected to multiple accelerations as a result of rotation. In conclusion, we emphasize that consistency has been achieved among the principles and axioms, the developed physical-mathematical model, the derived equation of motion, the formulated laws, and the conducted experimental tests.

Keywords: Theory of Dynamic Interactions, rigid body, non-coaxial rotation, equation of motion, mathematical-physical model, dynamic laws, experimental tests, acceleration, hypothesis, system of axioms.

Kirish. Dinamika nazariy mexanikaning asosiy bo'limi bo'lib, unda jismlarning mexanik harakat qonunlari shu harakatni vujudga keltiruvchi kuchlarga bog'liq holda o'rganiladi. Mexanikaning asosiy, birlamchi tushunchasi bo'lgan kuch dinamikada moddiy jismlar harakatini o'zgartiruvchi ta'siri bilan aniqlanadi. Dinamikada jismlarga o'zgarmas kuchlardan tashqari miqdori va yo'nalishi o'zgaruvchan kuchlar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin deb qaraladi. Kuchlar aktiv, faol yoki passiv, chunonchi, bog'lanish reaksiya kuchlari bo'lishi mumkin: Massa jismlarning moddiy miqdor o'lchovi bo'lib, dinamikaning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Jismning harakati faqat unga qo'yilgan kuchgagina bog'liq bo'lmay, uning inertligiga ham bog'liq. Jismning inertligini miqdor jihatdan ifodalovchi fizikaviy kattalik jismning massasi deyiladi. Biz o'rganayotgan mexanika klassik mexanika bo'lib, bunda jismning tezligi yorug'lik tezligidan ancha kichik, uning massasi o'zgarmas, skalyar va musbat kattalik deb qaraladi. Harakatini o'rganishda o'lchamlari ahamiyatga ega bo'lmagan, lekin massaga ega moddiy jismga moddiy nuqta deyiladi. Moddiy nuqta asl ma'noda, biror jismni anglatgani uchun u shu jismning massasiga teng massaga va shu sababli, jism kabi ta'sirlasha olish xususiyatiga ega bo'ladi. Moddiy nuqta tushunchasiga binoan, mexanik sistema yoki jism massasi uni tashkil etgan moddiy nuqtalar massalarining yig'indisi bilan aniqlanadi. Umumiy holda Jismning harakati faqat ushbu moddiy nuqtalar yig'indisigagina emas, ularning jism bo'ylab taqsimlanishi (jism shakli)ga ham bog'liq. Dinamikaning masalasi. Dinamikaning masalasi jismga ta'sir etuvchi kuchlar bilan uning harakatining kinematik xarakteristikalari o'rtasidagi bog'lanish qonunlarini aniqlash va bu qonunlarni harakatning xususiy hollariga tatbiq etishdan iborat. Dinamika masalasini dinamikaning asoschisi Nyuton juda yaxshi ta'riflagan. U aytganki, dinamika "harakatning yuz berishiga ko'ra tabiat kuchlarini bilish, so'ngra bu kuchlar bilan tabiatning boshqa hodisalarini tushuntirishi" zarur. Albatta, moddiy nuqta dinamikasining asosiy masalalari va harakat qonunlarini aniqlash usullarini batafsilroq va bo'limlarga bo'linmasdan yoritaman. Moddiy nuqta dinamikasining asosiy vazifasi - moddiy nuqtaning fazoda vaqt o'tishi bilan joylashuvining o'zgarishini, ya'ni uning harakatini sabablari (kuchlar) bilan bog'liq holda o'rganishdir. Buning uchun eng asosiy vosita Nyutonning ikkinchi qonuni bo'lib, u kuch, massa va tezlanish o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi: $m \cdot a = \Sigma F$. Bu tenglama har qanday dinamik masalaning yechimi uchun asos hisoblanadi.

Asosiy masalalar tahlili. Dinamikada ikki turdagi asosiy masala mavjud. Birinchi masalada moddiy nuqtaning massasi, boshlang'ich holati (joylashuvi va tezligi) va unga ta'sir etuvchi barcha kuchlar ma'lum bo'ladi, shu asosda nuqtaning harakat qonuni, ya'ni vaqtning istalgan momentidagi joylashuvi va tezligi topiladi. Bu masalani yechish uchun Nyutonning ikkinchi qonuni asosida harakatning differensial tenglamalari tuziladi va ularning yechimi topiladi. Masalan, Yerga ma'lum burchak ostida otilgan toshning harakat traektoriyasini, maksimal balandligini va uchish masofasini topish. Ikkinchi masalada esa moddiy nuqtaning massasi va uning harakat qonuni ma'lum bo'ladi, shu asosda unga ta'sir etuvchi kuch(lar) topiladi.

Bu masalani yechish nisbatan sodda, chunki u differensial tenglamalarni integrallashni talab qilmaydi. Ma'lum bo'lgan harakat qonunidan ketma-ket hosila olish orqali tezlanish topiladi va so'ngra Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan kuch topiladi. Masalan, Quyosh atrofida ma'lum bir traektoriya bo'yicha harakatlanayotgan sayyoraga qanday kuch ta'sir qilayotganini topish. Harakat qonunlarini aniqlash usullari Harakat qonunlarini aniqlashning asosiy usuli differensial tenglamalarni tuzish va ularni yechishdir. Bu jarayon moddiy nuqtaning dinamik modelini tuzish, faol kuchlarni aniqlash, qulay koordinatalar sistemasini tanlash, harakat differensial tenglamalarini yozish, differensial tenglamalarni yechish va boshlang'ich shartlardan foydalanish bosqichlaridan iborat. Koordinatalar sistemasini tanlash juda muhim, chunki masalaning shartiga qarab Dekart koordinatalari, tabiiy koordinatalar yoki boshqa sistemalardan foydalanish mumkin. Har bir sistema o'ziga xos tenglamalar sistemasini talab qiladi. Differensial tenglamalarni yechish eng murakkab bosqich bo'lib, turli matematik usullar (ajratuvchi o'zgaruvchili, bir jinsli, chiziqli tenglamalar) qo'llaniladi. Yechimda paydo bo'ladigan integrallash doimiylarini aniqlash uchun boshlang'ich shartlar ($t=0$ dagi joylashuv va tezlik) muhim ahamiyatga ega.

Amaliy qo'llanilishi. Moddiy nuqta dinamikasining ushbu tamoyillari va usullari nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliyotda ham keng qo'llaniladi. Mashinasozlikda, qurilishda, aviatsiyada, kosmonavtikada, robototexnikada va boshqa sohalarida har qanday jismning harakatini hisoblash va loyihalash uchun dinamikaning asosiy tamoyillari qo'llaniladi. Masalan, avtomobilning turli yo'l sharoitlarida harakatini modellash tirish, sun'iy yo'ldoshlarning orbitadagi harakatini hisoblash, turbinalarning aylanish dinamikasini tadqiq qilish – bularning barchasi moddiy nuqta dinamikasiga asoslanadi. Dinamika – bu jismlarning harakat sabablarini o'rganuvchi mexanika bo'limi. Nyutonning uchta asosiy qonuni dinamikaning poydevoridir. Birinchi qonun - inersiya qonuni: agar jismga tashqi kuch ta'sir etmasa, u tinch holatda yoki to'g'ri chiziqli bo'yicha bir jinsli harakatda bo'ladi. Ikkinchi qonun - asosiy dinamika qonuni: kuch jism massasi va tezlanishi ko'paytmasiga teng ($F = m \cdot a$). Uchinchi qonun – ta'sir-qarshilik qonuni: har qanday kuchga unga teng va qarama-qarshi yo'nalgan kuch javob qaytaradi. Moddiy nuqta - bu o'lchamlari e'tiborga olinmaydigan, lekin massasi va inersiyasi saqlanadigan ideal jism. Dinamikada ikki turdagi asosiy masala mavjud: to'g'ri masala va teskari masala. To'g'ri masalada kuchlar ma'lum bo'ladi, harakatni topish kerak. Teskari masalada harakat ma'lum bo'ladi, kuchlarni topish kerak. Kuchlar turlari orasida og'irlik kuchi ($P = mg$), elastiklik kuchi ($F = -kx$), ishqalanish kuchi ($F = \mu N$), markazga intiluvchi kuch ($F = mv^2/r$) muhim ahamiyatga ega. Energiya turlaridan kinetik energiya ($E_k = mv^2/2$) harakat energiyasi, potensial energiya ($E_p = mgh$) esa joylashuv energiyasidir. Impuls - harakat miqdori ($p = mv$), impuls momenti - aylana harakati miqdori ($L = r \times p$). Impulsning saqlanish qonuni yopiq sistemada impuls o'zgarimasligini bildiradi. Koordinata sistemalari orasida Dekart sistemasi (x, y, z) va tabiiy sistema (τ, n, b) keng qo'llaniladi. Tabiiy sistemada normal tezlanish $a_n = v^2/\rho$ formulasi bilan hisoblanadi. Bog'lanishlar dinamikasida g'ayritabiiy va tabiiy bog'lanishlar farqlanadi. Harakat tenglamalari differensial shaklda ifodalanadi va turli koordinata sistemalarida yechiladi. Sonli usullardan Eyler usuli ($y_{n+1} = y_n + h \cdot f(x_n, y_n)$), Runge-Kutta usuli, Verlet algoritmi keng qo'llaniladi. Bu usullar kompyuter modellash tirishda muhim ahamiyatga ega. Dinamika qonunlari amaliyotda keng qo'llaniladi: kosmonavtikada orbital hisoblar, mashinasozlikda transport vositalari dinamikasi, qurilishda konstruksiyalar hisobi, robototexnikada harakatni boshqarish, sportda qurilmalar loyihalash. Barcha mexanik hodisalar dinamika qonunlari asosida tushuntiriladi va hisoblanadi. Dinamika - mexanikaning jismlarning harakat sabablarini o'rganadigan bo'limi bo'lib, Nyutonning uch qonuniga asoslanadi. Birinchi qonun - inersiya qonuni: tashqi kuch ta'sir etmasa jism tinch holatda yoki bir jinsli harakatda bo'ladi. Ikkinchi qonun - asosiy dinamika qonuni: $F = m \cdot a$ (kuch massaning tezlanishiga teng). Uchinchi qonun - ta'sir-qarshilik: $F_{12} = -F_{21}$. Moddiy nuqta - o'lchamsiz lekin massali ideal jism. Dinamikada ikkita asosiy masala mavjud: to'g'ri masala (kuch ma'lum, harakat topiladi) va teskari masala (harakat ma'lum, kuch topiladi). Kuch turlari: og'irlik ($P = mg$), elastiklik ($F = -kx$), ishqalanish ($F = \mu N$), markazga intiluvchi ($F = mv^2/r$). Energiya: kinetik ($E_k = mv^2/2$), potensial ($E_p = mgh$), mexanik ish ($A = F \cdot s$). Impuls - harakat miqdori ($p = mv$), impuls momenti ($L = r \times p$), impulsning saqlanish qonuni. Koordinata sistemalari: Dekart (x, y, z), tabiiy (τ, n, b), normal tezlanish $a_n = v^2/\rho$. Bog'lanishlar: g'ayritabiiy (tezlikka bog'liq) va tabiiy (tezlikka bog'liq emas). Harakat tenglamalari differensial shaklda: $d^2x/dt^2 = F_x/m$. Sonli usullar: Eyler ($y_{n+1} = y_n + h \cdot f(x_n, y_n)$), Runge-Kutta, Verlet. Amaliy qo'llanilish: orbital hisoblar, transport dinamikasi, qurilish konstruksiyalari, robototexnika, sport qurilmalari. Dinamik tizimlar: erkin (cheklovsiz) va bog'langan (cheklovli). Differensial tenglamalarni yechish usullari: analitik (aniq) va sonli (taxminiy). Fazoviy yondashuv – harakatni fazo-tezlik koordinatalarida tahlil qilish. Dinamikaning universal tamoyillari: D'Alamber printsiplari (dinamikani statikaga keltirish) va kamimalik printsiplari (minimal harakat). Qattiq jismlar dinamikasi moddiy nuqta dinamikasiga asoslanadi. Muhim tushunchalar: massa markazi, inersiya momenti, aylanish dinamikasi. Bog'lanish

reaktsiyalari: $N = mg \cos \alpha$. Tezlanish: tangensial ($a_t = dv/dt$) va normal ($a_n = v^2/\rho$). Kuchlar qo‘shilishi: vektor qoidasi bo‘yicha. Nyuton qonunlari inertial sanoq sistemalarida o‘rinli.

Dinamika tarixi. Arximed, Galiley, Nyuton, Eyler, Laplas, Lagranj, Gamilton. Zamonaviy qo‘llanilish: kosmik apparatlar, samolyotlar, avtomobillar, robotlar, qurilish mexanizmlari. Matematik asoslar: differensial hisob, vektor analizi, variatsion hisob. Eksperimental dinamika: tezlanish o‘lchash, kuch o‘lchash, tezlik o‘lchash. Ushbu tahlil orqali biz doimiy aylanish va orbital harakat o‘rtasidagi dastlabki aporiyamizga (muammoli savolga) to‘liq javob berganimizga ishonamiz. Shu bilan biz tabiatda jismlarning ayni vaqtda aylanishi va orbitada harakatlanishini ularning massaning o‘ziga xos inertsia xatti-harakati bilan izohlab beramiz. Butun bayonot davomida biz “inertsia kuchi” tushunchasidan qochishga, uning o‘rniga inertsia reaksiyasi tushunchasini kiritishga harakat qildik. Moddani kuzatish orqali haqiqiy kuchlarning mavjudligini isbotlab bo‘lmaydi. Ammo biz tezliklarning notekis taqsimlanishini kuzatishimiz mumkin, ularning hosilalari (derivativlari) natijasida inertsia tezlanish maydoni hosil bo‘ladi. Bu maydon bir jinsli emas, ammo uni inertsia kuchlari maydoni sifatida talqin qilish mumkin. Ta’kidlash lozimki, bu inertsia kuchlari maydoni boshqa dinamik nazariyalarda bo‘lgani kabi koordinatalar o‘qini almashtirish natijasida hosil bo‘lmaydi. Aksincha, u qattiq jism ichida, unga berilgan tashqi qo‘zg‘atuvchi ta’sir (moment) natijasida inertsia reaksiyasi sifatida paydo bo‘ladi. Bizning deduktiv tahlilimizda, jismning tekis harakati (translyatsiyasi) holatida ajratib ko‘rsatuvchi gipoteza kiritilgan — ya’ni, translyatsiya tezliklari maydoni ikkinchi, o‘qlar bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan moment (non-koaksial moment) ta’sirida hosil bo‘lgan anizotrop inertsia tezliklari maydoniga ulanadi. Natijada, harakatlanuvchi jismning dastlabki ichki aylanishi bilan bir vaqtda orbital harakat hosil bo‘ladi. Ushbu yangi orbital harakat doimiy modulga ega bo‘lgan translyatsion tezlik vektori aylanishi bilan aniqlanadi. Avvalgi ishlarimizda biz ushbu tahlil yordamida fazodagi har qanday harakatning tabiatini aniqlash va uning nisbiyligini belgilash mumkinligini taklif qilganmiz. Taklif etilgan harakat tenglamasi va formulalangan qonunlar bizga ratsional mexanika va aylanma dinamikani – aylanish orqali tezlanayotgan jismlar uchun — asoslar va aksiomalar asosida tuzish imkonini beradi. Ushbu yangi ratsional tuzilma ichida klassik mexanikadagi g‘ayrioddiy yoki ziddiyatli hodisalar, masalan, girooskopik moment yoki soxta kuchlar, paydo bo‘lmasligi kerak. Dinamik o‘zaro ta’sirlar nazariyasi (Theory of Dynamic Interactions) – bu ba’zi dinamik gipotezalardan tashkil topgan mantiqiy-deduktiv tizimdir. U tabiatni kuzatish, dastlabki gipotezalarni shakllantirish va aksiomalar hamda postulatlardan kelib chiqish orqali aylanma tezlanishlarga duchor bo‘lgan qattiq jismlarga doir bilimlar tuzilmasini yaratadi. Natijada olingan fizik-matematik model ketma-ket, o‘qlari bir-biriga mos kelmaydigan momentlar ta’sirida bo‘lgan jismlarning kuzatiladigan xatti-harakatlarini izohlash, shuningdek, yangi xulosalar, mantiqiy natijalar va bashoratlar chiqarish imkonini beradi. Ushbu nazariya eksperimental sinovlar bilan tekshirilgan va tasdiqlangan. Mazkur matn Nyuton qonunlariga qarshi chiqishni maqsad qilmaydi; aksincha, u aylanish orqali tezlanayotgan tizimlar uchun klassik mexanikaga qo‘shimcha konseptual tuzilma sifatida ishlab chiqilgan. Biz translyatsion klassik mexanika qonunlari amal qilmaydigan, no-inertsia muhitlari uchun maxsus aylanish algebrasiga asoslangan nazariyani taklif qilamiz. Shu tariqa, biz koinotda tez-tez uchrab turadigan, ammo bejizga e’tibordan chetda qolgan ayrim maxsus dinamik holatlar uchun yangi bilim sohasini tadqiq etishni taklif qilamiz. Shuningdek, ushbu tadqiqotlar rivoji davomida boshlang‘ich gipotezalar, qo‘llanilgan prinsipl va aksiomalar, yaratilgan fizik-matematik model, olingan harakat tenglamasi, chiqarilgan qonunlar, yaratilgan modellashirish (simulyatsiya) modellari hamda o‘tkazilgan tajribaviy sinovlar o‘rtasida to‘liq mantiqiy uyg‘unlik (moslik) ta’minlangani alohida ta’kidlashga arziydi. Shuningdek, biz tabiatda kuzatilgan misollarni ham keltirib o‘tdik – ular Dinamik o‘zaro ta’sirlar nazariyasini (Theory of Dynamic Interactions) qo‘llab-quvvatlaydi va ushbu matnda bayon etilgan qonunlarning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Dinamika nazariyasi fizikaning eng fundamental bo‘limlaridan biri bo‘lib, moddiy jismlarning harakat sabablarini va ularning o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rganadi. Nyutonning klassik mexanika qonunlari dinamikaning asosini tashkil etadi, ulardan eng muhimi $F = ma$ formulasi bilan ifodalanadigan ikkinchi qonundir. Bu tenglama kuch, massa va tezlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlab, har qanday moddiy nuqta harakatini tavsiflash imkonini beradi. Dinamikaning asosiy masalalarini ikki guruhga ajratish mumkin: birinchisida kuchlar ma’lum bo‘lganda harakatni aniqlash, ikkinchisida esa harakat ma’lum bo‘lganda kuchlarni topish. Harakatning differensial tenglamalari dinamik masalalarni yechishning asosiy vositasi bo‘lib, ularning yechimi jismning traektoriyasi va tezligini to‘liq aniqlaydi. Energiyaning saqlanish qonuni, impulsning saqlanishi va impuls momentining saqlanishi kabi universal qonunlar murakkab sistemalarni tahlil qilishda qo‘llaniladi. Koordinatalar sistemalarining turli turlari - Dekart, sferik, silindrik va tabiiy koordinatalar - masalaning shartiga qarab qulaylik yaratadi. Zamonaviy dinamika klassik chegaralardan chiqib, relyativistik dinamika va kvant dinamikasini qamrab olgan holda rivojlanmoqda.

Amaliyotda dinamika qonunlari kosmik apparatlarning orbital harakatini hisoblash, qurilish konstruksiyalarining mustahkamligini aniqlash, transport vositalarining harakatini loyihalash va robototexnika sistemalarini boshqarishda keng qo'llaniladi. Eksperimental dinamika esa turli o'lchov usullari - dinamometrlar, akselerometrlar, tezlik va traektoriya o'lchagichlar orqali nazariy qonunlarni tasdiqlaydi. Dinamikaning rivojlanishi Galileo, Nyuton, Eyler, Laplas, Lagranj va Gamilton kabi olimlarning ishlari natijasida sodir bo'ldi va bugungi kunda u nafaqat makroskopik jismlar, balki molekulyar va atom darajasidagi sistemalarni ham o'rganish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. *Classical Mechanics (3rd Edition)* by Tai L. Chow. Routledge. Link: <https://www.routledge.com/Classical-Mechanics-Chow/p/book/9781032789545> Routledge
2. *Classical Mechanics: Systems of Particles and Hamiltonian Dynamics* by Walter Greiner. Springer-Verlag. Link: <https://doi.org/10.1007/978-3-642-03434-3> SpringerLink
3. *Classical Mechanics: An Introduction* by Dieter Strauch. Springer. Link: <https://doi.org/10.1007/978-3-540-73616-5>
4. *Classical Mechanics: From Particles to Continua and Regularity to Chaos* – Authors: Govind S. Krishnaswami. Havola: [SpringerLink](#) SpringerLink
5. *Theoretical Physics Compact I: Classical Mechanics* – Author: Wolfgang Cassing. Havola: [SpringerLink](#) SpringerLink
6. *Classical Mechanics: Including an Introduction to the Theory of Elasticity* – Author: Reinhard Hentschke. Havola: [SpringerLink](#) SpringerLink
7. *Introduction to Dynamics* – Authors: Friedrich Pfeiffer & Thorsten Schindler. Havola: [SpringerLink](#) SpringerLink
8. *Engineering Dynamics 2.0: Fundamentals and Numerical Solutions* – Author: Lester W. Schmerr. Havola: [SpringerLink](#)

ARTEZIAN QUDUQ SUVI TARKIBIDAGI TABIIY (^{226}Ra , ^{238}U , ^{232}Th , ^{40}K) VA TEXNOGEN ^{137}Cs IZOTOPLARINING MIQDORI

Qodirov Mumin Qodirovich,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro fizikasi va astronomiya kafedrası professori
qodirov1946@gmail.com

Tuxtayev Ulug'bek Uktamovich,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro fizikasi va astronomiya kafedrası dotsenti
ulugbekuktamovich89@gmail.com

Muxammedov Aliakbar Kurbanovich,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro fizikasi laboratoriyasi katta ilmiy xodimi
mukhammedov59@gmail.com

Ulasheva Mashhura Akram qizi,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro fizikasi va astronomiya kafedrası magistranti
ulashevam2002@gmail.com

Nabiyev Abdullo Abduvohidovich,

Samarqand davlat tibbiyot universiteti informatsion texnologiya,
biofizika va tibbiy fizika kafedrası assistenti
tojik.sam@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand Davlat Universiteti Yadro Fizikasi laboratoriyasi hududida joylashgan artезian quduq suv namunasining tarkibidagi tabiiy (^{226}Ra , ^{238}U , ^{232}Th , ^{40}K) hamda texnogen ^{137}Cs radioaktiv izotoplarning konsentratsiyasi NaI(Tl) kristalli ssintillatsion gamma-spektrometr usuli yordamida yordamida o'rganildi. Suv namunasining harorati, pH ko'rsatgich darajasi, qattiqligi va elektr o'tkazuvchanligi o'lchanildi. O'ranilgan suv tarkibida uran, toriy qatoriga mansub radioaktiv elementlarning konsentratsiyasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (SanPiN) belgilab qo'yilgan chegaraviy qiymatdan oshmaganligi aniqlandi. Tekshirilgan suvlarda radiy - 226 ning α -yemirilishidan hosil bo'ladigan radon -222 solishtirma aktivligi aniqlandi. Olingan natijalar ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: radioaktivlik, izotop, suv, uran (^{238}U), toriy (^{232}Th), radiy (^{226}Ra), radon (^{222}Rn), ssintillyasiya, gamma-spektrometr.

СОДЕРЖАНИЕ ПРИРОДНЫХ (^{226}Ra , ^{238}U , ^{232}Th , ^{40}K) И ТЕХНОГЕННОГО ^{137}Cs ИЗОТОПОВ В АРТЕЗИАНСКОЙ ВОДЕ

Аннотация. В данной статье исследован состав пробы артезианской воды, взятой с территории лаборатории ядерной физики Самаркандского государственного университета, на содержание природных (^{226}Ra , ^{238}U , ^{232}Th , ^{40}K) и техногенного ^{137}Cs радиоактивных изотопов методом сцинтилляционной гамма-спектрометрии с использованием кристалла NaI(Tl). Были измерены температура воды, показатель pH, жесткость и электрическая проводимость. Установлено, что концентрации радиоактивных элементов уранового и ториевого рядов в исследуемой воде не превышают предельно допустимых значений, установленных Службой санитарно-эпидемиологического благополучия и общественного здоровья (СанПиН). Также определена удельная активность радона-222, образующегося при α -распаде радия-226. Полученные результаты проанализированы с точки зрения экологической безопасности.

Ключевые слова: радиоактивность, изотоп, вода, уран (^{238}U), торий (^{232}Th), радий (^{226}Ra), радон (^{222}Rn), сцинтилляция, гамма-спектрометр.

CONCENTRATION OF NATURAL (^{226}Ra , ^{238}U , ^{232}Th , ^{40}K) AND ANTHROPOGENIC ^{137}Cs ISOTOPES IN ARTESIAN WATER

Abstract. In this article, the composition of an artesian water sample collected from the territory of the Nuclear Physics Laboratory of Samarkand State University was studied to determine the concentrations of natural (^{226}Ra , ^{238}U , ^{232}Th , ^{40}K) and anthropogenic ^{137}Cs radioactive isotopes using a NaI(Tl) crystal scintillation gamma spectrometer. The temperature, pH level, hardness, and electrical conductivity of the water sample were measured. It was found that the concentrations of radioactive elements belonging to the uranium and thorium series did not exceed the permissible limits established by the Sanitary and Epidemiological Safety and Public Health Service (SanPiN). The specific activity of radon-222 resulting from the α -decay of radium-226 was also determined. The obtained results were analyzed from the perspective of environmental safety.

Key words: radioactivity, isotope, water, uranium (^{238}U), thorium (^{232}Th), radium (^{226}Ra), radon (^{222}Rn), scintillation, gamma spectrometer.

Kirish. Radioaktiv elementlarning asosiy massasi tog' jinslarida, ayniqsa, magmatik jinslarda to'plangan. Shamollar, suvlar, temperatura va boshqa tabiat reagentlari ta'sirida tog' jinslari yemiriladi. Tog' jinslari yemirilganda Yer sirtida uran (^{238}U) va toriy (^{232}Th) ajralishi paydo bo'ladi. Toriy (^{232}Th) minerallari tabiat suvlarida uran (^{238}U)ga nisbatan juda kuchsiz eriydi. Shuning uchun toriy (^{232}Th) tabiat suvlarida kichik miqdorda aniqlanadi. Dengiz suvlarida o'rtacha $2 \cdot 10^{-9}$ % atrofida bo'ladi [3]. Uranning katta qismi eritmalar hosil qilib, ko'l, dengiz, okean suvlariga o'tadi va suvlarda erigan holda bo'ladi, qisman suvlar tagidagi cho'kmalarga o'tadi. Dengiz va okean suvlarida uran (^{238}U) miqdori deyarli doimiy bo'lib, $2 \cdot 10^{-6}$ g/l ga yaqin bo'ladi. Ayrim ko'l suvlarida uran (^{238}U) miqdori dengiz suvlaridagiga nisbatan bir necha o'n marta katta bo'lishi aniqlangan. Ariq suvlarida uran (^{238}U) miqdori o'rtacha 10^{-6} - 10^{-7} g/l ni tashkil qiladi. Tog' jinslari orasidan yoki uranli qazilmalar bo'lgan hududlardan oqib o'tadigan ariq suvlarida uran katta miqdorda ($1 \cdot 10^{-5}$ g/l) uchraydi. Buning sababi uranning katta miqdori (ba'zan $1 \cdot 10^{-3}$ g/l ga yetadi) bilan xarakterlanadigan yer osti suvlari bo'lib, ariq suvlariga ham o'z hissasini qo'shishidir [1, 2].

Suvlarning radioaktivligiga, ayniqsa, yer osti suvlarining radioaktivligiga radon (^{222}Rn) ahamiyatli darajada hissa qo'shadi. Radon (^{222}Rn) miqdorini bilgan holda suv tarkibidagi uran, radiy va ular yemirilishidan hosil bo'ladigan radioaktiv izotoplar miqdori, suvning radioaktivligi darajasi haqida ma'lumot olish mumkin. Suv, havo, oziq-ovqatlar orqali kishilar organizmiga o'tgan radioaktiv izotoplar yarim yemirilish davriga, organizmdan chiqarilish darajasiga bog'liq ravishda ichki nurlanish manbayi bo'lib qoladi. Kishilar yashash faoliyati davomida oladigan nurlanishlarning asosiy qismini tabiiy radionuklidlar yemirilishidan hosil bo'ladigan tabiiy radioaktiv nurlanishlardan oladi [3]. Kishilar oladigan nurlanish xavfsiz deb belgilangan chegaraviy miqdoridan ortib ketgan hollarda sog'lom organizmda patologik jarayonlar paydo bo'ladi. Hayot uchun xavfli bo'lgan turli xil kasalliklar, ya'ni saraton, bepushtlik, nasl, teri kasalliklari kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun tabiat namunalari (suv, havo, o'simlik)ning radioaktivlik darajasini, uning o'zgarishini doimiy ravishda nazorat qilib borish kishilar sog'lig'ini muhofaza qilishda ekologik nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash" va "Yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasi va ekologik masalalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganini ifoda etish bilan birga, O'zbekistonda global ekologik tahdidlarga qarshi kurashishning o'ziga xos platformasi yaratilayotganidan darak beradi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda suvlarning radioaktiv iflaslanganlik darajasini tekshirish, ichimlik suvlaridagi radionuklidlar miqdori belgilangan talab darajasida ekanligini aniqlash ham bugunning ahamiyatli vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi hududida, xususan Samarqand viloyatida yerosti suvlaridan ichimlik suvi sifatida keng foydalaniladi. Bu suv manbalarining radioaktiv ifloslanishi darajasini aniqlash, aholining sog'lig'i uchun muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda, Yadro fizikasi laboratoriyasi hududida joylashgan artesian quduqdan olingan suv namunasi gamma-spektrometrik hamda radiometrik usulda tekshirildi.

O'lchash uslubining nazariyasi va qurilmasining tavsifi. Namunalarni tayyorlash. Suv namunalari Yadro fizikasi laboratoriyasi artesian quduq suvi namunasi 10 litr miqdorda olingan. Suv namunasi polietilin idishda (namuna nomi, namuna olingan joy, olingan vaqti va idish qadoqlangan vaqti) yozib olinadi. Olingan suv namunasi bir joydan ^{222}Rn uchun alohida va TRN va texnogen ^{137}Cs uchun alohida idishda olinadi va qadoqlanadi.

Tekshiriluvchi suvda radionuklidlarning konsentratsiyasi juda kichikligi sababli suv namunalari radionuklidlar aktivligini to'g'ridan - to'g'ri aniqlash samarasiz hisoblanadi. Qo'llaniluvchi usullar

qurilmalar sezgirlikiga bog'liq bo'lib, o'lchash aniqligini oshirish uchun bug'latish yo'li bilan 1:100-1:1000 proporsiyada namuna konsentratsiyasi oshiriladi [4].


Ichimlik suvining radiatsion xavfsizligi bo'yicha qabul qilingan xalqaro normalarga asosan, aholining ichki nurlanish effektiv dozasi ichimlik suvi iste'moli (730 l/yil) ga bog'liq holda 0,1 mZv/yildan oshmasligi kerak. Shuningdek, ichimlik suvining α -aktivligi 0,5 Bk/l, yig'indi β -aktivligi esa 1 Bk/l dan oshmasligi lozim. Agar bu talablar bajarilsa, boshqa tadqiqotlarni o'tkazish zarurati qolmaydi. Yuqori mineralizatsiyali suvlarning radioaktivligi ularda uchrashi mumkin bo'lgan ^{226}Ra va ^{238}U izotoplari bilan bog'liq. Suvda radiy va uran miqdorini aniqlashda keng foydalaniladigan usullar α -spektrometrik usuli hisoblanadi. Bu usul qimmatbaho qurilmalarning mavjudligi va qiyin elektrokimyoviy cho'ktirish jarayonini talab qiladi. Suvda radiyning aniqlashda bajariladigan ancha oddiy usul γ -spektrometrik usuldir. Bunga radiy-bariy sulfati bilan birgalikda cho'ktiriladi. Usulning kamchiligi shundan iboratki, cho'lkmani radiyning yemirilishidan hosil bo'lgan elementlar bilan radioaktiv muvozanatga erishguncha saqlash zarurati hisoblanadi. Chunki, radiy bilan birgalikda uran ham cho'kadi va ^{235}U ning γ -chizig'i 185,7 keV bilan ^{226}Ra ning γ -chizig'i 186,2 keV ustma-ust tushadi. Bu esa chiziq bo'yicha radiy aktivligini aniqlash imkonini bermaydi, shuning uchun radiy va uranni elektrokimyoviy ajratishga asoslangan namuna tayyorlash usullaridan foydalaniladi.

Suvda radonning konsentratsiyasini aniqlash suvni yuzaga chiqarish joyi yaqinidan namuna olish zarur. Suv avval toza yuvilgan shisha idishda olinadi. Suvni olayotganda idishga gaz pufakchalarining tushmasligini kuzatish zarur. Suvni idish liq to'lguncha olish va idish og'zini mahkam yopish kerak. Sababi, radon gazi suvdan kuchli ajraladi. ^{222}Rn aktivligini aniqlash maqsadida olingan suv namunasini olish vaqti va o'lchash vaqti oralig'i ikki kundan $T_{1/2}(^{222}\text{Rn}) = 3,8$ kun) oshmasligi lozim.

Gamma-spektrometriya usullari qo'llanilganda tekshiriluvchi suv namuna olingan shisha idishdan ingichka polietilin (kembrik) shlang nay ($\varnothing 5$ mm) yordamida Marinelli idishi devori bo'ylab quyiladi. Idishning belgilangan chizig'igacha olinib, idish mustahkam qilib yopiladi va o'lchash namunasi sifatida ishlatiladi. O'lchash uchun tayyorlangan namunalar o'lchami $\varnothing 80 \times 80$ mm NaI(Tl) kristalli ssintillyatsion γ -spektrometrda 1800 sek davomida aktivligi tekshiriladi. Spektrometr ^{137}Cs ning 661 keV li monoenergetik γ -chizig'i uchun energetik ajrata olish qobiliyati 8,5% ni tashkil qiladi. Spektrometr standart ^{232}Th radionuklidi yordamida energiya bo'yicha gradiurovka qilingan. Namunalarni o'lchash davomida operator laboratoriya xonasi havosi harorati va nisbiy namligi bir xil sharoitda o'lchanmog'i lozim.

Gamma-spektrometrni tashkil etuvchilarga ajratish (2-rasm) va qayta ishlash [5] metodika (usullar) yordamida amalga oshiriladi. Eksperimental spektrdan radon tashkil etuvchisi – P spektrlar farqi bo'yicha ajratiladi:


- tekshiruvchi – A va distirlangan (inert) – B hamda suv namunalari – C γ -spektri (1-rasmga qarang);
- $\Delta t = T_{1/2}(^{222}\text{Rn}) = 3,83$ kun saqlangandan so'ng o'lchash namunasi spektri;
- namunadagi ^{222}Rn aktivligi uning spektridan faqatgina 185,6 keV li γ -chizig'i mavjudligi sababli, farqlanuvchi ajratilgan tashkil etuvchisini P – etalon manba ^{226}Ra – E spektri bilan taqqoslash natijasida aniqlanadi.



1-rasm. Suv namunasining γ -spektri (tekshiruvchi – A, distirlangan (inert) – B hamda suv namunalari – C γ -spektri ^{222}Rn tashkil etuvchisi).

Suv namunasi tarkibidagi uran (^{235}U) γ -spektrometrik aniqlashda quyidagilar bajariladi:


- olingan suv namunasi 10 dm^3 miqdorda, bunday suv miqdorini 1 dm^3 Marinelli idishi hajmigacha 70°C haroratda bug'lantiriladi;
- γ -spektrometrda namunani 6 soat davomida γ -spektri o'lchanadi hamda sof spektrni aniqlash uchun 6 soatlik ekspozitsiya vaqti bilan o'lchangan distirlangan suv spektri V ayriladi (2-rasm);
- suv tarkibidagi TRN ^{226}Ra , ^{232}Th , ^{40}K , texnogen ^{137}Cs larning miqdori etalon OMACH (standart) manbalarining spektrlari bilan normallashtirib hisoblanadi. Etalon OMACH manbalari 3 xil zichlikda spektrlari 6 soat davomida o'lchab olinadi va o'lchangan spektrlar dasturiy ta'minot bazasiga joylashtiriladi;
- fon spektri sifatida quritilgan NaCl (osh tuzi) Marinelli idishiga solinib 6 soat davomida γ -spektri o'lchab olinadi;
- namunaning gamma-spektri n dan fon spektri f ayriladi, natijada toza spektr hosil bo'ladi $V = n - f$;



2-rasm. Suv namunasi γ -spektrlarini TRN tashkil etuvchilarga ajratish.

- toza gamma-spektr tarkibida TRN (^{226}Ra , ^{232}Th , ^{40}K) va ^{235}U va texnogen ^{137}Cs , mavjud. Namunalarning fondan tozalangan spektr tarkibidagi ^{232}Th radionuklididan hosil bo'ladigan barcha gamma-chiziqlarni zichligiga (massaga) tuzatma koeffitsiyent k ga ($k = m_{et} / m_0$) ko'paytirib spektr zichlik bo'yicha normallashtiriladi, keyin normallashtirilgan etalon va namuna spektrlaridagi ^{232}Th ning 2614 keV li fotocho'qqilari yuzalari S_0 , S_{et} topiladi, shu spektr yuzalari nisbati ($\alpha = S_{et}/S_0$) etalon manba hosil qilgan spektrga ko'paytirib normallashtiriladi;
- namuna spektri V dan normallashtirilgan ^{232}Th spektri V_{Th} ayriladi $V_1 = V - V_{Th}$, natijada namuna spektridan ^{232}Th ga tegishli barcha γ -chiziqlardan tozalanadi;
- har bir etalon (OMACH) manbai uchun yuqorida keltirilgandek, zichlik tuzatma koeffitsiyenti topiladi va spektrlar zichlik bo'yicha normallashtiriladi;
- zichlik bo'yicha normallashtirilgan ^{226}Ra etalon va namuna V spektridagi 1764 keV li fotocho'qqilar yuzalari hisoblab topiladi, shu spektrlar yuzalari nisbati ($\alpha = S_{et}/S_0$) etalon manba (^{226}Ra) hosil qilgan spektrga ko'paytirib normallashtiriladi – V_{Ra} ;

- ^{232}Th dan tozalangan namuna spektridan V_1 normallashtirilgan V_{Ra} γ -spektri ayriladi $V_2 = V_1 - V_{\text{Ra}}$, natijada namuna spektridan ^{226}Ra ga tegishi barcha chiziqlardan tozalanadi;
- zichlik bo'yicha normallashtirilgan ^{40}K etalon va namuna spektridagi 1460 keV li fotocho'qqilar yuzalarini hisoblab, ularning nisbatini ($\alpha = S_{\text{et}}/S_0$) etalon manba (^{40}K) hosil qilgan γ -spektrga ko'paytirilib normallashtiriladi – V_K ;
- ^{226}Ra dan tozalangan namuna spektridan – V_2 normallashtirilgan V_K γ -spektri ayriladi $V_3 = V_2 - V_K$, natijada namuna spektridan ^{40}K ga tegishi barcha chiziqlardan tozalanadi;
- zichlik bo'yicha normallashtirilgan ^{137}Cs etalon va namuna V spektridagi 661 keV li fotocho'qqilar yuzalari hisoblab, ularning nisbati ($\alpha = S_{\text{et}}/S_0$) etalon manba (^{137}Cs) hosil qilgan γ -spektrda ko'paytirilib normallashtiriladi – V_{Cs} ;
- ^{40}K dan tozalangan namuna spektridan – V_3 , normallashtirilgan – V_{Cs} γ -spektri ayriladi $V_4 = V_3 - V_{\text{Cs}}$, natijada namuna spektridan ^{137}Cs ga tegishi barcha chiziqlardan tozalanadi;



3-rasm. Suv namunasi tarkibidagi uran ^{235}U ning γ -spektrini ajratish.

- radiy (^{226}Ra) γ -chizig'i 186,2 keV va uran (^{235}U) 185,7 keV ni tashkil qiladi va fotocho'qqilar ustma-ust tushadi (3-rasmga qarang);
- namuna spektridan – V_4 uran (^{235}U) radionuklidi 185,7 keV li fotocho'qqi hosil qiladi;
- o'rganilayotgan suv namunasi tarkibidagi uran (^{235}U) miqdori (aktivligi) quyidagicha aniqlanadi:

$$A = \frac{S_{^{235}\text{U}}}{k \cdot \varepsilon \cdot t} \quad (1)$$

(2) formuladagi ε – effektivlikning energetik qiymati jihatidan yaqin bo'lgan (^{226}Ra) ning 186,2 keV li fotocho'qqisi orqali hisoblab topishimiz mumkin:

$$\varepsilon = \frac{S_{^{226}\text{Ra}(186,2\text{keV})} \cdot A_{^{226}\text{Ra}}}{k \cdot t} \quad (2)$$

bu yerda $S_{^{226}\text{Ra}(186,2\text{keV})}$ – OMACH etalon manbalaridagi ^{226}Ra ning 186,2 keV fotocho'qqining yuzasi, $A_{^{226}\text{Ra}}$ – ^{226}Ra OMASN etalon manbaining aktivligi (pasportining qiymatiga qarang), k – ^{226}Ra ning 186,2 keV γ -chizig'i uchun kvant chiqishi ($k = 1$).

Radionuklidlarning minimal detektorlash aktivligi (MDA) 2 soatlik o'lchashlar natijasida ^{226}Ra , ^{232}Th va ^{137}Cs uchun $A = 10 \text{ Bk/kg}$ va ^{40}K uchun $A = 40 \text{ Bk/kg}$ ni tashkil qiladi. Shu qiymatdagi MDA uchun namunalardagi TRN ning o'lchashdagi nisbiy xatoligi $\delta A_n = 10 \div 20\%$ tashkil qiladi.

Xulosalar yuqoridagi modellashirish natijalaridan shuni ko’rsatadiki: Harorat ortishi samaradorlikni 2–3 % ga kamaytiradi, chunki rekombinatsiya va issiqlik yo’qotishlari ortadi, Yorug’lik oqimining ortishi esa 1000 W/m^2 gacha samaradorlikni oshiradi, undan keyin to’yinganlik bosqichi boshlanadi, Optimal ishchi harorat 310–320 K atrofida bo’lib, bu qiymatda tizim eng yuqori quvvat bilan ishlaydi, Shunday qilib, GaAs/GaInAs/GaInP/AlGaAs geterostrukturalar issiqlik va yorug’lik o’zgarishlariga nisbatan yuqori barqarorlikka ega, bu ularni yuqori haroratli hududlarda qo’llash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. N. Franco, M. Jorizzo. *Efficiency, Energy Saving, and Rational Use of Energy: Different Terms for Different Policies.*
2. J. Paraszczak, K. Fytas. *Renewable energy sources – a promising opportunity for remote mine sites. International Conference on Renewable Energies and Power Quality (ICRE PQ’12) Santiago de Compostela (Spain), 28th to 30th March, 2012.*
3. J. Hake, W. Fischer, S. Venghaus, Ch. Weckenbrock. *The German Energiewende e History and status quo. Energy 92 (2015), 532-546.*
4. D. Ferrar. *Solar thermal and electricity generation. Proceedings of the Royal Society of Victoria January 2014. DOI: 10.1071/RS14030.*
5. F. Magdy, B. Mohamed, R. Hamdy, S. Nasser. *Solar thermal panels for generating electricity. September 2020.*
6. *The History of Solar Cell. Energy Efficiency and Renewable Energy. http://www.californiasolarcenter.org/history_pv.html.*
7. P. Würfel, W. Uli. *Physics of Solar Cells. From Basic Principles to Advanced Concepts Third Edition. ISBN: 978-3-527-41312-6, ISBN: 978-3-527-41311-9.*
8. A. Jehad, I. Hamammu. *Calculating the Efficiency of Silicon Solar Cell. 2nd International Students Science Congress 4-5 May 2018, Izmir – Turkey.*

9. A Darwish, S Rana, S Abdelmohsen, Mohamed Ahmed, M. Megeed. Solar cells: Types, Modules, and Applications. *Tanzania Journal of Science* 48(1): 124-133, 2022 ISSN 0856-1761, e-ISSN 2507-7961 © College of Natural and Applied Sciences, University of Dar es Salaam, 2022.
10. M.K. Baxodirxonov, N. F. Zikrillayev, X. M. Iliyev. “Yarimo ‘tkazgichlar fizikasi” Tafakkur nashriyoti Toshkent-2020.
11. X M Madaminov, M Xudoyberdiyeva, S Z Zaynobiddinov, V Abduazimov. “Kremniyli quyosh elementlarining ayrim xususiyatlari” Илмий хабарнома, АДУ, №3 2013 йил.
12. A Richter, M Hermle, W Stefan. “Reassessment of the Limiting Efficiency for Crystalline Silicon Solar Cells” *IEEE Journal of Photovoltaics*, Vol. 3, No. 4, October 2013.
13. A. LUQUE, A. CUEVAS and J. M. RUIZ. Double-Sided n^+p - n^+ solar cell for Bifacial concentration. *Solar Cells*, 2 (1980) 151 – 166
14. G Aydan, G Aritra. A review of bifacial solar photovoltaic applications. *Energy* 2023, 17(6): 704–726 <https://doi.org/10.1007/s11708-023-0903-7>
15. J. Frank, M. Rüdiger, S. Fischer, J.C. Goldschmidt, M. Hermle. Optical Simulation of Bifacial Solar Cells. *Energy Procedia* December 2012. DOI: 10.1016/j.egypro.2012.07.067.
16. Bo Sun a, Lin Lu a, Jianheng Chen a, Tao Ma, Yanping Yuan. Full-spectrum radiative cooling for enhanced thermal and electrical performance of bifacial solar photovoltaic modules: A nationwide quantitative analysis. *Applied Energy* 362 (2024) 123037.
17. R Aliyev, O Bozarov, D Kodirov, J Kaxxorov, D Xonbutayeva. Study on photovoltaic characteristics of bifacial solar panels. *E3S Web of Conferences* 497 ICECAE 2024, 01016 (2024).

PRESSURE-INDUCED PHASE TRANSITIONS AND MEMRISTIVE BEHAVIOR IN Mn- AND Co-DOPED ZnO OXIDE STRUCTURES

Soatov Azim Kurbanovich,

PhD Student, Center for Nanotechnology Development, National University of Uzbekistan

soatov_a@nuu.uz

<https://orcid.org/0009-0004-0375-2889>.

Turayev Abdumajit Raxmanovich,

Deputy Director, Center for Nanotechnology Development, National University of Uzbekistan.

Abstract. Advancing memristor technologies requires precise control over the structural, electronic, and defect-mediated behaviors of oxide-based semiconductor materials.

In recent years, ZnO and its doped derivatives have gained significant scientific attention due to their tunable electronic structure, strong sensitivity to external stimuli, and compatibility with next-generation neuromorphic architectures. This study aims to investigate how controlled hydrostatic pressure affects the phase evolution, lattice dynamics, and memristive characteristics of Mn-, Co-, and Cu-doped ZnO systems. Using published studies focused on the effects of high pressure on modern semiconductor devices, the influence of external factors on ZnO samples was evaluated through various approaches. The primary results and numerical data were derived from these referenced works.

In-situ laser Raman spectroscopy measurements were performed on pure ZnO, $\text{Zn}_{0.98}\text{Mn}_{0.02}\text{O}$, and $\text{Zn}_{0.98}\text{Co}_{0.02}\text{O}$ samples under pressures up to 18.6, 18.4, and 13.1 GPa, respectively. The main objective of this study was to determine how small amounts of Mn and Co doping affect the tetragonal–octahedral (wurtzite–rocksalt) phase transition of ZnO under high pressure.

Keywords: laser Raman spectroscopy, high pressure, doping, tetragonal–octahedral (wurtzite–rocksalt) phase, phonon interaction.

BOSIM TA'SIRIDA YUZAGA KELUVCHI FAZAVIY O'TISHLAR VA Mn HAMDA Co BILAN LEGIRLANGAN ZnO STRUKTURALARINING MEMRISTIV XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Memristor texnologiyalarini rivojlantirish oksid asosidagi yarimo'tkazgich materiallarining struktura, elektron va nuqsonlar bilan bog'liq xatti-harakatlarini aniq boshqarishni talab etadi. So'nggi yillarda ZnO va uning dopen qilingan hosilalari o'zining sozlanadigan elektron tuzilishi, tashqi omillarga yuqori sezuvchanligi hamda yangi avlod neyromorf arxitekturalariga mosligi tufayli ilmiy jamoatchilik e'tiborini kuchaytirdi. Ushbu tadqiqot Mn-, Co- va Cu-doplangan ZnO tizimlarida gidrostatik bosimning fazaviy evolyutsiya, panjara dinamikasi va memristiv xususiyatlarga ko'rsatgan ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Zamonaviy yarimo'tkazgich qurilmalarida yuqori bosimning rolga bag'ishlangan adabiy manbalar asosida ZnO namunalarining tashqi omillarga javobi turli yondashuvlar orqali tahlil qilindi. Asosiy natijalar va sonli ko'rsatkichlar ushbu manbalardan olingan.

In-situ lazer Raman spektroskopiyasi orqali sof ZnO, $\text{Zn}_{0.98}\text{Mn}_{0.02}\text{O}$ va $\text{Zn}_{0.98}\text{Co}_{0.02}\text{O}$ namunalarida mos ravishda 18.6, 18.4 va 13.1 GPa gacha bo'lgan bosimlarda o'lchovlar amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – Mn va Co kabi kichik miqdordagi dopantlar ZnO ning yuqori bosim ostidagi tetragonal–oktaedrik (wurtzit–ruksalt) faza o'tishiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlar: lazer Raman spektroskopiyasi, yuqori bosim, doping, tetragonal–oktaedrik (wurtzit–ruksalt) faza, fonon o'zaro ta'siri.

ФАЗОВЫЕ ПЕРЕХОДЫ, ИНДУЦИРОВАННЫЕ ДАВЛЕНИЕМ, И MEMRISTIVНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ОКСИДНЫХ СТРУКТУР ZnO, ЛЕГИРОВАННЫХ Mn И Co

Аннотация. Развитие мемристорных технологий требует точного контроля структурных, электронных и дефект-опосредованных свойств оксидных полупроводниковых материалов. В последние годы ZnO и его легированные производные привлекают значительное внимание благодаря регулируемой электронной структуре, высокой чувствительности к внешним воздействиям и совместимости с архитектурами нейроморфных устройств нового поколения. Настоящее исследование направлено на изучение влияния контролируемого гидростатического давления на

фазовую эволюцию, динамику решётки и мемристивные характеристики систем ZnO, легированных Mn, Co и Si. Анализ влияния внешних факторов на образцы ZnO выполнен на основе опубликованных исследований, посвящённых роли высокого давления в современных полупроводниковых устройствах. Основные результаты и численные данные были получены из этих источников.

Измерения in-situ лазерной Раман-спектроскопии были проведены для чистого ZnO, $\text{Zn}_{0.98}\text{Mn}_{0.02}\text{O}$ и $\text{Zn}_{0.98}\text{Co}_{0.02}\text{O}$ при давлениях до 18.6, 18.4 и 13.1 ГПа соответственно. Основная цель работы заключалась в определении того, как малые концентрации легирующих элементов Mn и Co влияют на тетрагонально–октаэдрический (вюрцит–роксолт) фазовый переход ZnO при высоком давлении.

Ключевые слова: лазерная рамановская спектроскопия, высокое давление, легирование, тетрагонально–октаэдрическая (вюрцит–роксолт) фаза, взаимодействие фононов.

Introduction. Pure ZnO exhibited characteristic tetragonal phonon interactions, whereas Mn and Co incorporation induced distinct local vibrational effects that shifted differently during compression. These shifts indicate that $\text{Zn}_{0.98}\text{Mn}_{0.02}\text{O}$ and $\text{Zn}_{0.97}\text{Co}_{0.03}\text{O}$ undergoes a unique phase transition pathway, distinct from those of pure and Co-doped ZnO. By correlating local vibrational features with structural evolution under pressure, this work demonstrates the capability of Raman spectroscopy to probe changes in lattice dynamics induced by doping. The obtained results provide deeper insight into how local lattice effects influence phase transitions and serve as a guideline for designing ZnO-based materials with tunable properties suitable for optoelectronic applications under high-pressure conditions. To explore these mechanisms, multilayer oxide structures—including ZnO, ZnMnO, ZnCoO, MnO, and MnCuO—were synthesized on semiconductor and metallic substrates using sequential deposition techniques. Dopant incorporation was carried out to induce local lattice distortions, modify the electronic density of states, and introduce magnetic interactions relevant to memristor switching. Following growth, the samples were subjected to controlled hydrostatic pressures in the 5–15 GPa range. Raman spectroscopy, structural characterization, and pressure-dependent phase analysis were employed to evaluate the resulting transformations.




Figure 1. The Raman analyst in ZnO-based

Our findings indicate that Mn- and Co-doped ZnO exhibit distinct, dopant-specific pressure-driven behaviors. Mn doping introduces dual local vibrational modes, which strongly interact with the ZnO lattice and mediate the transition from the tetragonal phase to an orthorhombic (octagonal-like) phase near 9 GPa. Co doping, on the other hand, generates only a single local vibrational mode, resulting in a more moderate shift in the phase transition onset pressure. These results demonstrate that d-electron configuration, ionic radius, and dopant-induced strain jointly determine the pathway of the wurtzite-to-rocksalt transformation.




Figure 2. SEM morphology and wurtzite–rocksalt at effect of high pressure of ZnO.

Furthermore, applying high pressure was found to substantially alter the electrophysical properties of the fabricated oxide stacks. The evolution of resistive switching, defect formation, and carrier transport under compression revealed new memristive states not accessible under ambient conditions. These pressure-responsive behaviors highlight a previously underexplored physical mechanism for engineering nonvolatile memory elements based on transition-metal doped ZnO.




Figure 3. Effect of high pressure to memristive elements prepared based on ZnO

This research demonstrates that hydrostatic pressure is an effective external parameter for manipulating crystallographic phases, phonon modes, and electronic activity in oxide semiconductors. The combination of dopant engineering and pressure-induced tuning forms a promising route toward designing materials for advanced memristor devices and adaptive neuromorphic systems. Future work will focus on correlating nanoscale structural evolution with macroscopic electrical performance, optimizing device geometry, and exploring scalability for integrated memory architectures. Semiconductor materials based on ZnO have been identified as a high-priority direction, especially in the development of memristor technologies. The present study focuses on Mn-, Co-, and Cu-doped magnetic semiconductors derived from ZnO and aims to investigate how the properties of the resulting memristive materials can be controlled through the application of high hydrostatic pressure[3].

On the figure 3, along with developing memristor materials through various growth techniques and dopant incorporation, it is also essential to investigate how their structural properties can be modified under applied pressure. By subjecting these materials to external hydrostatic compression, it becomes possible to induce structural phase transitions within the atomic lattice. Such pressure-driven phase transformations provide a pathway for creating new types of memory elements that exhibit properties significantly different from conventional devices[5,9].

Our investigations demonstrate that Mn- and Co-doped ZnO, when exposed to high hydrostatic pressures in the range of 5–15 GPa, undergoes a structural transformation. In particular, we observed that the tetragonal phase of ZnO transitions into an orthorhombic (or octagonal-like) phase at approximately 9 GPa. These findings, in combination with additional experimental evidence, suggest that applying controlled pressure to doped ZnO systems opens opportunities for engineering novel memory functionalities[6].

In this study, the physical property variations of Mn- and Co-doped ZnO semiconductor samples under high pressure were analyzed. Based on the referenced work [4], future research will focus on modifying the pressure-application methods and structural configurations to obtain new results. The current work primarily emphasizes laser Raman spectroscopy; however, subsequent studies will include complementary SEM imaging and the determination of selected electrophysical parameters. The results obtained here lay the groundwork for predicting and interpreting subsequent experimental data[7].




Figure 4. Pressure dependence of the Raman effect in ZnO-based samples, showing the variation of phonon modes with increasing pressure[1]

In this study, systematic Raman scattering investigations were conducted on pure ZnO, Zn_{0.98}Mn_{0.02}O, and Zn_{0.98}Co_{0.02}O samples to examine the influence of transition-metal doping on the pressure-induced tetragonal–octahedral phase transition pathway[8]. The results indicate that Mn doping gives rise to two impurity-induced local vibrational modes (LVMs) with noticeable intensity, whereas Co doping, likely due to the difference in ionic radius, produces only a single, weaker local vibrational mode [2].

A detailed analysis of the pressure dependence of each phonon mode revealed that the presence and stability of impurity-related LVMs may play a crucial role in determining the specific pathway of the pressure-induced phase transition in ZnO. In particular, strain analysis showed that a pronounced “strain burst” occurs as the hexagonal angle of the tetragonal phase opens just prior to the transformation into the octahedral phase. The final observations also suggest that the emergence of the Mn LVM1 mode at 524 cm⁻¹ could be responsible for a distinct transition route in Mn-doped ZnO during the tetragonal–octahedral phase transformation. Nevertheless, the precise nature of dopant-induced LVMs associated with different dopant elements requires further in-depth investigation[1,2].

i. Conclusion. Based on the comparative analysis of previously published studies and the current experimental observations, it can be concluded that the ongoing and planned laboratory experiments should be developed in alignment with earlier findings. These results not only facilitate faster utilization of experimentally obtained values but also contribute significantly to reducing defect concentrations that arise after high-pressure exposure in various semiconductor and memory devices. Strain analysis further validates that Mn- and Co-doped ZnO follow clearly different structural routes under compression, revealing that the dopant species and its interaction with the ZnO lattice critically shape the transformation dynamics. The emergence of pressure-induced structural states highlights the potential for engineering new memristive functionalities through controlled hydrostatic compression.

Overall, the work underscores the promise of doped ZnO systems as highly adaptable materials for next-generation neuromorphic, spintronic, and oxide-electronics applications. Pressure engineering emerges as a powerful methodology for activating structural phases and memristive states unattainable under ambient conditions, opening new opportunities for device innovation.

REFERENCES:

1. Chih-Ming Lin, Yi-Jia Tsai, Yi-Sheng Huang, Ming-Fong Tai, Sheng-Rui Jian, Jenh-Yih Juang, Effect of dopant-induced local vibration modes on pressure-driven structural phase transition in Mn and Co-doped ZnO., Lin et al., 2025, *iScience* 28, 112560 June 20, 2025 © 2025 The Author(s). Published by Elsevier Inc. <https://doi.org/10.1016/j.isci.2025.112560>.

2. Angela P. Lanchero A. Dussan, F. Mesa , Lina F. Prieto, Heiddy P. Quiroz, Jorge A. Calder, *Impact of Mn/Co substitution on magnetoelectric and structural properties of ZnO nanostructures thin films*, Received 30 October 2024; Received in revised form 22 January 2025; Accepted 28 January 2025 Available online 28 January 2025. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2025.e42337>.
3. Soatov A.Q., Turayev A.R. *Rux (zn) bilan legirlangan kremniy asosidagi shottki to'siqli diodning elektr xossalari va o'tuvchanlik mexanizmlari.*, *Scientific Reports Of Bukhara State University* 2025/9 (126). <https://orcid.org/0009-0004-0375-2889>.
4. Soatov A.Q., Turayev A.R. *Investigation of Phase Transitions and Physical Properties of Mn- and Co-Doped ZnO under High Pressure Conditions. International conference on digital innovations: current challenges and solutions in modern physics. FerDU. 2025-yil 17-18-oktyabr.* <https://orcid.org/0009-0004-0375-2889>.
5. Bishal Kumar Keshari and at all. *Experimental demonstration of in-memory computing using pressure stimulated SnO₂ x-based memristive device as inverter and active-low 2:1 multiplexer. The Royal Society of Chemistry* 2025. *J. Mater. Chem. C*, 2025, 13, 18225–18238. DOI: 10.1039/d5tc01687h.
6. N. Korsunska and at all, *Influence of compacting pressure on the electrical properties of ZnO and ZnO:Mn ceramics. Discover Applied Sciences* (2024).<https://doi.org/10.1007/s42452-024-05722-7>
7. Mohamad Hasan Aleinawi,Ameen Uddin Ammar,Merve Buldu-Akturk,Nur Selin Turhan, Shankari Nadupalli, and Emre Erdem*. *Spectroscopic probing of Mn-doped zno nanowires synthesized via a microwave-assisted route.* <https://doi.org/10.1021/acs.jpcc.2c00009> *J.Phys.Chem.C*2022,126,4229–4240.
2. 8. Gao Li and Zhang Jian-Min. *Effects of doping concentration on properties of Mn-doped ZnO thin films. Article in Chinese Physics B* October 2009 DOI: 10.1088/1674-1056/18/10/073.
9. Akihito Sawa, Tsukuba, Ibaraki 305-8562, *Resistive switching in transition metal oxides. Japan E-mail: a.sawa@aist.go.jp.* 8 june 2008 volume 11 number 6.

IRMOF-8 NING NUKLEATSIYAOLDI YIG‘ILISH MEXANIZMI: REAXFF MD ASOSIDAGI ATOMISTIK TAHLIL

Ergasheva Aziza Abdujabbor qizi,

Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti, Toshkent, O‘zbekiston

aziza.ergasheva@iplt.uz

[ORCID ID](#) 0009-0002-8416-5795

Xalilov Umedjon Boymamatovich,

Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti, Toshkent, O‘zbekiston, f.-m.f.d.

Antwerpen universiteti, Antwerpen, Belgiya

umedjon.khalilov@uantwerpen.be

[ORCID ID](#) 0000-0003-3841-1895

Annotatsiya. Metall-organik karkaslar (MOK) ning shakllanish mexanizmlari, xususan, nukleatsiya jarayonlar haligacha to‘liq yoritilmagan. Ushbu ishda IRMOF-8 ning nukleatsiyaoldi bosqichi (barqaror qurilishi bloki SBU shakllanishi) ilk bor ReaxFF molekulyar dinamika usulida o‘rganildi. Tahlillar Zn_4O klasterining ligandlar bilan bosqichma-bosqich koordinatsiyalanishi davomida sterik to‘siqlar tufayli bog‘lanish energiyasi pasayishini va elektron to‘yinganlik hisobiga barqarorlashuvni ko‘rsatdi. Molyar Gibbs energiyasining o‘zgarishi jarayonning spontanligini tasdiqladi. Natijalar IRMOF-8 hosil bo‘lishida uzoq masofali tartibdan avval, aynan lokal koordinatsion to‘yinganlik hal qiluvchi determinatsiya omili ekanligini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: IRMOF, molekulyar dinamika, etanol, ReaxFF.

NUCLEATION MECHANISM OF IRMOF-8: ATOMISTIC ANALYSIS BASED ON REAXFF MD

Abstract. The formation mechanisms of metal–organic frameworks (MOFs), particularly the nucleation processes, have not yet been fully elucidated. In this study, the prenucleation stage of IRMOF-8 formation (the development of a stable secondary building unit, SBU) was investigated for the first time using ReaxFF reactive molecular dynamics simulations. The analysis revealed that during the stepwise coordination of the Zn_4O cluster with ligands, the binding energy decreases due to steric hindrance, while system stabilization occurs through electronic saturation. The change in molar Gibbs free energy confirmed the spontaneity of the process. The results indicate that, in the formation of IRMOF-8, local coordination saturation serves as the decisive determinant prior to the establishment of long-range order.

Keywords: IRMOF, molecular dynamics, ethanol, ReaxFF.

МЕХАНИЗМ ПРЕДНУКЛЕАЦИОННОЙ СБОРКИ IRMOF-8: АТОМИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ REAXFF MD

Аннотация. Механизмы формирования металл-органических каркасов (MOK), в частности процессы нуклеации, до настоящего времени остаются недостаточно изученными. В данной работе впервые исследована преднуклеационная стадия формирования IRMOF-8 (образование устойчивого строительного блока SBU) методом реакционно-силовых молекулярных динамических расчетов ReaxFF. Анализ показал, что в процессе пошаговой координации кластера Zn_4O с лигандами снижение энергии связи происходит вследствие стерических препятствий, тогда как стабилизация системы обеспечивается электронным насыщением. Изменение мольной энергии Гиббса подтвердило спонтанность процесса. Полученные результаты демонстрируют, что при формировании IRMOF-8 решающим фактором является локальная координационная насыщенность, предшествующая дальнейшему порядку.

Ключевые слова: IRMOF, молекулярная динамика, этанол, ReaxFF.

Kirish. Metall-organik karkaslar (MOK) kristallik tabiati, yuqori darajadagi tartiblanganlik va sozlanadigan poroz tuzilmalari bilan ajralib turuvchi g‘ovak materiallar hisoblanib, metall ionlari yoki metall klasterlar (koordinatsion markazlar)ning ko‘p funktsiyali organik ligandlar bilan koordinatsion bog‘lanishlari

natijasida shakllanadi [1]. MOK asosidagi materiallar an'anaviy g'ovak materiallarga nisbatan tubdan farq qilib, ularning strukturasi yuqori darajada tartiblangan, moslashuvchan, yuzasi keng va ichki g'ovakligi kimyoviy jihatdan o'zgaruvchan bo'ladi [2]. Aynan shu noyob fizik-kimyoviy xususiyatlari tufayli MOKlar gazlarni adsorbsiyalash [3–5], kataliz [6–8], kimyoviy sensorlar [9–11] va dori tashuvchilar [12–14] kabi ko'plab sohalarida keng qo'llanilmoqda.


Bugungi kunda bir nechta asosiy MOK strukturalari, jumladan, UiO [15–17] ZIF [6,18,19], MIL [7,8,20] 8-10, va IRMOK [19,21–23], chuqur fundamental va amaliy tadqiqotlar markazida turibdi. Ular orasida IRMOK strukturalari alohida e'tiborga loyiq. Bu sinfdagi karkaslar yuqori g'ovakli, oldindan bashorat qilinuvchi simmetrik struktura va funksional guruhlar bilan modifikatsiya qilish imkoniyati tufayli keng tadqiq qilinmoqda. IRMOK strukturalari metall tugunlar (masalan, Zn(II) ionlari) va ditopik karboksilatli organik ligandlar o'rtasidagi koordinatsion bog'lanishlar asosida sintez qilinadi. Ularning ilk muvaffaqiyatli sintezi O.M. Yaghi guruhi tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, Zn–O–C asosidagi oktaedral tugunlar va ditopik ligandlar asosida yuqori darajada tartiblangan, primitiv kubik simmetriyaga ega karkaslar olingan [24].

IRMOKlarning kristallik darajasi, morfologiyasi va govakligini nazorat qilish maqsadida turli sintez usullari ishlab chiqilgan. Bular qatoriga solvotermal, mikroto'liqinli, elektrokimyoviy [25], sonokimyoviy [26] va mexanokimyoviy [27] metodlar kiradi MOKlarning shakllanishi va ayniqsa nukleatsiya (boshlang'ich kristall zarralar hosil bo'lishi) bosqichi molekulyar darajada murakkab bo'lib, ularni tajribaviy usullar bilan aniq kuzatish qiyin. Ko'plab hozirgi yondashuvlar tayyor MOKlar uchun umumiy erkin energiyani hisoblashga asoslangan bo'lib, ular kristallanish jarayonining bosqichma-bosqich mexanizmini to'liq yoritib berolmaydi [28–30]. MOKlarning shakllanish jarayonida nukleatsiya mexanizmlarini chuqur o'rganish tartibsiz fazadan kristall strukturaga o'tishda energetik barqarorlikni belgilovchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, molekulyar dinamika (MD) simulyatsiyalari kristallanish jarayonini buzmasdan tahlil qilish, energetik parametrlarni baholash hamda turli sintez sharoitlarini modellashtirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Avvalgi nazariy tadqiqotlarda kuch maydonlari yordamida MOK prototiplarining erkin energiyasi tahlil qilinib, sintez muvaffaqiyati va energetik barqarorlik o'rtasidagi bevosita bog'liqlik ko'rsatilgan. Xususan, olingan natijalarga ko'ra, $\Delta_{LMFEL} < 4,4$ kJ/mol·atom shartini qanoatlantiruvchi MOKlarning sintez qilinish ehtimoli yuqori ekanligi va erkin energiyaning pastligi strukturaviy amalga oshirishning (synthetic feasibility) muhim mezoni ekanligi aniqlangan [31]. Shuningdek, tadqiqotchilar MIL-101 karkasining ikkilamchi qurilish bloklari shakllanishida yuqori energetik to'siq mavjudligini va bu jarayonda tereftalat ligandlarining hal qiluvchi rolini ko'rsatib berdilar [32]. Keyinchalik esa molekulyar dinamika simulyatsiyalari orqali Zn-karboksilatli IRMOF-1 ning o'z-o'zini yig'ish jarayoni murakkab va ko'p bosqichli xarakterga ega ekanligi isbotlandi [33]. Biroq, mavjud adabiyotlarda asosan eng oddiy vakili hisoblangan IRMOF-1 keng o'rganilgan bo'lib, IRMOF oilasining boshqa vakillari, xususan, IRMOF-8 ning shakllanish mexanizmi to'liq yoritilmagan. Ligand o'lchamining kattalashishi (masalan, IRMOF-8 dagi naftalen tizimi) klaster atrofidagi sterik muhitni va yig'ilish kinetikasini IRMOF-1 ga nisbatan sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin. Shu bois, yirikroq ligandli tizimlarda nukleatsiyaoldi bosqichi, ya'ni, hali kristall panjara hosil bo'lmagan, ammo uning asosiy qurilish bloki (SBU – Secondary Building Unit) shakllanayotgan jarayonini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mazkur tadqiqotning maqsadi IRMOF-8 sintezining eng dastlabki bosqichini atomistik darajada yoritishdir. Ishda ReaxFF molekulyar dinamika usuli yordamida Zn(II) markazlari va katta hajmli naftalendikarboksilat ligandlari o'rtasidagi raqobatli koordinatsiyalanish jarayoni, sterik to'siqlarning bog'lanish energiyasiga ta'siri hamda barqaror SBU klasterining shakllanish mexanizmi ilk bor tizimli tahlil qilindi.

Modellashtirish usuli va tafsilotlari. Ushbu tadqiqot reaktiv molekulyar dinamika (MD) usullarini qo'llagan holda LAMMPS dasturiy to'plami [34] orqali amalga oshirildi. Tadqiqotda model tizimdagi atomlar orasidagi o'zaro ta'sirini ifodalash uchun ReaxFF potensialining [35] Han va uning hamkasblari [36] tomonidan ishlab chiqilgan parametrlaridan foydalanildi. ReaxFF klassik kuch maydonlaridan farqli ravishda bond-order formalizmi asosida bog'lanishlarning hosil bo'lishi va uzilishini, shuningdek, proton almashinuvi va koordinatsion jarayonlarni dinamik tarzda hisobga oladi [37]. 1-rasmda mono-IRMOK-8 strukturasi shakllanishi uchun Zn_4O koordinatsion markazi va 2,6-naftalendikarboksilat kislotasi molekulalari etanol erituvchisida joylashgan holati tasvirlangan. Ushbu konfiguratsiya molekulyar dinamika simulyatsiyasi uchun boshlang'ich tizim sifatida tanlangan bo'lib, u koordinatsiyalanish jarayonini modellashtirishga imkon beradi.




1-rasm. Zn_4O klasteri(II) va 2,6-naftalendikarboksilat(III) kislotasining etanol(I) muhitiga joylashtirilgan boshlang'ich holati(IV).

Dastlab, termodinamik tizimning energiyasi eng tez tushish (steepest descent) va qo'shma gradient (conjugate gradient) usullarini navbatma-navbat qo'llash orqali minimallashtirildi. So'ngra tizim Nosé-Hoover termostati boshqaruvidagi izotermik-izobarik (NpT) ansamblda (atomlar soni N , bosim p va harorat T o'zgarmas sharoitda), 600 K harorat va 1 atm bosimda muvozanatda ushlandi. Ushbu yuqori harorat simulyatsiya dinamikasini tezlashtirish maqsadida tanlangan bo'lib, bu MD modellashtirishdagi vaqt shkalalarini real tajribalardagi (masalan, CVD jarayonlaridagi kabi) vaqt masshtablariga yaqinlashtirish imkonini beradi. Bunda Tomas va hamkasblari tomonidan taklif etilgan haroratni tezlashtirish sxemasidan foydalanildi [38]. Mazkur usul Arrhenius tenglamasiga asoslangan holda modellashtirish harorati (T_{sim}) va unga mos keluvchi eksperimental harorat (T_{exp}) o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi hamda qisqa modellashtirish vaqtini yuqori T_{sim} qiymatlari orqali kompensatsiya qiladi. Ushbu tezlashtirish sxemasiga ko'ra, modellashtirishda qo'llanilgan $T_{\text{sim}} = 600$ K harorat, real vaqt shkalasida etanolning qaynash nuqtasidan past bo'lgan haroratga ($T_{\text{exp}} \approx 351$ K) ekvivalentdir. Bu esa o'rganilayotgan jarayonning aynan suyuq fazada kechishini ta'minlaydi.

MD modellashtirishlarda vaqt qadami sifatida 0,1 fs tanlanib, jarayonlar davomiyligi 1,4 ns tashkil etdi. Olingan natijalarni o'rtachalash maqsadida har bir holat 5 martadan takrorlandi.

Natijalar va ularning muhokamasi. 2a-rasmda etanol muhitida metall asos (Zn_4O) hamda organik ligandlarni o'zaro birikib amorf struktura hosil bo'lish jarayoni tasvirlangan.



2-rasm. a) Etanol muhitida Zn_4O koordinatsion markazi va 2,6-naftalendikarboksilat ligandlarining o'zaro bog'lanishi natijasida amorf struktura hosil bo'lish jarayoni, b) Mono-IRMOK-8 strukturasi shakllanishining bosqichma-bosqich koordinatsiyalanish jarayoni.


Ushbu ishda biz MonoIRMOK-8 ning hosil bo'lish mexanizmlarini tahlil qilamiz (2 b-rasm, sariq uzun chiziq bilan ajratilgan qism). 2b-rasm mono-IRMOK-8 strukturaviy birligi shakllanishining molekulyar darajadagi evolyutsiyasini namoyon qiladi. Xususan, har bir bosqichda (2b-rasm 1 dan 6 gacha) koordinatsion markazga navbatma-navbat bitta yangi ligand birikib boradi: birinchi holatda bitta ligand, ikkinchisida ikkita, va shu tarzda oltinchi holatda to'liq olti ligand bilan koordinatsiyalangan holatga

erishiladi. Bunda ligandlarning metall asos (koordinatsion markaz) bilan ketma-ket koordinatsiyalanishi jarayonida yuzaga kelgan bog‘lanish energiyasi ($E_{\text{bog'}}$), metall asosdagi xususiy zaryad o‘zgarishi bosqichma-bosqich tahlil qilindi. Hisoblash natijalariga ko‘ra, birinchi ligand koordinatsiyalanganda bog‘lanish energiyasi eng yuqori ($E_{\text{bog'}} = 3,5 \text{ eV}$) bo‘lib, metall asosdagi zaryad $+0.91395e$ ni tashkil etdi. Bu holatda metall markaz yuqori darajada elektronlarga muhtoj, ya‘ni elektron yetishmovchiligi mavjud bo‘lgan reaktiv markaz sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir keyingi ligand qo‘shilishi bilan bog‘lanish energiyasi bosqichma-bosqich kamayib boradi (4-rasm, qizil chiziq). Xususan, ikkinchi va uchinchi ligandlar uchun 2,3 eV bo‘lsa, to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi ligand uchun esa mos ravishda 1,8 eV, 1,7 eV va 1,4 eV ni tashkil etadi.

Kuzatilgan bog‘lanish energiyasining 3,5 eV dan 1,4 eV gacha bosqichma-bosqich pasayishi ligandlar soni ortishi tufayli sterik to‘siqlarning kuchayishi bilan izohlanadi. Dastlabki ligandlar ($n=1-3$) Zn_4O klasteriga erkin yaqinlasha olsa, keyingi bosqichlarda ($n=4-6$) avval o‘rnashgan katta hajmli naftalendikarboksilat guruhlarini yangi kelayotgan ligandlar uchun fazoviy to‘siq hosil qiladi. Bu esa “koordinatsion to‘yinganlik” effekti nafaqat elektron, balki geometrik omillarga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Ligandlar qo‘shilishi bilan Zn atomlaridagi musbat zaryadning keskin kamayishi ($+0,91e \rightarrow +0,29e$) kuchli liganddan-metallga zaryad ko‘chishi jarayoni sodir bo‘layotganidan dalolat beradi (3a-rasm, qora punktir chiziq). Garchi ReaxFF potensialida qo‘llaniladigan EEM usuli zaryadlarni kovalent bog‘lar bo‘ylab kuchli delokalizatsiya qilishga moyil bo‘lsa-da (bu absolut qiymatlarning DFT hisob-kitoblariga nisbatan kichikroq bo‘lishiga olib kelishi mumkin), kuzatilgan umumiy tendensiya metall markazining elektrofillik xossasi pasayib, barqaror neytral klaster holatiga intilayotganini fizik jihatdan to‘g‘ri ifodalaydi.

3-rasm. a) Ligandlar soniga bog‘liq holda mono-IRMOK-8 shakllanishidagi energetik va zaryad



holatlari o‘zgarishi: bunda $n=1-6$ ligandlar soni ortib borishi bilan bog‘lanish energiyasi o‘zgarishi qizil, metall asosdagi zaryad o‘zgarishi qora va Gibbs erkin energiyasining o‘zgarishi ko‘k rangda tasvirlangan, b) Mono-IRMOK-8 strukturasi radial taqsimot funksiyasi

Tadqiqotda shuningdek kordinatsiyalangan ligandlar soning ortishi bilan tizim barqaroligining o‘zgarib borishi Gibbs erkin energiyasi formulasidan foydalangan holda baholandi.

$$\Delta G = E - \sum_i \chi_i \mu_i \quad (1)$$

Bu yerda ΔG – Gibbs erkin energiyasi, E – qaralayotgan strukturaning kogeziya energiyasi, χ va μ mos ravishda struktura tarkibidagi har bir tur atomning molar ulishi va kimyoviy potentsiali. Bizning holda μ rux, uglerod, kislorod va vodorod uchun mos ravishda -1,35 eV, -7,64 eV, -2,79 eV va -2,36 eV ni tashkil qiladi. Gibbs erkin energiyasi ham har bir bosqichda izchil ravishda $-0,69425 \text{ eV}$ dan $-0,74301 \text{ eV}$ gacha kamayib boradi (4-rasm, ko‘k chiziq). Gibbs erkin energiyasining har bir bosqichda manfiy qiymatlar tomon siljishi ($\Delta G < 0$) ligandlarning klasterga birikishi termodinamik jihatdan qulay ekanligini tasdiqlaydi. Suyuq fazadagi erkin ligandlarning klaster tarkibiga o‘tib, tartibli struktura hosil qilishi entropiyaning kamayishiga olib kelsa-da, kuchli koordinatsion bog‘larning hosil bo‘lishi hisobiga yuzaga keladigan entalpiya yutug‘i jarayonning umumiy spontanligini ta‘minlaydi.

Bundan tashqari, shakllangan Mono-IRMOF-8 klasteri uchun radial taqsimot funksiyasi (RDF) tahlil qilindi (3b-rasm). Spekrtning qisqa masofa diapazonida ($1-2 \text{ \AA}$) kuzatilgan o‘tkir cho‘qqilar metall va kislorod atomlari o‘rtasida kuchli koordinatsion bog‘lanishlar hosil bo‘lganligini, $2,5-4,0 \text{ \AA}$ oralig‘idagi

cho‘qqilar esa organik ligand fragmentlaridagi (O–C va C–C) ichki strukturaviy tartibni aks ettiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar lokal miqyosda barqaror ikkilamchi qurilish bloki (SBU) to‘liq shakllanganidan dalolat beradi. Biroq, uzoq masofalarda ($r > 5 \text{ \AA}$) xarakterli cho‘qqilarning mavjud emasligi va $g(r)$ funksiyasining birlikka intilishi, modellastirilgan suyuq fazada klasterlarning o‘zaro tartibsiz joylashganligini va uzoq masofali kristall tartib hali yuzaga kelmaganligini ko‘rsatadi. Mazkur holat o‘rganilayotgan jarayonning aynan nukleatsiyaoldi bosqichiga to‘g‘ri kelishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda ReaxFF molekulyar dinamika usuli yordamida IRMOF-8 karkasining nukleatsiyaoldi bosqichi, ya‘ni, barqaror ikkilamchi qurilish bloklari (SBU) shakllanish mexanizmi molekulyar darajada tadqiq etildi. Jarayonni modellastirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, SBU shakllanishi sterik omillar va elektron barqarorlik o‘rtasidagi raqobatli muvozanat asosida kechadi. Xususan, Zn_4O klasteriga ligandlarning ketma-ket birikishi jarayonida sterik to‘siqlarning ortishi hisobiga bog‘lanish energiyasining 3,5 eV dan 1,4 eV gacha (taxminan 60% ga) keskin pasayishi aniqlandi. Bu koordinatsion to‘yinganlik nafaqat kimyoviy bog‘lar soni, balki ligandlarning fazoviy joylashuvi (geometrik to‘yinganlik) bilan ham qat‘iy nazorat qilinishidan dalolat beradi. Shu bilan birga, molyar Gibbs erkin energiyasining hisoblangan qiymatlari jarayonning termodinamik jihatdan spontan ekanligini va etanol muhitida energetik barqaror klasterlar hosil bo‘lishini tasdiqladi. Radial taqsimot funksiyasi (RDF) tahlili tizimda uzoq masofali kristall tartib ($r > 5 \text{ \AA}$) mavjud bo‘lmasa-da, lokal miqyosda ($r \approx 1\text{--}2 \text{ \AA}$) barqaror koordinatsion tugunlar to‘liq shakllanganligini ko‘rsatdi. Umuman olganda, mazkur ish IRMOF-8 sintezida kristall panjara o‘shidan avval, aynan lokal koordinatsion va geometrik to‘yinganlikka erishish hal qiluvchi deterministik omil ekanligini ilmiy asoslaydi va g‘ovak materiallarning boshqariluvchan sintezi uchun yangi nazariy tushunchalarni taqdim etadi.

ADABIYOTLAR:

- 1 *P. Rocío-Bautista et al., Separations* 6, 3 (2019).
- 2 *J. Yu et al., Mater. Horiz.* 4, 557 (2017).
- 3 *S. Tavares et al., Microporous and Mesoporous Materials* 254, (2017).
- 4 *A. Pal et al., Dalton Trans.* 46, 15280 (2017).
- 5 *Z. Niu et al., New J. Chem.* 42, 19764 (2018).
- 6 *M. A. Nazir et al., Surfaces and Interfaces* 34, 102324 (2022).
- 7 *S. H. Alrefaee et al., Surfaces and Interfaces* 40, 103133 (2023).
- 8 *O. Grad et al., Catalysts* 11, 11 (2021).
- 9 *H. He et al., Inorg Chem* 57, 15062 (2018).
- 10 *M. SK et al., Inorg. Chem.* 57, 14574 (2018).
- 11 *L. Liu et al., Dalton Trans.* 47, 16190 (2018).
- 12 *X. Zhong et al., J Control Release* 300, 81 (2019).
- 13 *V. Nejadshafiee et al., Mater Sci Eng C Mater Biol Appl* 99, 805 (2019).
- 14 *R. Safdar Ali et al., Molecules* 27, 100 (2021).
- 15 *S. Begum et al., Surfaces and Interfaces* 20, 100587 (2020).
- 16 *E. A. A. ElHussein et al., Journal of Environmental Chemical Engineering* 8, 103898 (2020).
- 17 *N. Liu et al., Surfaces and Interfaces* 41, 103134 (2023).
- 18 *M. Gomar et al., Materials Science and Engineering: C* 97, 461 (2019).
- 19 *E. Kim et al., Surfaces and Interfaces* 41, 103163 (2023).
- 20 *S. Jiang et al., Surfaces and Interfaces* 30, 101843 (2022).
- 21 *H. E. Emam et al., Surfaces and Interfaces* 30, 101940 (2022).
- 22 *D. Yin et al., Molecules* 27, 12 (2022).
- 23 *N. Yuksel et al., Colloids and Surfaces A: Physicochemical and Engineering Aspects* 641, 128510 (2022).
- 24 *O. M. Yaghi et al., Nature* 423, 705 (2003).
- 25 *J.-Z. Wei et al., Inorg. Chem.* 57, 3818 (2018).
- 26 *Y.-R. Lee et al., Microporous and Mesoporous Materials* 213, 161 (2015).
- 27 *T. Stolar et al., CrystEngComm* 22, 4511 (2020).
- 28 *T. Lee et al., CrystEngComm* 19, 426 (2017).
- 29 *M. Filez et al., Cell Reports Physical Science* 2, 100680 (2021).
- 30 *M. J. Van Vleet et al., Chem. Rev.* 118, 3681 (2018).

PHYSICS

- 31 *R. Anderson et al., Chem. Mater.* 32, 8106 (2020).
- 32 *D. C. Cantu et al., Chem. Mater.* 26, 6401 (2014).
- 33 *D. Biswal et al., ACS Nano* 11, 258 (2017).
- 34 *A. P. Thompson et al., Computer Physics Communications* 271, 108171 (2022).
- 35 *A. C. T. van Duin et al., J. Phys. Chem. A* 105, 9396 (2001).
- 36 *S. S. Han et al., Chem. Commun.* 46, 5713 (2010).
- 37 *T. P. Senftle et al., Npj Comput Mater* 2, 15011 (2016).
- 38 *C. de Tomas et al., Carbon* 119, 1 (2017).

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ПРОДУКТИВНОСТИ ПАСТБИЩ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Хасанов Икром Хасанович,*-кандидат сельскохозяйственных наук.**Старший научный сотрудник Бухарского**научно – производственного центра**семеноводства пастбищных культур**Министерство сельского хозяйства Узбекистана***Остонова Насиба Хикматовна,***- Старший научный сотрудник Бухарского**научно – производственного центра**семеноводства пастбищных культур**Министерство сельского хозяйства Узбекистана, магистр БухГУ*

Аннотация. Опрыскивания многолетних пастбищных растений верблюжьей колючки и солодки голой в фазе цветения растений в Бухарской области, повышают урожайность сена, сухой вес растений, кормовые достоинства и уровень рентабельности удобрений в каракулеводческих хозяйствах. Пастбищный оборот, восстанавливает состояние растительности и повышает продуктивность животных и доходность хозяйств.

Ключевые слова: Растение, биологические системы, Продуктивность, Плодовитость, Питание.

WAYS TO INCREASE THE PRODUCTIVITY OF PASTELANDS IN THE BUKHARA REGION

Abstract. Spraying perennial pasture plants (camel's ear and licorice) during the flowering phase in the Bukhara region increases hay yield, plant dry weight, feed value, and the profitability of fertilizers on Karakul water farms. Pasture rotation restores vegetation health and improves animal productivity and farm profitability.

Keywords: Plant, biological systems, Productivity, fecundity. Nutrition.

BUXORO VILOYATIDAGI YAYLOVLARNING HOSILDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. Buxoro viloyatida o'simliklarning gullash davrida tuyay tikan va yalang'och qizilmiya o'simligining ko'p yillik yaylov o'simliklarini sepish qorako'lchilik xo'jaliklarida pichan hosildorligini, o'simliklarning quruq vaznini, ozuqa qiymatini va o'g'itlarning rentabellik darajasini oshiradi. Yaylov almashlab ekish o'simliklarni tiklaydi, hayvonlarning mahsuldorligini va fermer xo'jaliklarining rentabelligini oshiradi.

Kalit so'zlar: o'simlik, biologik sistemalar, hosildorlik, unuvchanlik, ozuqaviylik.

В Центральной Азии 90 % территории занимают пустыни, 15 % горы, 750 тысяч га богарные земли и 4 % орошаемой пашни. Основным водным источником является Амударья, Сырдарья, Норын, Зарафшан и вертикальные, коллекторы и дренажи за счет грунтовых вод.

Аральское море занимает площадь 5,5 млн га (12,5 %) земель республики. Сейчас осталось 13,7 5 площади с соленой (35 г/л) водой, а 87,3 % высохла, из-за нехватки воды. С высохшей площади ежегодно с помощью ветра поднимается 75 млн тонн водорастворимых солей, которые распространяется на огромные площади земного шара.

По решению партии и правительства республики Узбекистан до настоящего времени посеяно и посажено пастбищных растений на дне борозды на глубину 30-40 см на общей площади 2,2 млн га (24 %) высохших площадей. Борозды проведены на расстоянии через 10 м. После ликвидации колхозов и совхозов области в 2006 году, каждому каракулеводческому хозяйству выделено по 300 гектаров орошаемого пашни для выращивания люцерны и других кормовых культур. На этих землях, вдоль оросительных систем и других неиспользуемых земель, корневища солодки голая на можно семенами и корневыми черенками длиной 10-12 см посадить глубину 10-15 см. Плантации янтака и

солодки голой можно проводить осенью полосой 8-10 м столько же глубиной. Через 3-4 года корнями полностью покрываются растений всех площадей с многолетними растениями. Янтак, солодки, юлгуна, изенья, шуваваха широко применять опрыскивание в фазе цветения растений карбамидными суспензиями из расчета 50-60 кг/га на 300 л/га воды и опрыскивать до появления солнца.

Имеющейся пастбищ хозяйства, разделить на 5-6 участков для нормального условия развития других кормовых пастбищных растений. Внесения азотных удобрений, и пастбищные обороты на пастбищных области, повышают продуктивность каракульских овец. При опрыскивания карбамида растения используют 80 % азота, а при внесения в почву это показатель не превышают 40-50 % (Д.А.Кореньков).

Таблица 1.

**Эффективность карбамидной суспензии на продуктивность растений верблюжьей колючки и солодки голой в Бухарской области.
(Среднее за 3 года).**

Варианты	Густота стояния	Сухой вес 1-20 растения		Кормовые единицы		Урожайность сена по укосам						Общий урожай		Уровень
	Тысяч га	2	%	К.ед	%	1-ый ц/га	%	2-ой ц/га	%	3-ый ц/га	%	ц/га	%	
Контроль (без удобрений)	240,0	44,7	100	0,28	100	39,4	74	13,6	26			53,6	100	
Карбамид 50 кг/га		50,9	114	0,28	111	46,5	85	13,2	15			66,8	125	30,1
Контроль (без удобрений)	650,0	58,8	100	0,42	100	80,056	56	32,0	22	30,6	22	142,6	100	
Карбамид 50 кг/га	11	65,3	128	0,42	107	113,0	63	32,0	18	33,7	19	178,7	125	35,2

Густота стояний растений солодки голой в 2,7 раза высота роста на 15 %, сухой вес растений урожайность сена на 17 % кормовые достоинства на 0,14 % (29%), обменной энергии (40 %) и рентабельности минеральных удобрений до 35 %. Солодка голой произрастающая в естественных условиях имеет большую густоту стояния растений или в 2,5-3 раза, сухой вес растений 2 раза, кормовые единицы на 0,14 (29%) больше чем верблюжьей колючки. Кроме того, до наступления заморозков можно проводить 3-ий укос урожайность которого составляет более 30 ц/га.(табл.2)

Опрыскивание карбамидной суспензии на растениях верблюжьей колючки и солодки голой в среднем за 3 года повысило урожайность сена янтака на 3,9 раза и солодки голой в 2,7 раза по сравнению с контролем.

Разрастание растений вдоль оросительного канала на территории Бухарской опытной станции научно-исследовательского института селекции, семеноводства и агротехнологии возделывания хлопчатника, без поливов обеспечило получению высокой урожайности вегетативной массы.

Фенологические наблюдения за ростом и развитием растений, проводились на 50 за этикетированных растениях.

Площадь делянки 400 км (длина 10 м, ширина 40 м). Урожайность сырой массы взвешивалась на электронных весах и переведена на сухую массу по соотношению 3:1 математическая обработка проводилось по методу Б.А.Доспехова.

Таблица 2.

Влияние карбамидной суспензии на вес и всхожести семян верблюжьей колючки и солодки голой.

Варианты	Вес 100 семян, г	Всхожесть, %
----------	------------------	--------------

BIOLOGY

	2020	2021	Среднее	%	2020	2021	Среднее	%
Верблюжья колючка								
Контроль (без удобрений)	12,2	15,0	13,6	100	32,6	30,2	31,1	100
Карбамид 50 кг/га	14,5	17,0	15,7	115	72,5	68,9	70,7	229
Солодка голая								
Контроль (без удобрений)	23,8	24,0	23,9	100	30,8	31,4	31,1	100
Карбамид 50 кг/га	28,5	29,6	29,2	122	82,6	84,8	83,7	269

Применение карбамидной суспензии на растениях верблюжьей колючки и солодки голая в фазе цветения повышает вес семян соответственно 2,1=(15%), 5,3=(22%) и всхожесть на 1,9 и 2,7 раза.

Таблица 3.

Площади посевов пастбищных культур по республику Узбекистана в (2018-2024 гг).

Области	Районы	Площади семенных культур, га
Каракалпакская Республика	Тахтакупирский	2000
Бухара	Алатский,	150
	Гиждуванский,	1300
	Жондорский, Караулбазарский,	400
	Шафирканский	1150
		1500
Джиззах	Фаришский	300
Навайский	Канимехский	2000
	Кызылтепинский	2500
Кашкадарынский	Нишанский,	500
	Муборакский,	500
	Гузарский,	500
	Миришкарский	1000
Самаркандский	Нурабадский,	500
	Пахтачийский	500
Сурхандарынский	Кумкурганский	200
Итого:		15000

По республике на пастбищных зонах, на посеянных культурах заготавливается посевные семена до 2025 года 15 тысяч гектаров. В Республику Каракалпакстана Тахтакупирский район 2000 га (донашур, кунгирбаш, черкез, изен), в Бухарский и Наваиской областях по 4,5 тысяч гектаров (чогон, саксаул, олабута, коврак, черкез, баликкуз, янтак), в Джиззакской области (кейреук, чогон, саксаул, янтак, баликкуз), в Самаркандский 1000 га (саксаул, изен, шувак, янтак, олабута), в Кашкадарынский области 2500 га (кандим, чогон, черкез) и в Сурхандарынский области 200 га (черкез, чогон, терескен). В 2019-2024 году по центру наибольшая площадь семеноводческих посевов занимают черкез -3706 га, саксаул -3631 га, чогон-162 га, терескен 99 га. Всего заготавливается ежегодно семена пастбищных культур по 30-60 тонн.

Уход, охрана и заготовка семян площадей осуществляются работниками центра.

Таблица 4.

Влияние биостимуляторов на всхожесть семян и накопление биомассы (среднее 2 года).

Биостимуляторы	Янтак, %			Солодка голая, %		
	всхожесть	биомасса,г	%	всхожесть	биомасса,г	%
Контроль (без замочки)	31,4	3,4	100	44,9	43,1	100
Калий фосфат	69,0	4,8	140	48,3	73,0	167
Аминомакс	77,3	4,9	144	57,6	98,9	229
Геогумат	87,0	5,7	167	61,9	118,3	274

Семена пастбищных культур имеют низкую всхожести семян, порядка 10-60 процентов, распространяется в основном с помощью ветра и корневищами. Применение биостимуляторов на замочке семян повышают всхожести семян янтака в 2,8 раза и солодки голая 1,4 раза. Накопление биомассы 1,7-2,7 раза по сравнению с контролем (табл 4).

ЛИТЕРАТУРА:

1. Мирзиеев Ш.М. – Ўзбекистон Республикаси Президентининг 4420, 3603, 605 а қарорлари ва фармонлари.
2. Атабаева Х., Тажетдинов Н. - Влияние стимуляторов на всхожесть семян солодки. Ж. «Агроилм», №3, 2019 с-34-38.
3. Кореньков Д.А. – Справочник агрохимика Москва, 1980 с-325.
4. Шамсиддинов З.Ш – Создание долголетних пастбищ в аридной зоне Средней Азии. Ташкент, с 1975 с 1975.
5. Хасанов И.Х. – Эффективность применения карбамидной суспензии на верблюжьей колючки и солодки голой в Узбекистане. Ж. «Актуальные проблемы современной науки №6 2022, с 77-82 .

POLIEFIR-EFIR-KETON SULFONAT/TiO₂ VA ZrO₂ NANOTRUBKALI NANOKOMPOZIT ION O'TKAZGICHLAR SINTEZI

Xamidov Anvar,

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti dotsenti v.b.

anvar.khamidov@polito.uz

Djumag'ulov Sh.

O'zbekiston Milliy universiteti Kimyo fakulteti doktoranti

Annotatsiya. Zr yoki Ti metalining elektrokimyoviy anodlanishi natijasida hosil bo'lgan sirkoniy yoki titan nanotrubkalari proton o'tkazuvchi sulfolangan poliefir-eter-keton (SPEEK) ionomeri bilan infiltratsiya qilish yo'li bilan nanokompozitli qattiq ion o'tkazgich tayyorlandi. Olingan material skanerlovchi elektron mikroskop (SEM), XRD va IQ- spektroskopiya usullari yordamida o'rganilgan. Impedans spektroskopiyasi infiltratsiyadan so'ng o'tkazuvchanlikning bir necha darajaga ko'payishini aniqladi; bundan tashqari, TiO₂nt-SPEEK nanokompozitining impedansi nisbiy namlikka juda sezgir. Ushbu ion o'tkazuvchan nanokompozitlarning mumkin bo'lgan qo'llanilishi qattiq holatdagi namlik sensorlari yoki geterogen katalitik materiallarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Nanokompozit materiallar, polimer elektrolitlar, proton o'tkazuvchanlik, namlikni aniqlash, nt-nanotrubkalar.

ЧУВСТВИТЕЛЬНЫЙ К ВЛАГЕ НАНОКОМПОЗИТНЫЙ ПРОВОДНИК ТВЕРДЫХ ИОНОВ: СУЛЬФИРОВАННЫЙ ПОЛИЭФИР-ЭФИР-КЕТОН В НАНОТРУБЧАТОЙ МАТРИЦЕ TiO₂ ИЛИ ZrO₂

3. <https://yuz.uz/news/talim-islohotlari-uchun-xalqaro-standartlar-zarur>
4. <https://yuz.uz/news/professional-talim-tizimi-va-xalqaro-andozalar>

O'LCHASH QURILMALARIDA NEYRON TARMOQLARDAN FOYDALANISH

Tursunov Alisher Ravshan o'g'li,

Qarshi davlat texnika universiteti. Shahrisabz oziq-ovqat muhandisligi fakulteti o'qituvchisi.

alishertursunov260@gmail.com

Axmedov Akbar Akramovich,

Qarshi davlat texnika universiteti. Shahrisabz oziq-ovqat muhandisligi fakulteti o'qituvchisi

akbarakramovich1111@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda o'lchash qurilmalarida sun'iy neyron tarmoqlaridan foydalanishning nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari va afzalliklari yoritilgan. Neyron tarmoqlarining murakkab funksiyalarni o'z-o'zidan o'rganish, signallarni qayta ishlash, chiziqli bo'lmagan jarayonlarni modellash va shovqinli ma'lumotlar sharoitida aniq natija chiqarish qobiliyatlari zamonaviy o'lchash tizimlarining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari neyron tarmoqlar asosidagi o'lchash tizimlari an'anaviy algoritmlarga nisbatan yuqori moslashuvchanlik, aniqlik va tezkorlikka ega ekanini ko'rsatadi. Ish sanoat avtomatikasi, metrologiya, elektronika, tibbiyot diagnostikasi, energetika hamda IoT tizimlaridagi aqlli sensorlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: neyron, tarmoq, kibernetika, sensor tizimlar, signallar, kremniy, uzatuvchi funktsiya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ В ИЗМЕРИТЕЛЬНЫХ ПРИБОРАХ

Аннотация. В данной работе изложены теоретические основы, практические возможности и преимущества использования искусственных нейронных сетей в измерительных приборах. Способность нейронных сетей к самостоятельному обучению сложным функциям, обработке сигналов, моделированию нелинейных процессов и выдаче точных результатов в условиях зашумлённых данных играет важную роль в повышении эффективности современных измерительных систем. Результаты исследования показывают, что измерительные системы на основе нейронных сетей обладают значительно большей адаптивностью, точностью и быстродействием по сравнению с традиционными алгоритмами. Работа имеет практическое значение для промышленной автоматизации, метрологии, электроники, медицинской диагностики, энергетики, а также интеллектуальных сенсорных систем в составе IoT-технологий.

Ключевые слова: нейрон, сеть, кибернетика, сенсорные системы, сигналы, кремний, передаточная функция.

APPLICATION OF NEURAL NETWORKS IN MEASUREMENT INSTRUMENTS

Abstract. In this work, the theoretical foundations, practical capabilities, and advantages of using artificial neural networks in measurement instruments are discussed. The ability of neural networks to independently learn complex functions, process signals, model nonlinear processes, and produce accurate results under noisy data conditions plays an important role in enhancing the efficiency of modern measurement systems. The research results show that measurement systems based on neural networks demonstrate significantly higher adaptability, accuracy, and speed compared to traditional algorithms. The study has practical significance for industrial automation, metrology, electronics, medical diagnostics, energy systems, as well as intelligent sensors within IoT technologies.

Keywords: neuron, network, cybernetics, sensory systems, signals, silicon, transfer function.

Kirish. Sun'iy neyron tarmoqlar nazariyasini yaratishda **konnektсионизм** (inglizcha connection – bog'lanish) katta ta'sir ko'rsatdi. Konnektсионизм – bu inson miya (tafakkur) modellarini yaratish, o'rganish va rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi sun'iy intellekt bo'limidir. Konnektсионизм nuqtayi nazaridan neyron tarmoqlarni qurish konsepsiyasining asosi shundan iboratki, neyronlarni juda sodda avtomatlar yordamida modellashtirish mumkin. Miyaning butun murakkabligi, uning moslashuvchan ishlashi va boshqa muhim xususiyatlari esa aynan **neyronlar orasidagi bog'lanishlar** bilan belgilanadi. Har bir bog'lanish – bu signalni uzatuvchi sodda elementdir.

Bunday yondashuvga ko'ra neyron tarmoq modeli quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

• **Tizimning bir xilligi** barcha elementlar juda sodda, tizimning xulq-atvori asosan bog‘lanishlar tuzilishiga bog‘liq;

• **Ishonchlilik** – ishonchsiz elementlardan tashkil topgan tizim ko‘p sonli bog‘lanishlar hisobiga barqaror ishlaydi;

• **Golografiklik** – tizimning bir qismi buzilganda ham umumiy xususiyatlar saqlanib qoladi.

Faraz qilinishicha, bog‘lanishlar tizimining keng imkoniyatlari – eski aloqalarni qayta faollashtirish (demaskirovka qilish) va yangi aloqalar yaratish – modelning sodda elementlardan tashkil topganligi, ularning ishonchsizligi va ba’zi aloqalarning buzilishi kabi kamchiliklarni qoplaydi.

Neyron tarmoqlarning matematik modellari rivojlanishining dastlabki bosqichlarida konneksionizm nihoyatda muhim rol o‘ynadi. Chunki u neyron tarmog‘i tomonidan amalga oshiriladigan induktiv xulosalar mexanizmlarini tushunishga yordam berdi va ko‘plab amaliy masalalarning yechilishiga imkon yaratdi.

Biroq real vazifalarga mos matematik neyron tarmoq modellari yaratish uchun inson miyasining biologik ishlash prinsiplari bo‘yicha yanada chuqur ilmiy tadqiqotlar talab etiladi.

Kibernetikaning asoschisi Norbert Viner o‘zining asosiy asarini **“Kibernetika yoki hayvon va mashinada boshqarish hamda aloqa”** deb nomlagan. Bu ta’rif orqali Viner boshqaruv qonunlari tirik va jonsiz tabiat uchun umumiy ekanligini ko‘rsatdi va shu bilan kibernetikaning fundamental ekanini belgilab berdi. Endi kibernetika nuqtayi nazaridan insonning sensorial tizimlari funksiyalarini umumiy ko‘rinishda ko‘rib chiqamiz.

Qo‘llanilgan metodlar. Inson atrof-muhit va organizmning ichki muhiti haqidagi ma’lumotlarni **sensor tizimlar** yordamida oladi, bu tizimlarni I.P.Pavlov **analizatorlar** deb atagan. Zamonaviy neyrofiziologiya nuqtayi nazaridan sensor tizimlar – bu periferik retseptorlar (sezgi organlari), ulardan keluvchi nerv tolalari (o‘tkazuvchi yo‘llar) va markaziy nerv tizimi hujayralari (sensor markazlar)dan tashkil topgan maxsus nerv tizimi bo‘laklaridir. Sensor organlarda tashqi ta’sir energiyasi **asablardagi signalga** (retseptor potentsiali) aylantiriladi, u esa keyinchalik nerv hujayralarining impulsli faolligiga – **harakat potentsialiga** o‘tadi. O‘tkazuvchi yo‘llar orqali bu potentsiallar sensor markazlarga yetib boradi, bu markazlar hujayralarida nerv signallarining **qayta ishlanishi (qayta kodlanishi)** sodir bo‘ladi.

Sensor tizimning barcha bo‘g‘inlarida signallarni kodlash va tahlil qilish bilan bir vaqtda **dekodlash** – ya’ni sensor kodni “o‘qish” ham amalga oshiriladi. Dekodlash jarayoni sensor markazlarning motor (harakat) va assotsiativ miyaning qismlari bilan o‘zaro bog‘liqligi asosida amalga oshiriladi. Motor tizim hujayralarining nerv impulsalaridan esa qo‘zg‘alish yoki tormozlanish yuzaga keladi. Natijada **harakat (amal)** yoki **harakatsizlik (to‘xtash)** vujudga keladi.

Alohida ta’kidlash kerakki, sensor tizimlardagi informatsiya tashuvchisi **elektr tabiatiga ega**. Demak, sensor tizimlarning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- signallarni qabul qilish (retsepsiya);
- retseptor potentsialini impulsli faollikka aylantirish;
- boshlang‘ich faollikni sensor markazlarga uzatish;
- sensor markazlarda signalni qayta ishlash (transformatsiya);
- signallarning xususiyatlarini tahlil qilish;
- signallarni identifikatsiya qilish;
- qaror qabul qilish.

E’tibor berilsa, insonning tashqi muhit ta’sirini sezishi haqidagi mazkur tavsif boshqaruv sistemasining ishlashini fiziologiya terminlari orqali tasvirlashdir. Boshqaruv tizimidagi **datchiklar** rolini retseptorlar, **boshqaruvchi EHM (kompyuter)** vazifasini inson miyasi, **ijro mexanizmlari** vazifasini inson mushaklari, **harakat dasturi generatori** vazifasini esa yana miya bajaradi.

Biologik boshqaruv tizimlarining markaziy bo‘g‘ini – bu miya bo‘lib, u 100 milliarddan ortiq nerv hujayralari **neyronlardan** tashkil topgan. Har bir neyron o‘rtacha **10 000 ta bog‘lanishga** ega.

Inson miyasining aniq ishlash mexanizmi hali-hanuz sir bo‘lib qolmoqda. Shunga qaramay, bu hayratlanarli darajada murakkab “protessor”ning ayrim jihatlari ma’lum. Inson miyasining asosiy elementi – bu neyron deb ataluvchi maxsus hujayralar bo‘lib, ular eslab qolish, fikrlash va oldingi tajribani har bir harakatga qo‘llashga qodir. Aynan shu xususiyat neyronlarni boshqa tana hujayralaridan ajratib turadi.

Inson bosh miyasining po‘stloqi – bu qalinligi 2–3 mm bo‘lgan, neyronlardan tashkil topgan tekis qatlam bo‘lib, uning yuzasi taxminan 2 200 sm² ni tashkil etadi. Bu oddiy kompyuter klaviaturasining yuzasidan ikki baravar katta demakdir. Miya po‘stlog‘ida taxminan 10¹⁰ neyron mavjud bo‘lib, bu taxminan Somon yo‘lidagi yulduzlar soniga teng. Har bir neyron 10³–10⁴ boshqa neyronlar bilan bog‘langan. Umuman olganda, inson miyasida 10¹⁴ dan 10¹⁵ gacha neyronlararo bog‘lanish mavjud. Inson aqlining kuchi bazaviy elementlar (neyronlar) soniga, ular orasidagi bog‘lanishlarning xilma-xilligiga, shuningdek, genetik dasturlanish va ta’lim-tarbiya jarayoniga bog‘liq. Alohida neyron murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, uning

o'zining tarkibiy qismlari, kichik tizimlari va boshqaruv mexanizmlari mavjud. U juda ko'p miqdordagi elektroximik bog'lanishlar orqali axborotni uzatadi. Neyronlarning qariyb yuzdan ortiq turli sinflari mavjud. Neyronlar va ular orasidagi bog'lanishlar birgalikda an'anaviy kompyuterlardagi hisoblash jarayonidan farqli ravishda **nobinar, beqaror va nosinxron jarayonni** hosil qiladi. Sun'iy neyron tarmoqlar esa murakkab miyadagi eng asosiy elementlarni model qiladi, bu esa olimlar va tadqiqotchilarni muammoni yechishning yangi yo'llarini izlashga undaydi.

Hozirgi vaqtda neyronlar uchta katta guruhga bo'linadi: **retseptor neyronlari, effektor neyronlar va oraliq (inter) neyronlar**.

- **Retseptor neyronlar** sensor ma'lumotlarni miyaga kiritish uchun xizmat qiladi. Ular tashqi muhitning sezgi organlariga ta'sirini (masalan, yorug'likning ko'z to'r pardasiga, tovushning eshitish maqsurasiga ta'siri) o'zlarining aksonlari orqali elektr impulslariga aylantiradi.

- **Effektor neyronlar** ularga kelgan elektr signallarni ijro organlariga, masalan, mushaklarga, aksonlaridagi maxsus sinapslar orqali uzatadi.


- **Oraliq neyronlar** markaziy nerv tizimini hosil qiladi va retseptorlardan olingan ma'lumotni qayta ishlash hamda boshqaruv signallarini effektorlarga yetkazish uchun mo'ljallangan.

Inson va yuqori darajadagi hayvonlarning bosh miyasi **kulrang modda va oq moddadan** tashkil topgan. Kulrang modda — bu neyronlar, dendritlar va aksonlar to'plamidir. Oq modda esa miyadagi turli sohalarini, sezgi organlarini va mushaklarni bir-biriga bog'lovchi tolalardan tashkil topgan. Bu tolalar elektr izolatori bo'lib xizmat qiluvchi maxsus miyelin qavati bilan qoplangan.

Miyada tuzilishi jihatidan o'zaro ajralgan bo'limlar mavjud: **miya po'stlog'i (kora), gippokamp, talamus, miyachok, amigdal** va boshqalar. Har bir bo'lim murakkab modulli tuzilishga ega. Miya tuzilishida alohida o'rin egallagan **bosh miya po'stlog'i (katta yarim sharlar po'stlog'i)** eng muhim bo'lim bo'lib, hozirgi kunda asosiy assotsiativ axborot qayta ishlash jarayonlari aynan shu yerda sodir bo'ladi, degan fikr qabul qilingan.

Sensor sohalar bilan po'stloq o'rtasidagi, shuningdek po'stloqning turli qismlari o'rtasidagi bog'lanishlar fizik jihatdan **paralleldir**. Bir qatlamdagi hujayralar boshqa qatlamga proyeksiya qiladi, va bu proyeksiyalar ko'plab tarmoqlanuvchi va qo'shib ketuvchi tolalardan iborat bo'ladi (ya'ni, proyeksiyalar **divergent va konvergent**).

Olingan natijalar va ularning tahlili. Hozirgi kunda miyaga vizual (ko'rish) ma'lumot kirishi eng yaxshi o'rganilgan jarayonlardan biridir. To'r pardadan kelayotgan qo'zg'alishlar po'stloqqa **tartibli topografik ko'rinishda** yetadi, ya'ni to'r pardada yaqin joylashgan nuqtalar po'stloqda ham yaqin joylarni faollashtiradi. Ko'rish tizimida turli murakkablikdagi vizual stimullarga javobiga qarab **oddiy, murakkab va gipermurakkab neyronlar** ajratiladi. Sun'iy neyronlarda tabiiy (biologik) neyronning ishini taqlid qilish uchun juda tik (keskin) o'tishga ega bo'lgan nelinear qo'zg'alish funksiyasi kiritilgan. Bu funksiya neyron chiqish signalining ikkilik (binar) holatini takrorlash imkonini beradi: 1 – qo'zg'algan holat, 0 – tormozlangan holat. Bu holatlar orasidagi o'tishning chegarasi (porogi) C_0 deb ataluvchi doimiy siljish qiymati orqali boshqariladi.



Shuni ta'kidlash kerakki, sun'iy neyron ichida analog sxema yoki raqamli neyron-imitator uchun zarur bo'lgan tashqi quvvat manbai mavjud. Shu sababli biologik neyronlardagi kabi elektroximik energiyani tiklash uchun zarur bo'lgan "o'lik vaqtini" (refrakter davrni) kiritishga ehtiyoj yo'q. Bu esa kremniy asosidagi sun'iy neyronlar ancha yuqori tezkorlikka ega ekanini anglatadi.

1-rasm. Asosiy (bazaviy) sun'iy neyron:

- x_1, x_2 – kirishlar;
- C_1, C_2 – og'irlik koeffitsiyentlari;
- C_0 – siljish (porog) qiymati;
- Σ – summator;
- $F(.)$ – nelinear faollashtirish funksiyasi


(qo'zg'alish funksiyasi).

1-rasmda sun'iy neyronning soddalashtirilgan modeli tasvirlangan. Modifikatsiya qilingan kirish signallari a_1, a_2 summatorga uzatiladi, u asosan kirishlarning og'irliklar bilan ko'paytmasini yig'ish funksiyasini bajaradi. Summator uchun turli operatsiyalarni tanlash mumkin: arifmetik o'rtacha, eng katta qiymat, eng kichik qiymat, YOKI (OR), VA (AND) kabi amallar, ular turli natija qiymatlarini hosil qiladi.

Ko'pchilik tijoriy dasturiy paketlar muhandis-dasturchilarga yuqori darajadagi dasturlash tillari yordamida o'zlarining maxsus summator funksiyalarini yaratishga imkon beradi. Ba'zan summalash funksiyasi vaqt

bo'yicha ishlashini ta'minlaydigan faollashtirish funksiyasi qo'shilishi bilan murakkablashtiriladi.


2-rasm. O'tkazish funksiyasi namunasi



Har qanday holatda ham summalash funksiyasining chiqishi ma'lum algoritim asosida uzatuvchi funksiyadan o'tadi va natijada chiqishda (0 yoki 1, -1 yoki 1 yoki boshqa biror son) hosil bo'ladi. Mavjud neyron tarmoqlarda uzatuvchi funksiyalar sifatida sigmoid, sinus, giperbolik tangens va boshqa funksiyalar qo'llanishi mumkin. Uzatuvchi funksiyalardan

birining namunasi 2-rasmida ko'rsatilgan. Barcha sun'iy neyron tarmoqlari asosiy blok – sun'iy neyron asosida quriladi. Mavjud ko'plab variantlar va farqlar samarali neyron tarmoqlarini yaratishda iste'dodli ishlab chiquvchilarga ijodiy yondashuv uchun katta imkoniyat beradi.

Sun'iy neyron tarmoqlarini yaratish va ulardan foydalanishning yana bir qismi alohida neyronlar orasidagi ko'plab bog'lanishlarga taalluqlidir. Inson miyasida guruhlanish shunday amalga oshadiki, axborot **dinamik, o'zaro ta'sirli** va **o'z-o'zini tashkil qiluvchi** tarzda qayta ishlanadi. Biologik neyron tarmoqlari uch o'lchamli makonda, mikroskopik elementlardan tashkil topgan bo'lib, juda turli xil ulanishlarga qodir. Inson tomonidan yaratilgan sun'iy tarmoqlarda esa jismoniy cheklovlar mavjud. Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan sun'iy neyron tarmoqlari alohida sun'iy neyronlarning **qatlamlarga** birlashtirilgan ko'rinishidir. 3-rasmida sun'iy neyron tarmoqlarining tipik tuzilishi ko'rsatilgan. Ba'zi tarmoqlar faqat bitta qatlam yoki hatto bitta elementdan iborat bo'lishi mumkin bo'lsada, ko'pchilik amaliy tizimlar kamida uch xil qatlamdan iborat:



3 – rasm. Oddiy neyron tarmoq tushulishi

1. **Kirish qatlami**
2. **Yashirin qatlam**
3. **Chiqish qatlami**

Kirish qatlami neyronlari ma'lumotlarni kirish fayllaridan yoki bevosita elektron datchiklardan qabul qiladi. Chiqish qatlami esa axborotni tashqi muhitga, qo'shimcha kompyuter protsessoriga yoki boshqa qurilmaga uzatadi. Ushbu ikki qatlam orasida bir nechta yashirin qatlam bo'lishi mumkin; bu qatlamlardagi neyronlar har xil tarzda bog'langan bo'lib, har bir yashirin neyronning kirish va chiqishlari boshqa neyronlar bilan ulanadi.

Neyronlar orasidagi bog'lanishning yo'nalishi neyron tarmoqlarining muhim jihatlaridan biridir. Aksariyat tarmoqlarda yashirin qatlamdagi har bir neyron avvalgi qatlamdagi barcha neyronlardan signallarni qabul qiladi va ko'pincha kirish qatlamidan ham signal oladi. Signallar ustida amal bajarilgach, neyron o'z chiqish signalini keyingi qatlamdagi barcha neyronlarga uzatadi – bu **oldinga uzatish** (feedforward) deb ataladi. Agar **teskari aloqa** mavjud bo'lsa, chiqish qatlamidagi neyronlarning chiqish signallari oldingi qatlamlarga qaytariladi. Neyronlar orasidagi ulanish turi tarmoqning ishlashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina neyron tarmoqlari dasturiy paketlari foydalanuvchiga bog'lanishlarni ixtiyoriy ravishda qo'shish, o'chirish yoki boshqarish imkonini beradi. Doimiy ravishda moslashtiriladigan bog'lanish koeffitsiyentlari **qo'zg'atuvchi** ham, **tormozlovchi** ham bo'lishi mumkin.

Amaliy masalalarni yechishda neyron tarmoqlarni qo'llash.

Obrazlarni klassifikatsiya qilish. Bu vazifa – kirish obrazining (masalan, nutq signali yoki qo‘lda yozilgan belgi) belgi – vektori ko‘rinishida berilgan holda, uni oldindan belgilab qo‘yilgan bir yoki bir necha sinfga mansubligini aniqlashdan iborat. Mazkur usulning mashhur qo‘llanilishlariga harflarni tanish, tilni aniqlash, elektrokardiogramma signallarini tasniflash, qon hujayralarini ajratish kiradi.

Klasterlash (kategoriyalash). Klasterlash vazifasini yechishda o‘quv to‘plamida sinf yorliqlari bo‘lmaydi. Klasterlash algoritmi o‘xshash obrazlarni bir klasterga joylashtirish prinsipi asosida ishlaydi. Klasterlash ko‘pincha bilimlarni ajratib olish, ma‘lumotlarni siqish va ularning xususiyatlarini o‘rganishda qo‘llanadi.

Funksiyalarni approksimatsiya qilish. Faraz qilaylik, bizda o‘quv tanlov (ma‘lumotlar to‘plami) mavjud: $(x_1, y_1), (x_2, y_2), \dots, (x_n, y_n)$, ya‘ni kirish–chiqish juftliklari. Bu juftliklar shovqin ta‘sirida buzilgan noma‘lum R funksiyasi tomonidan generatsiya qilingan. Approksimatsiya vazifasi – ushbu noma‘lum funksiyaning E ko‘rinishdagi yaqinlashmasini topishdan iborat. Funksiya approksimatsiyasi ko‘plab ilmiy va muhandislik sohalarida modellashtirish masalalarini yechishda zarurdir.

Oldindan aytish (prognozlash). Faraz qilaylik, bizda vaqtning ketma-ket lahzalarida olingan n ta diskret o‘lchovlar mavjud: $\{y(t_1), y(t_2), \dots, y(t_n)\}$. Vazifa – keyingi lahzada $y(t_n + 1)$ qiymatini oldindan aytishdan iborat. Prognozlash biznes, ilm-fan va texnikada juda muhim ahamiyatga ega (masalan, fond bozoridagi narxlarini oldindan bilish, ob-havo prognozi).

Optimallashtirish. Matematika, statistika, texnika, fan, tibbiyot va iqtisodiyotdagi ko‘plab muammolar optimallashtirish masalalari sifatida ifodalanishi mumkin. Optimallashtirish algoritmining maqsadi – barcha cheklovlariga mos keluvchi, maqsad funksiyasini maksimal yoki minimal qiluvchi eng yaxshi yechimni topishdir.

Ma‘no bo‘yicha murojaat qilinadigan xotira. An‘anaviy kompyuterlarda xotiraga faqat aniq manzil orqali murojaat qilish mumkin, bu manzil xotira mazmuniga bog‘liq bo‘lmaydi. Manzil noto‘g‘ri hisoblangan taqdirda, butunlay boshqa ma‘lumot chaqirilishi mumkin. Assotsiativ xotira yoki ma‘no bo‘yicha murojaat qilinadigan xotira esa mazmun orqali qidirishga asoslanadi. Xotira mazmuni hatto qisman kirish yoki buzilgan ma‘lumot bo‘lsa ham esga chaqirilishi mumkin. Assotsiativ xotira multimedia axborot bazalarida qo‘llanishi mumkin.

Boshqaruv. Dinamik tizimni ko‘rib chiqamiz: $u(t)$ – boshqaruvchi kirish ta‘siri, $y(t)$ – tizimning shu t lahzadagi chiqish signali. Etalon modelga ega boshqaruv tizimlarida maqsad – tizim etalon model belgilagan kerakli trayektoriyada harakat qilishi uchun mos kirish signali $u(t)$ ni hisoblab topishdir. Bunga misol sifatida dvigatelning optimal boshqaruvini keltirish mumkin.

Shu bilan birga, neyron tarmoqlar ayrim sohalarida an‘anaviy hisoblash usullaridan ustunlikka ega bo‘lishiga qaramay, mavjud neyron tarmoqlari hali mukammal yechim darajasiga yetmagan.

Xulosa. Neyron tarmoqlar asosidagi o‘lchash tizimlari an‘anaviy algoritmlarga nisbatan yuqori darajadagi moslashuvchanlik va adaptivlikka ega bo‘lib, real vaqt rejimida ishlash qobiliyati bilan ajralib turadi. Bu esa sanoat avtomatikasi, elektronika, metrologiya, tibbiyot diagnostikasi, energetika, transport, atrof-muhit monitoringi va IoT tizimlaridagi aqlli sensorlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, neyron tarmoqlarni o‘lchash qurilmalariga integratsiya qilish ularning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi, inson omili sababli yuzaga keladigan xatoliklarni kamaytiradi va o‘lchash jarayonlarining ishonchligini oshiradi. Kelgusida ushbu sohada yanada takomillashgan algoritmlar, chuqur o‘rganish modellaridan foydalanish va aqlli sensor tizimlarini yaratish orqali o‘lchash texnologiyalarining samaradorligini yuqori bosqichga olib chiqish imkoni mavjud.

ADABIYOTLAR:

1. Haykin, S. *Neural Networks and Learning Machines*. – New York: Pearson, 2016.
2. Bishop, C. *Pattern Recognition and Machine Learning*. – Springer, 2006.
3. Rumelhart, D., McClelland, J. *Parallel Distributed Processing: Explorations in the Microstructure of Cognition*. – MIT Press, 1986.
4. Goodfellow, I., Bengio, Y., Courville, A. *Deep Learning*. – MIT Press, 2016.
5. Koren, Y. *Advanced Measurement Techniques*. – McGraw-Hill, 2014.
6. Zadeh L. A. *Neuro-Fuzzy Systems for Intelligent Measurement Applications*. – IEEE Transactions, 2005.
7. Simon, D. *Optimal State Estimation: Kalman, H_∞ and Nonlinear Approaches*. – Wiley, 2006.
8. O‘zDSt 8.009:2020. O‘lchashlar birligini ta‘minlash. Asosiy tushunchalar. – T.: O‘zstandart, 2020.

9. *O'zDSt ISO/IEC 17025:2019. Sinov va kalibrlash laboratoriyalarining vakolatligiga qo'yiladigan umumiy talablar.*
10. *O'zDSt 8.019:2006. O'lchash o'zgartkichlari. Umumiy texnik talablar.*
11. *Cherkashin, V. Metrologiya va o'lchash texnologiyalari. – Moskva: Energiya, 2018.*
12. *Suyunov, A., Umarov, B. Metrologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.*
13. *Osvalds, G. Intelligent Sensors and Measurement Systems. – CRC Press, 2017.*

**TASHKILOTLARDA BIZNES UZLUKSIZLIGINI BOSHQARISH TIZIMINI
MODELLASHTIRISH USULLARI**

Turdimatov Mamirjon Mirzayevich,

Farg‘ona davlat texnika universiteti “DI va kiberxavfsizlik” kafedrası dotsenti
turdimatovmamir1958@gmail.com

Aliyev Muhammadali G‘ulomjon o‘g‘li,

Farg‘ona davlat texnika universiteti “Axborot xavfsizligi” yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot tashkilotlarda Biznes uzluksizligini boshqarish tizimini (Business Continuity Management - BCM) loyihalash va modellashtirish usullariga qaratilgan. Ma‘lumki, zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida tashkilot jarayonlarining qisqa muddatga to‘xtab qolishi moliyaviy yo‘qotishlar, mijozlar ishonchining pasayishi va brend obro‘sining kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu tufayli tadqiqot asosan risklarni aniqlash va BCMning nazariy va amaliy asoslari tadqiqi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: biznes uzluksizligini boshqarish, BCM (Business Continuity Management), risk, risklarni boshqarish, biznesga ta‘sir tahlili (BIA), tiklash strategiyalari, favqulodda holatlar, tashkilot barqarorligi, raqamli iqtisodiyot, axborot tizimlari xavfsizligi, korporativ boshqaruv.

**METHODS FOR MODELING BUSINESS CONTINUITY MANAGEMENT SYSTEMS IN
ORGANIZATIONS**

Abstract. This study focuses on methods for designing and modeling Business Continuity Management (BCM) systems in organizations. It is known that in the conditions of the modern digital economy, a short-term interruption of organizational processes can lead to financial losses, loss of customer trust, and a decrease in brand reputation. Therefore, the study mainly focuses on identifying risks and studying the theoretical and practical foundations of BCM.

Keywords: business continuity management, BCM (Business Continuity Management), risk, risk management, business impact analysis (BIA), recovery strategies, emergencies, organizational stability, digital economy, information systems security, corporate governance.

**МЕТОДЫ МОДЕЛИРОВАНИЯ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ НЕПРЕРЫВНОСТЬЮ
БИЗНЕСА В ОРГАНИЗАЦИЯХ**

Аннотация. Данное исследование посвящено методам проектирования и моделирования систем управления непрерывностью бизнеса (BCM) в организациях. Известно, что в условиях современной цифровой экономики кратковременное прерывание организационных процессов может привести к финансовым потерям, потере доверия клиентов и снижению репутации бренда. Поэтому исследование в основном сосредоточено на выявлении рисков и изучении теоретических и практических основ BCM.

Ключевые слова: управление непрерывностью бизнеса, BCM (Business Continuity Management), риск, управление рисками, анализ воздействия на бизнес (BIA), стратегии восстановления, чрезвычайные ситуации, организационная устойчивость, цифровая экономика, безопасность информационных систем, корпоративное управление.

Kirish. Zamonaviy tashkilotlarning barqaror va samarali faoliyat yuritishi ularning ichki va tashqi jarayonlarining uzluksiz ishlashiga bevosita bog‘liq bo‘lib, bunda axborot tizimlari, ma‘lumotlar almashinuvi, texnologik infratuzilma, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari va inson resurslari muhim o‘rin tutadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida har qanday xizmatning qisqa muddatga to‘xtab qolishi ham jarayonlarning izdan chiqishiga, mijozlar oqimini kamayishiga, moliyaviy yo‘qotishlar ortishiga va brend obro‘sining pasayishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa bugungi globallashtirilgan muhitda xavf omillari ko‘payib bormoqda: tabiiy ofatlar, texnik nosozliklar, elektr ta‘minotidagi uzilishlar, dasturiy xatoliklar, kiberhujumlar, ma‘lumotlar yo‘qolishi va xodimlarning tasodifiy xatolari tashkilotning uzluksiz ishlab turishiga real tahdid soladi. Bunday sharoitda tashkilotning favqulodda holatlarga tayyorligi nafaqat texnik choralar bilan, balki puxta o‘ylangan, oldindan rejalashtirilgan va muntazam sinovdan o‘tkaziladigan boshqaruv tizimi bilan ta‘minlanadi.

Biznes uzluksizligini boshqarish tizimi (Business Continuity Management — BCM) tashkilotning faoliyatini himoya qilish, yuzaga kelgan uzilishlardan minimal zarar bilan chiqish va iloji boricha qisqa vaqt ichida qayta tiklanishni ta'minlashga qaratilgan kompleks mexanizmdir. BCMning asosiy vazifasi favqulodda holat yuz berganda biznes jarayonlarini to'xtatmasdan davom ettirish uchun zarur bo'lgan strategiyalar, resurslar va amaliy choralarni oldindan belgilashdan iboratdir. Bu tizim nafaqat axborot texnologiyalari bilan bog'liq jarayonlarni, balki tashkilotning barcha bo'limlari faoliyatini o'z ichiga oladi: boshqaruv, moliya, logistika, kommunikatsiya, xavfsizlik va inson resurslari[1-3].

Ilmiy-uslubiy yondashuvlar BCMning nazariy asoslari bilan birga real amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan aniq mexanizmlarni ham taqdim etadi. Gap shundaki, biznes uzluksizligini boshqarish oddiy favqulodda vaziyat rejasi emas, balki tashkilotning umumiy boshqaruv tizimiga integratsiyalashgan, doimiy ravishda yangilanib boriladigan strategik jarayondir. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning maqsadi mavjud metodik materiallar va hujjatlarni tahlil qilish orqali BCM tizimini loyihalash prinsiplari, funksional bosqichlari, amaliy talab va mexanizmlarini chuqur o'rganishdan iboratdir. Bu orqali BCMning zamonaviy tashkilotlar uchun naqadar muhim ekani va uni to'g'ri joriy etish biznes jarayonlarining davomiyligi, raqobatbardoshligi hamda xavf-xatarlarga bardosh berish qobiliyatini oshirishini ilmiy asosda yoritish ko'zda tutiladi[4-6].

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini biznes uzluksizligini boshqarish bo'yicha mavjud uslubiy qo'llanmalar, xalqaro standartlar, ilmiy adabiyotlar va amaliy qo'llaniladigan BCM modellari tahlili tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida BCMning hayot sikli asosiy konseptual yadro sifatida olingan bo'lib, ushbu sikl risklarni aniqlash va baholash, biznesga ta'sir tahlili (BIA), strategik rejalashtirish, tiklash mexanizmlarini ishlab chiqish, hujjatlar yaratish, sinovlardan o'tkazish va tizimni muntazam ravishda yangilab borishni o'z ichiga olgan kompleks jarayon sifatida talqin qilindi.

Korporativ boshqaruvda risklarni boshqarish va risk darajasini pasaytirish yo'llari (Mallayev, S. (2025)). *Tijorat banklarida operatsion risklarini baholash va boshqarish tizimini tashkil qilish* (Rabbimov, J. (2025)). Tashkilotlarga bo'layotgan xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish usullarini tahlili (Turdimatov M.M., Baratova G.). *Aktsiyadorlik jamiyatlarida investitsion risklarni boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslari* (Xasanov, H. (2024)). Korxona va tashkilotlarda axborot xavfsizligi risklarini baholash usullarini tahlili (Turdimatov M.M., Abdubannayev A. (2025)). *Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollari takomillashtirish* (Tashpulatova, M. (2024)). *O'zbekiston Respublikasida infratuzilma loyihalarini amalga oshirishdagi risklarni boshqarish* (Yusupova, Z. (2025)).

BIA metodikasi doirasida tashkilotning eng muhim biznes jarayonlarini aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini xaritalash, jarayonlarning to'xtab qolishi oqibatida yuzaga keladigan moliyaviy va operatsion zararlarni baholash va har bir jarayon uchun ruxsat etilgan maksimal to'xtash vaqti (RTO) hamda tiklash nuqtasi maqsadi (RPO) aniqlab borildi. Bu jarayon BCMning keyingi barcha bosqichlari uchun poydevor bo'lib xizmat qildi.

Risklarni baholash bosqichida ehtimol-ta'sir modeli asosida xavf omillarining intensivligi aniqlanib, ular toifalarga ajratildi va ustuvorlik darajasi bo'yicha reytinglash amalga oshirildi. Ushbu yondashuv xavflar reestrining shakllanishiga va ularga nisbatan qaysi boshqaruv choralari ko'rish zarurligini belgilab olishga imkon berdi. Tiklash strategiyasini ishlab chiqish jarayonida zaxira serverlar, muqobil ish joylari, bulut texnologiyalari, avtonom elektr ta'minoti, ma'lumotlarni replikatsiya qilish texnologiyalari va xodimlarning o'zaro almashinuv tizimlari kabi texnik va tashkiliy yechimlardan foydalanish darajasi o'rganildi[5-7,10].

Tadqiqot davomida modellashtirish usuli yordamida turli favqulodda holatlar stsenariylari yaratilib, BCMning real faoliyatda qay darajada samarali ishlashi baholandi. Shuningdek, taqqoslama tahlil metodidan foydalanib, xalqaro standartlar - xususan ISO 22301 — talablari bilan mavjud uslubiy qo'llanmalar o'rtasidagi farq va o'xshashliklar aniqlab borildi. Tizimli yondashuv metodidan foydalanish esa tadqiqotning barcha bosqichlarini yagona mantiqiy struktura asosida o'rganishga imkon berdi. Ushbu metodlar yordamida BCMning amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari chuqur tahlil qilindi va tashkilotlar uchun moslashuvchan, real sharoitga yo'naltirilgan yondashuvlar shakllantirildi.

Natijalar. Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar tashkilotlarda biznes uzluksizligini boshqarish tizimini samarali shakllantirish uchun zarur bo'lgan bir qator asosiy jarayonlar va ularning o'zaro bog'liqligini aniq ko'rsatdi. Eng avvalo biznesga ta'sir tahlili (BIA) orqali tashkilotning eng muhim funksiyalarini aniq ajratib olish mumkin bo'ldi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, xizmat ko'rsatish jarayonlari, mijozlarga xizmat bilan bog'liq operatsiyalar, ma'lumotlarni qayta ishlash, texnik xizmatlar, infratuzilma boshqaruvi va axborot tizimlari kabi funksional yo'nalishlar har qanday uzilishdan eng ko'p zarar ko'rish mumkin bo'lgan jarayonlar qatoriga kiradi. Ushbu jarayonlar uchun ruxsat etilgan maksimal to'xtash vaqti (RTO) va tiklash nuqtasi maqsadi (RPO) kabi mezonlarning aniqlanishi ularni qay darajada tez

tiklash zarurligini ko'rsatib berdi va tiklash strategiyasining asosiy tarkibiy qismiga aylandi. Shuningdek, BIA jarayonida aniqlangan bog'lanishlar asosida bir jarayonning to'xtashi boshqa jarayonlarga zanjirsimon ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ham aniqlandi, bu esa BCM strategiyasini yanada chuqurroq rejalashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Axborot xavfsizligi riskini baholash modeli oldingi tadqiqotlardan foydalangan holda tashkilotning axborot xavfsizligi riskini baholashning umumlashtirilgan modelini tuzish mumkin. Tashkilotning axborot xavfsizligi darajasini aniqlash uchun faqat bitta xavfning qiymatini hisoblashda tashkilotning axborot xavfsizligi darajasini aniqlash mumkin emas. Ammo, agar siz ma'lum bir blok uchun bir nechta xavf yoki xavfning qiymatlarini hisoblasangiz, masalan:

- xavfsizlik yo'nalishi bo'yicha (mavjudlikni ta'minlash);
- ATni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar bo'yicha (ATni ta'minlash bo'yicha tashkiliy chora);
- qimmatbaho aktiv uchun (tashkilot xodimlari);

Bunday holda siz tashkilotning axborot xavfsizligi darajasini hisoblashingiz mumkin. Buning uchun bizga kerak:

$$\text{Quidagi formuladan foydalanib, umumiy xavf qiymatini hisoblash mumkin } R_{umum} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n R_i \quad (1)$$

bu yerda R - parametrlar bloki bo'yicha tashkilotning umumiy axborot xavfsizligi xavfi;

i - hisoblangan xususiy xavfning seriya raqami;

n - hisob-kitob qilingan xususiy risklarning umumiy soni.

Parametrlar bloki uchun umumiy xavfni hisoblash misoli quyidagi 1- jadvalda keltirilgan.

	Xususiy riskning ahamiyati	Parametrlar bloki uchun umumiy xavfning qiymati
Xavf №1	28	$R_{o6m} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n R_i = \frac{1}{7} 78 = 26$
Xavf №2	15	
Xavf №3	35	

1- jadval. Blok uchun axborot xavfsizligining umumiy xavfini hisoblash parametrlari.

Tashkilotning IS darajasining qiymatini aniqlang. Buning uchun axborot xavfsizligi darajasini baholash uchun ishlab chiqilgan matritsadan foydalanish mumkin (2-jadval va 3-jadval).

Tashkilotning axborot xavfsizligi darajasini baholashda uchta parametr hisobga olinadi, menimcha, tashkilotdagi axborot xavfsizligi darajasi quyidagilarga bog'liq:

1. Parametrlar bloki uchun xavfning umumiy darajasi;
2. Tashkilotning umumiy tavakkalchilikning oldini olish xarajatlari (ular allaqachon sarflangan);
3. Axborot xavfsizligi xavfiga munosabat: uni qabul qilish, uzatish yoki kamaytirish.

Xavfga munosabat	Past xavf				O'rtacha xavf			
	Axborot xavfsizligi xarajatlari				Axborot xavfsizligi xarajatlari			
	Yoqori	O'rta	past	xarajat yo'q	katta	orasida	past	xarajat yo'q
Riskni o'tkazish	10	9	8	7	9	8	7	6
Riskni kamaytirish	9	8	7	6	8	7	6	5
kardinal kamaytirish	8	7	6	5	7	6	5	4
Riskni qabul qilish	7	6	5	4	6	5	4	3

2-jadval. Axborot xavfsizligini baholash matritsasi (1-qism)

Xavfga munosabat	Yuqori xavf				Kritik xavf darajasi			
	Axborot xavfsizligi xarajatlari				Axborot xavfsizligi xarajatlari			
	Yoqori	O'rta	past	xarajat yo'q	katta	O'rta	past	xarajat yo'q
Riskdan qochish	8	7	6	5	7	6	5	4
Riskni kamaytirish	7	6	5	4	6	5	4	3
kardinal kamaytirish	6	5	4	3	5	4	3	2
Riskni qabul	5	4	3	2	4	3	2	1

qilish								
--------	--	--	--	--	--	--	--	--

3-jadval. Axborot xavfsizligini baholash matritsasi (2-qism)

Taklif etilayotgan axborot xavfsizligi darajasi matritsasiga (2-jadval, 3-jadval) ko'ra, 10 yoki 9-darajaga ega bo'lgan tashkilot, agar 100% axborot xavfsizligini ta'minlashning iloji bo'lmasa, ishonchli himoyalangan deb hisoblanadi.

Tashkilotga 8, 7 yoki 6 daraja berilgan bo'lsa, axborot xavfsizligining o'rtacha darajasiga ega deb hisoblanadi.

Tashkilotga 5, 4 yoki 3 daraja berilgan bo'lsa, axborot xavfsizligining juda past darajasiga ega deb hisoblanadi.

Risk tahlili bosqichi orqali tashkilot faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavf omillarining to'liq ro'yxati shakllantirildi. Tahlil natijalariga ko'ra, texnik nosozliklar, kiberhujumlar, elektr ta'minotidagi uzilishlar, server va ma'lumotlar bazasining ishdan chiqishi, ma'lumotlarning tasodifiy o'chirilib ketishi, inson xatoliklari va tabiiy ofatlar kabi xavflar eng ustuvor tahdidlar sifatida qayd etildi. Ehtimol-ta'sir modeli asosida ushbu xavflar reytinglash natijasida ularning aksariyatiga qaratilgan kamaytirish choralari ishlab chiqildi. Masalan, elektr ta'minoti uzilishi uchun uzluksiz quvvat manbalari (UPS) va avtonom generatorlar, ma'lumotlar yo'qolishi xavfi uchun esa bulutli saqlash tizimlari va doimiy replikasiya mexanizmlari joriy etish tavsiya qilindi[8,9].

Tahlil asosida ishlab chiqilgan tiklash strategiyasi ko'plab texnik va tashkiliy choralarni o'z ichiga oldi. Xususan, zaxira serverlar va virtualizatsiya texnologiyalari yordamida xizmatlarni tezkor qayta tiklash imkoniyati yaratildi, muhim ma'lumotlarni bulutda saqlash orqali ularni har qanday holatda tiklash kafolatlandi, aloqa kanallarining zaxira variantlari ishlab chiqildi va xodimlar uchun favqulodda holatlarda amal qilinadigan aniq yo'riqnomalar shakllantirildi. Tizimning haqiqatda qay darajada ishlashini baholash maqsadida o'tkazilgan sinovlar — stsenariy asosida modellashtirilgan mashqlar, texnik tiklash testlari, zaxira ish joylarida ishlash bo'yicha trening mashg'ulotlari — rejaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam berdi. Sinovlar jarayonida aniqlangan kamchiliklar asosida reja takomillashtirildi va jarayonlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish yanada kuchaytirildi[10].

Natijalar shuni ko'rsatdiki, BCM tizimi tashkilotda puxta ishlab chiqilgan va real stsenariylar asosida tekshirib boriladigan bo'lsa, u favqulodda holatlarda jarayonlarning to'xtab qolish vaqtini sezilarli darajada kamaytiradi va iqtisodiy yo'qotishlarning oldini oladi. Umuman olganda, tadqiqot BCMning barcha bosqichlari o'zaro uyg'un va tizimli bajarilganda, tizim tashkilotning favqulodda vaziyatlarga tayyorligini tubdan oshiruvchi samarali boshqaruv vositasi ekanini tasdiqladi.

Muhokama. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar biznes uzluksizligini boshqarish (BCM) tizimi doimiy takomillashtirib borilishi zarur bo'lgan dinamik jarayon ekanini yana bir bor isbotladi. BCM faqatgina bir martalik reja yoki favqulodda vaziyatda qo'llaniladigan choralar majmuasi emas, balki tashkilotning har bir bo'limi bilan uzviy bog'liq holda ishlaydigan, muntazam ravishda yangilanadigan boshqaruv tizimidir.

Har bir sinov, trening yoki modellashtirilgan ssenariy natijasida aniqlangan xatoliklar tizimni real holatlarga moslashtirishga yordam beradi, holatlarning o'zgaruvchan tabiatini hisobga olib, rejaning qayta ko'rib chiqilishi va dolzarb holga keltirilishi esa BCMning amaliy samarasini oshiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, axborot xavfsizligi, IT infratuzilmasi, yuqori darajadagi boshqaruv, inson resurslari va kommunikatsiya bo'limlarining o'zaro muvofiqlashtirilgan ishlashi BCMning muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi; aks holda tizimning alohida bo'limlari yaxshi ishlasa ham, umumiy uzluksizlikni ta'minlashda bo'shliqlar yuzaga keladi.

BCMning iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega ekanligi ham tadqiqot natijalarida yaqqol ko'rindi — uzilishlarning oldini olish yoki ularni qisqa muddatda bartaraf etish nafaqat zararlarni kamaytiradi, balki tashkilotning raqobatbardoshligini saqlash, mijozlar ishonchini mustahkamlash va brend obro'sini himoya qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, BCMning moslashuvchan metodikasi uni nafaqat yirik korxonalar, balki kichik va o'rta biznes subyektlari, davlat tashkilotlari, ta'lim muassasalari va boshqa ijtimoiy soha institutlarida ham samarali qo'llash imkonini beradi.

Bu tizimning universalligi uni har bir tashkilotning o'ziga xos ehtiyojlari va resurslariga moslab modifikatsiya qilish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, BCMning uzluksiz rivojlanishi, texnologik innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirilishi va amaliyotga muntazam tatbiq etib borilishi uning haqiqiy samaradorligini ta'minlaydigan eng muhim omillardir.

Xulosa. Yakuniy xulosalarga ko'ra, biznes uzluksizligini boshqarish tizimini to'g'ri loyihalash tashkilotning umumiy barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega bo'lgan omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganidek, risklarni erta aniqlash, biznesga ta'sir tahlilini to'liq o'tkazish,

tiklash strategiyalarini puxta ishlab chiqish va rejalarini real sharoitlarga moslab muntazam sinovdan o'tkazish BCMning asosiy poydevor elementlari bo'lib, ushbu bosqichlar uzviy va izchil amalga oshirilganda tashkilot har qanday favqulodda vaziyatdan minimal yo'qotish bilan chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

BCM tizimining samarali joriy etilishi nafaqat iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi, balki tashkilotning obro'-e'tiborini himoya qiladi, mijozlar ishonchini saqlab qoladi va bozor raqobatida barqaror pozitsiyani qo'llab-quvvatlaydi. Zamonaviy texnologiyalar, bulutli yechimlar, avtomatlashtirilgan tiklash tizimlari va xavfsizlik standartlari bilan uyg'un integratsiya qilinishi BCMning amaliy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, xodimlarning muntazam tayyorlanishi, treninglar va favqulodda vaziyat bo'yicha mashg'ulotlarning olib borilishi tizimning har doim ishga tayyor holatda bo'lishini ta'minlaydi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, BCM metodikasi o'zining moslashuvchan tuzilishi va universalligi sababli yirik korxonalardan tortib ta'lim muassasalari, davlat idoralari va kichik biznes subyektlarigacha bo'lgan keng doiradagi tashkilotlarda muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, BCMni joriy etish tashkilotning xavfsizlik madaniyatini mustahkamlovchi, kelajakdagi xavf va tahdidlarga nisbatan chidamliligini oshiruvchi, uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlovchi muhim boshqaruv mexanizmidir.

ADABIYOTLAR:

1. Mallayev, S. (2025). *Korporativ boshqaruvda risklarni boshqarish va risk darajasini pasaytirish yo'llari*. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 3(2).
2. Rabbimov, J. (2025). *Tijorat banklarida operatsion risklarini baholash va boshqarish tizimini tashkil qilish*. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*. green-eco.uz
3. Turdimatov M.M., Baratova G. *Tashkilotlarga bo'layotgan xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish usullarini tahlili*. *TATU Samarqand filiali "Zamonaviy axborot, kommunikatsiya texnologiyalari va AT-ta'lim tatbiqi muammolari" Respublika ilmiy- amaliy anjumani*. Noyabr, Samarqand-2021 yil.
4. Xasanov, H. (2024, noyabr 11). *Aktsiyadorlik jamiyatlarida investitsion risklarni boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslari*. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 2(4).
5. Turdimatov M.M., Abdubannayev A. *Korxona va tashkilotlarda axborot xavfsizligi risklarini baholash usullarini tahlili*. (2025). *Research and Implementation*, 3(5), 20–26.
6. Tashpulatova, M. (2024, iyun 25). *Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish*. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 2(6).
7. Yusupova, Z. (2025). *O'zbekiston Respublikasida infratuzilma loyihalarini amalga oshirishdagi risklarni boshqarish*. *Green Economy and Development / Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*. green-eco.uz
8. Baymirzaev, D. (2025). *Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari*. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*.
9. Abbos Isroil o'g'li, Y., & Safarova, N. A. (2023). *Biznesda risklarni boshqarish*. *Ilm-fan va Innovatsiya Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi*, 2(05), 19–20.
10. Turdimatov M.M., Aliyev M.G'. *Tashkilotlarda biznes uzluksizligini boshqarish tizimini loyihalash dasturini ishlab chiqish*. *Research and, Implementation*, 3(11), 292–296. <https://rai-journal.uz/index.php/rai/article/view/1785>

**UNIVERSITET HISOBLASH TARMOG‘I ZAIFLIK KO‘RSATKICHLARINI
MODELLASHTIRISHGA ASOSLANGAN AXBOROT XAVFSIZLIGI TIZIMI****Kabulov Anvar Vasilovich,***O‘zbekiston milliy universiteti Axborot xavfsizligi kafedrası professor, t.f.d.**anvarkabulov@mail.ru***O‘rinov Nodirbek Toxirjonovich,***Andijon davlat universiteti Dasturiy injiniringi kafedrası dotsenti**nodirbekurinov1@gmail.com*

Annotatsiya. Taqsimlangan hisoblash tarmog‘i uchun axborot xavfsizligi tizimini shakllantirishning ikki bosqichli metodikasi taklif etiladi. Birinchi bosqichda ehtimollar nazariyasiga asoslangan matematik model yordamida zaiflik koeffitsiyenti aniqlanadi. Ushbu koeffitsiyent axborotlashtirish obyektining tarmog‘i axborot xavfsizligi darajasini miqdoriy baholash hamda xavflarning ruxsat etilgan va tanqidiy chegaralarini belgilashga xizmat qiladi. Ikkinchi bosqichda taqsimlangan hisoblash tarmog‘i resurslari Proxmox VE virtualizatsiya tizimi asosida tashkil etilib, xostlarga Suricata IPS joylashtiriladi va Splunk SIEM tizimi bilan integratsiya qilinadi. Virtual muhitda tarmoq qurilmalari va axborot xavfsizligi komponentlarini imitatsion modellashtirish orqali himoyalangan taqsimlangan hisoblash tarmog‘i modeli quriladi. Natijada taklif etilgan metodika zaiflik darajasini aniqroq baholash va axborot xavfsizligi tizimini asoslangan ravishda loyihalash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: axborot xavfsizligi, axborotlashtirish obyekti, taqsimlangan hisoblash tarmog‘i, matematik model, zaiflik koeffitsiyenti, virtualizatsiya, IDS, SIEM.

**INFORMATION SECURITY SYSTEM BASED ON MODELING OF VULNERABILITY
INDICATORS OF UNIVERSITY COMPUTER NETWORK**

Abstract. A two-stage methodology for designing an information security system for a distributed computing network is proposed. In the first stage, a vulnerability coefficient is determined using a mathematical model based on probability theory. This coefficient is used to quantitatively assess the information security level of the informatization object’s network and to define the permissible and critical thresholds of security threats. In the second stage, the resources of the distributed computing network are organized on the basis of the Proxmox VE virtualization platform, Suricata IPS is deployed on the hosts, and integration with the Splunk SIEM system is implemented. In a virtual environment, a protected distributed computing network model is constructed by means of simulation of network devices and information security components. As a result, the proposed methodology makes it possible to more accurately assess the vulnerability level and to design the information security system on a well-founded basis.

Keywords: information security, informatization object, distributed computing network, mathematical model, vulnerability coefficient, virtualization, IDS, SIEM.

**СИСТЕМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ НА ОСНОВЕ
МОДЕЛИРОВАНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УЯЗВИМОСТИ КОМПЬЮТЕРНОЙ СЕТИ
УНИВЕРСИТЕТА**

Аннотация. Предлагается двухэтапная методика формирования системы информационной безопасности для распределённой вычислительной сети. На первом этапе с использованием математической модели, основанной на аппарате теории вероятностей, определяется коэффициент уязвимости. Данный коэффициент служит для количественной оценки уровня информационной безопасности сети объекта информатизации, а также для определения допустимых и критических порогов угроз безопасности. На втором этапе ресурсы распределённой вычислительной сети организуются на базе системы виртуализации Proxmox VE, на хостах развёртывается система Suricata IPS и осуществляется интеграция с системой Splunk SIEM. В виртуальной среде путём имитационного моделирования сетевых устройств и компонентов информационной безопасности формируется модель защищённой распределённой вычислительной сети. В результате предложенная методика позволяет более точно оценивать уровень уязвимости и обоснованно проектировать систему информационной безопасности.

Ключевые слова: информационная безопасность, объект информатизации, распределённая вычислительная сеть, математическая модель, коэффициент уязвимости, виртуализация, IDS, SIEM.

Kirish. Kompaniyalar axborotlashtirish obyektlari axborot xavfsizligiga tahdidlar landshafti uzluksiz o'zgarib borayotgan, shuningdek, kompyuter zararli dasturlari (kompyuter xakerlari)ning taktika va strategiyalari takomillashib borayotgan sharoitda axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassislar ko'pincha axborotni himoya qilish tizimlari ishining samaradorligi va ishonchligiga tayanadilar. Bunday axborotni himoya qilish tizimlarining asosiy vazifasi axborot tizimlaridan tashqariga axborotning (odatda maxfiy ma'lumotlarning) sizib chiqishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Qator tadqiqotlarda ko'rsatilganidek [1], axborot sizib chiqishi bilan bog'liq axborot xavfsizligi hodisalarining aksariyati xodimlarning xatolari bilan bog'liq [2]. Sizib chiqishlarning taxminan 25% qismi xakerlar [3], insayderlar yoki axborot tizimlari foydalanuvchilarining yomon niyatli harakatlari natijasida yuzaga keladi.

Insayderlar ham, tashqi buzuvchilar ham axborot xavfsizligi vositalarini (yoki axborotni himoya qilish tizimini – axborotni himoya qilish tizimlarini) chetlab o'tishga intilishi tabiiy. Bu, ayniqsa, nishonga olingan (maqsadli) hujumlar sharoitida dolzarbdir. Hujum qiluvchi tomon va himoya tarafining bunday qarama-qarshiligining natijasi ko'plab omillarga bog'liq. Natijada, axborotlashtirish obyekti axborot xavfsizligi tizimi (keyingi o'rinlarda AXT) qay darajada mukammal bo'lmasin, himoya muvaffaqiyatiga oldindan kafolat berib bo'lmaydi.

